

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O`RTA MAXSUS TA`LIM
VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

FILOLOGIYA FAKULTETI

O`ZBEK TILI VA ADABIYOTI KAFEDRASI

Boboxonova Diliromning

Psixolingvistika fanidan

MA`RUZALAR MATNI



Namangan-2019

1-ma'ruza. Psixolingvistika - nutqiy faoliyat haqidagi fan

Ma'lumki, dunyo tilshunosligida matnga dastlab, asosan, semantik va sintaktik nuqtai nazardan yondashilgan. Keyingi yillarda, xususan, XXI asr boshlaridan matnni lingvokulturologik, pragmatik, sotsiolingvistik, kognitiv va psixolingvistik tamoyillar asosida tadqiq etish tendentsiyasi kuchaydi. Unga faqat semantik-sintaktik jihatdan bog'langan gaplar yig'indisi sifatida emas, balki ijtimoiy qimmatga ega bo'lgan muloqot shakli, o'zida muayyan til sohiblarining bilimlarini, lisoniy tafakkurini, milliy psixologiyasi va mentalitetini aks ettiruvchi mental qurilma sifatida qarala boshlandi.

Antropotsentrik paradigmaning shakllanishi til sohibi – so'zlovchi shaxs omilini tadqiq etish bilan bog'liqdir. Tilshunoslikda antropotsentrik burilishning yuzaga kelishi strukturalizmning tilni tadqiq etishning “o'zida va o'zi uchun” tamoyilini chetga surib, asosiy e'tiborini shaxs omiliga qaratdi¹.

Hozirgi vaqtda tilshunoslikning yetakchi paradigmalaridan biri sifatida tan olinayotgan antropotsentrizmning ildizlari V.fon Gumboldt hamda L.Vaysgerberning nazariy qarashlaridan oziqlandi².

Antropotsentrizm so'zi yunoncha anthropos – odam hamda lotincha centrum - markaz ma'nosini bildiruvchi so'zlar birikuvidan hosil bo'lgan³.

Antropotsentrizm termini dastlab qadimgi yunon falsafasining “Inson – koinot markazidir” degan g'oyani ilgari suruvchi qarashiga nisbatan qo'llangan bo'lib, bu g'oya ayniqsa O'rta asrlarda Yevropada keng tarqaldi⁴.

Tilshunoslikda til tizimini antropotsentrik nuqtai nazardan o'rganish, asosan, lingvistik semantika, kognitiv tilshunoslik, psixolingvistika, pragmatik tilshunoslik, lingvokulturologiyaga oid tadqiqotlarda namoyon bo'lgan. Antropotsentrik paradigma asosida yaratilgan ishlarda til tizimi shaxs omili bilan

¹ Воркачев С.Г. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

² Бу ҳақда қаранг: Маслова В.А. Лингвокультурология. – М.: Academia, 2001. – С. 17; Махмудов Н. Тилнинг мукамал тадқиқи йўллари излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16; Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Концептуальные исследования. Введение. – М.: Флинта, 2014. – С. 8.

³ <http://ph.ras.ru//elibr0215.html>: Новая философская энциклопедия.

⁴ Пименова М.В., Кондратьева О.Н. Кўрсатилган асар. – Б. 8.

bog'liqlikda tadqiq etilgan. O'zbek tilshunoslarining lingvistik semantika, pragmatika, kognitiv tilshunoslikka oid tadqiqotlari o'zida antropotsentrik yo'nalish tendentsiyalarini namoyon qilsa-da, bu boradagi tadqiqotlar hali yetarli darajada emas.

Ta'kidlash lozimki, o'zbek tilshunosligida matnning lingvopoetik, pragmatik, derivatsion, kommunikativ xususiyatlariga bag'ishlangan muayyan tadqiqotlar amalga oshirilgan. Lekin o'zbek tilida yaratilgan matnlar shu vaqtga qadar antropotsentrik aspektda yaxlit holda tadqiq qilingan emas.

Dunyo tilshunosligida pragmalingvistika, diskursiv tahlil, kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya kabi sohalarning yuzaga kelishi va rivojlanishi matn yaratilishi hodisasining talqinida ham jiddiy nazariy qarashlarning paydo bo'lishiga olib keldi. Xususan, matn tahliliga antropotsentrik nuqtai nazardan yondashish bugungi tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biriga aylandi. Murakkab va serqirra hodisa hisoblangan matn tadqiqida so'zlovchi – matn – tinglovchi (matn muallifi – matn – retsipient) dan iborat uchlik asosiy ob'ekt bo'lishi lozimligi ko'plab tadqiqotchilar tomonidan ta'kidlanmoqda⁵.

Taniqli rus tilshunosi Yu.N.Karaulov til va shaxs masalalariga bag'ishlangan maqolalar to'plamiga yozgan so'zboshisida «Har qanday matn ortida lisoniy tizimlarni egallagan muayyan shaxs turadi» degan fikrni alohida ta'kidlagan edi⁶. Darhaqiqat, til va shaxs munosabatlarini yoritib berishda eng muhim manba bu matndir. Zero, u tilning barcha sathlarini mujassam etuvchi nutqiy tuzilma bo'lishi bilan birga, so'zlovchi (yozuvchi) shaxsining lisoniy salohiyatini o'zida to'liq namoyon etuvchi hodisa hamdir. Matnning tashqi va ichki tuzilishini muayyan millatga mansub til sohiblarining lisoniy qobiliyatini aks ettiruvchi o'ziga xos ko'zguga o'xshatish mumkin.

Matn tadqiqiga oid ishlarda uni yaratuvchi shaxsga e'tiborning qaratilishi dastlab psixolingvistika va pragmalingvistika yo'nalishidagi tadqiqotlarda ko'zga

⁵ Каранг: Кубрякова Е.С. О тексте и критериях его определения // Текст. Структура и семантика. – М., 2001. – Т.1. – С.72-81.

⁶ Каранг: Караулов Ю.Н. Русская языковая личность и задача её изучения // Язык и личность. – М.: Наука, 1989. – С. 3-8.

tashlangan bo'lsa, bugungi kunda jadal rivojlanayotgan kognitiv tilshunoslik, funktsionalizm, etnolingvistika, lingvokulturologiya, diskursiv tahlil kabi sohalar ushbu masalani tilshunoslikning markaziy muammolaridan biriga aylantirdi.

Prof. SH.Safarov antropotsentrik paradigmaning yuzaga kelishini quyidagicha izohlaydi: “Sistem-struktur paradigma o'zidan oldin yuzaga kelgan qiyosiy-tarixiy paradigmaning “atomistik”, ya'ni til hodisalarini alohida-alohida, bir-biridan ajratgan holda tahlil qilinishi natijasida yuzaga kelgan nuqsonlarini bartaraf qilish yo'lini tutdi. Sistem-struktur yo'nalishning asosiy samarasi tilning tizimli hodisa ekanligini isbotlashdan iboratdir. Ammo bu ikki paradigmaning umumiy kamchiligi borligi ham ma'lum bo'ldi: bu yo'nalishlarda til o'z egasi – insondan ajralib qoldi. Ushbu nuqsonni yo'qotish yo'lidagi urinishlar pragmatik va kognitiv tilshunoslik paradigmalarining yaratilishiga sabab bo'ldi”⁷.

Prof. N.Mahmudov esa tilshunoslikda antropotsentrik paradigmaning shakllanishi haqida mulohaza yuritar ekan, quyidagi fikrlarini bayon qiladi: “Tilning ana shunday ob'ektiv xususiyatiga muvofiq ravishda antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi. Mutaxassislar taniqli rus adibi S.Dovlatovning “inson shaxsiyatining 90 foizini til tashkil qiladi” degan hikmatomuz gapini tilga oladilar. V.A.Maslova ta'kidlaganiday, inson aqlini insonning o'zidan, tildan va nutq yaratish hamda nutqni idrok qilish qobiliyatidan tashqarida tasavvur etib bo'lmaydi”⁸.

Bugungi kunda lisoniy faoliyat bajaruvchisi bo'lgan shaxs omilini o'rganish yuqorida qayd etilgan tilshunoslik sohaları – psixolingvistika, lingvokulturologiya, kognitiv tilshunoslik, pragmalolingvistika kabi sohalarda chuqurlashib bormoqda. Ayni vaqtda, tilga antropotsentrik yondashuv ushbu sohalarning eng so'nggi yutuqlarini o'zida mujassam etib, mustaqil paradigma sifatidagi maqomini tobora mustahkamlab bormoqda.

⁷ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 35.

⁸ Махмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 6-7.

Tilshunoslikda e'tirof etilganidek, antropotsentrik paradigmada asosiy e'tibor nutqiy faoliyat bajaruvchisi, ya'ni nutq tuzuvchi va uni idrok etuvchi til sohibiga qaratiladi⁹. Aytish joizki, ilmiy paradigmaga "til sohibi" kategoriyasining kiritilishi tilshunoslikda shaxs, lisoniy ong, tafakkur, faoliyat, mentallik, madaniyat kabi tushunchalarning yanada faollashishini taqozo etadi¹⁰. Shaxs omilining tadqiqi tilshunoslik fanining psixologiya, falsafa, mantiq, madaniyatshunoslik kabi fanlar bilan bir nuqtada kesishishiga ham olib keladi.

"Til sohibi" tushunchasi hozirgi vaqtda, asosan, quyidagi ma'nolarda ishlatilmoqda: a) muayyan tilda nutqiy faoliyatni amalga oshiruvchi, ya'ni nutq tuzish va uni idrok etish qobiliyatiga ega bo'lgan shaxs; b) tildan muloqot vositasi sifatida foydalanuvchi shaxs, kommunikant; v) o'z millatining milliy-madaniy, ma'naviy qadriyatlarini aks ettiruvchi lug'at tarkibini egallagan, uni namoyon etuvchi shaxs; muayyan til vakili¹¹. Hozirgi tadqiqotlarda tilshunoslikning turli yo'nalishlari shaxs omili masalasiga o'z xususiyatidan kelib chiqib yondashmoqda.

Matn talqini va shaxs omili masalasi matn yaratilishi va uning mazmuniy pertsepsiyasi muammolari bilan uzviy bog'liqdir. Bu masalani tadqiq etishda matn yaratuvchi shaxsnigina emas, uni idrok etuvchi shaxs – tinglovchi yoki o'quvchi omilini ham o'rganish muhimdir. Rus tilshunosi R.I.Galperinning fikriga ko'ra esa, qog'ozga yozilib, hali o'qilmagan matn harakatsiz matndir¹². Xususan, yozma matn o'quvchi tomonidan o'qilmaguncha harakatga kelmaydi, unda ifodalangan mazmun va pragmatik maqsad, ohang orqali yuzaga kelgan kayfiyat retsipient tomonidan tushunilmaydi va his etilmaydi.

Matn va uni idrok etuvchi shaxs omilini o'rganish tadqiq ob'ektiga turli jihatlaridan, xususan, semantik, psixologik, pragmatik, kognitiv va lingvokulturologik nuqtai nazardan yondashishni taqozo etadi.

⁹ Қаранг: Воркачев С.Т. Лингвокультурология, языковая личность, концепт: становление антропоцентрической парадигмы в языкознании // Филологические науки. – Москва, 2001. – № 1. – С. 64.

¹⁰ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 5.

¹¹ Воркачев С.Т. Кўрсатилган мақола. – Б. 8-11.

¹² Гальперин Р.И. О понятии текст // Вопросы языкознания. – Москва, 1974. – №6. – С.22.

N.I.Jinkin ta’biri bilan aytganda: “Inson alohida gaplar vositasida emas, matn vositasida so’zlaydi”¹³. SHu sababli ham muayyan shaxs uslubi u yaratgan matnlar asosida tadqiq etilsagina, kutilgan natijalarga erishish mumkin. Biror yozuvchi yoki ijodkorning nutqiy uslubini uning so’z qo’llash yoki jumla tuzish mahorati nuqtai nazari bilan tadqiq qilish usuli bugungi kun talabiga javob bermaydi. SHu boisdan matn yaratilishi masalasini shaxs uslubi nuqtai nazaridan o’rganish matnning lingvistik jihatlariga teranroq nazar bilan qarashga olib keladi.

Ma’lumki, kognitologiya o’z mohiyatiga ko’ra semantika bilan uzviy bog’liqdir. A.V.Kravchenkoning fikriga ko’ra “... kognitiv tilshunoslik o’z oldiga til vositasida bilimlarni saqlash, ifodalash va uzatish mexanizmlarini tadqiq etishni asosiy vazifa qilib qo’yadi”¹⁴. Jahon tilshunosligida yaratilgan boy nazariy ma’lumotlarga suyangan holda muayyan ijodkor shaxs tilining lingvokognitiv xususiyatlarini o’rganish o’zbek tili sohiblarining “tafakkur grammatikasi”ni yoritib berishda ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Matn yaratilishida shaxsning kognitiv faoliyatini tadqiq etish o’zbek mentalitetiga xos fikrlash tarzini ham chuqurroq yoritishga xizmat qiladi. Zero, matnda kontseptuallashgan fikr ayrim hollarda etnik xarakterda ham bo’lishi mumkin¹⁵. Matn yaratilishi jarayonini tadqiq etish orqali N.I.Jinkin tomonidan qayd etilgan universal predmet kodlarining lisoniy shakl olish bosqichlarini tahlil etish mumkinki, bu bosqichlar, xususan, badiiy matn yaratuvchi shaxs faoliyatida o’ziga xos tarzda amal qiladi¹⁶. Binobarin, muayyan shaxs nutqining lingvokognitiv xususiyatlarini o’rganish o’zida ko’p hollarda implitsitlikni namoyon etuvchi badiiy nutq yaratilishi mexanizmiga oid ko’pgina qorong’i va sirli “hududlarni” yoritish imkonini ham beradi.

Antropotsentrizm va o’zbek tilshunosligi

¹³ Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 108.

¹⁴ Кравченко А.В. Знак, значение, знание. Очерк когнитивной философии языка. – Иркутск: ИГУ, 2001. – №1. – С.60.

¹⁵ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2008. – Б. 245.

¹⁶ Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982.-157с.

XXI asrning dastlabki yillaridan o'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma asosida bajarilgan tadqiqotlar yuzaga kela boshladi. Bu ishlar, asosan, sotsiolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvistik pragmatika, psixolingvistika yo'nalishlarida amalga oshirildi. Bu tadqiqotlar, garchi ularda aynan antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilmagan bo'lsa-da, o'zida ushbu paradigma tamoyillarini aks ettirgan dastlabki ishlar hisoblanadi. Jumladan, S.M.Mo'minovning "O'zbek muloqot xulqining ijtimoiy-lisoniy xususiyatlari" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbeklarning o'ziga xos muloqot xulqi ijtimoiy-lisoniy nuqtai nazardan tadqiq etilgan¹⁷.

Tadqiqotdan muloqot xulqining milliy xarakter bilan aloqador jihatlari haqida, shuningdek, uning inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan bog'liqligi xususidagi qarashlar ham o'rin olganki, buni til tizimiga antropotsentrik yondashuv sifatida baholash mumkin. Olim, jumladan, shunday yozadi: "MX (muloqot xulqi – D.X.) muammosini milliy xarakter, millat aholisining o'ziga xos urf-odatlar, qadriyat va an'analarini hisobga olmasdan turib mutlaqo o'rganish mumkin emas. Chunki MX millat xarakterining uzviy bir qismi bo'lib, ular bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir"¹⁸.

S.M.Mo'minov o'z tadqiqotida muloqotning psixolingvistik aspektini tahlil qilgan ekan, tilning insonga ta'siri uning vazifalaridan biri ekanligini ta'kidlaydi: "Muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog'liq hodisadir. Chunki har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog'liqdir. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta'sir etgan har qanday narsa tanaga ham ta'sir etadi. Bularning hammasi muloqotning psixofiziologik aspektini tashkil etadi"¹⁹.

Olim XX asrning 2-yarmidan ijtimoiy fanlarning o'zaro yaqinlashganligi natijasida sotsiolingvistika, etnolingvistika, psixolingvistika kabi tutash fanlar

¹⁷ Мўминов С.М. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари: Филол. фан. д-ри ... дис. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2000. – 47 б.

¹⁸ Мўминов С.М. Кўрсатилган автореферат. – Б. 36.

¹⁹ Мўминов С.М. Кўрсатилган автореферат. – Б. 19-20.

yuzaga kelganligini ta'kidlar ekan, "inson nutqini fanlarning mana shu kabi tutash nuqtasida tadqiq etish" fikrini ilgari suradi²⁰.

Prof. SH.Safarovning 2006 yilda nashr qilingan "Kognitiv tilshunoslik" nomli monografiyasi bu sohaga oid nazariy qarashlarning o'zbek tilshunosligiga kirib kelishida muhim qadam bo'ldi²¹. Muallif ta'kidlaganidek, risolaning maqsadi "o'zbek o'quvchilarini kognitiv tilshunoslikning asosiy muammolari, tadqiq metodlari bilan tanishtirish"²²dan iborat. Ushbu asarda kognitiv tilshunoslikning predmeti va vazifalari, kontseptning lisoniy voqelanishi jarayoni, stsenariy, skript, freym, geshtalt kabi kognitiv tuzilmalar, shuningdek, lisoniy-kognitiv faoliyatning milliy-madaniy xususiyatlari hamda lisoniy hodisalarning kognitiv tahlili haqida dunyo tilshunosliklarida mavjud bo'lgan nazariy qarashlar haqida bahs yuritiladi. Risola umumnazariy aspektda yozilgan bo'lib, kognitiv tilshunoslik yo'nalishida tadqiqot olib boruvchi mutaxassislar uchun katta amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kitobning muhim nazariy jihatlaridan biri shundaki, unda til va tafakkur munosabati milliy mentallik va milliy madaniyat tushunchalari bilan uzviylikda tahlil qilingan. SH.Safarov, jumladan, bu borada quyidagi fikrlarni bildiradi: "Tilning tafakkur bilan aloqasini hozircha hech kim inkor etgan emas (hatto bunga harakat ham qilingan emas). Biroq til va tafakkur aloqasini "teng huquqli hamkorlik" darajada ko'rmoq kerak. Aslida, tilga ham, tafakkurga ham ta'sir o'tkazadigan madaniyatdir"²³.

Prof. A.Mamatov tomonidan e'lon qilingan "Tilga kognitiv yondashuvning mohiyati nimada?" nomli maqolada ham kognitiv tilshunoslikning vazifasi va unga oid tushunchalarning lingvistik mohiyati haqida fikr yuritilgan²⁴. Maqolada N.Xomskiy, J.Lakoff, R.Langaker, R.Jekendof, CH.Fillmor, Ye.S.Kubryakova, Ye.D.Raxilina, V.N.Teliya, Z.D.Popova, N.Yu.SHvedova, N.F.Alefirenko kabi tilshunoslarning kognitiv tilshunoslikning asosi bo'lgan prototip, stsenariy, freym, kontseptuallashtirish, kategoriyalashtirish, kontseptosfera kabi terminlar borasidagi

²⁰ Мўминов С.М. Кўрсатилган автореферат. – Б. 10.

²¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшunoslik. – Жиззах: Сангзор, 2006. – 91 б.

²² Сафаров Ш. Кўрсатилган китоб. – Б. 6.

²³ Сафаров Ш. Кўрсатилган китоб. – Б. 70.

²⁴ Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? // Тилшunoslikнинг долзарб масалалари: Проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишланган ўтказилган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-219.

fikrlari tahlil etilgan. Ushbu maqola ham umumnazariy aspektda yozilgan bo'lib, kognitiv tilshunoslik "alifbosi"ga oid fikrlarni umumlashtirish maqsad qilib olingan²⁵.

Matnning kognitiv tahlili borasida S.O'.Boymirzaevaning doktorlik dissertatsiyasi muhim o'rin tutadi. Tadqiqotning 1-bobi 2-bo'limi "kognitiv tilshunoslikka xos tadqiq usullarini matn tahliliga tatbiq qilish masalasiga bag'ishlanadi"²⁶. Muallif matnni kognitiv-diskursiv jarayon sifatida baholab, lisoniy voqelanish negizida kognitiv tuzilmalar turishini ta'kidlaydi²⁷.

O'zbek tilshunosligida matn antropotsentrik paradigma asosida tahlil etilgan dastlabki ishlardan biri I.A.Azimovanning "O'zbek tilidagi gazeta matnlari mazmuniy pertsepsiyasining psixolingvistik tadqiqi" nomli dissertatsiyasi hisoblanadi²⁸. Tadqiqotda asosiy e'tibor "matnni tushunishga ta'sir etuvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarni psixolingvistik tajribalar asosida aniqlash, matnning mazmuniy pertsepsiyasidagi birliklarni aniqlash va ularning formal-semantik xususiyatlarini tahlil qilish"ga²⁹ qaratilgan. Olima yo'naltirilgan assotsiativ tajriba usuli yordamida gazeta matnlari pertsepsiyasi bo'yicha quyidagi darajalarni belgilaydi: assotsiativ daraja, leksik-morfologik daraja, kontekstual daraja, struktural daraja va matn darajasi³⁰. Tadqiqotchi bunda "stimul matndagi lisoniy omillar, matndagi so'zlarning aynan eslab qolinishi, eslab qolingan so'zlarning kontekstual ma'nolarining konkretlashishi, stimul matnga xos mazmuniy strukturaning shakllanishi va yaxlit matn proektsiyasining hosil bo'lishi"³¹ni matn idrokidagi asosiy jarayonlar sifatida belgilaydi. I.A.Azimovanning fikricha, so'z, so'z shakli, so'z birikmasi va sintagma matn mazmuniy pertsepsiyasidagi birliklar hisoblanadi³².

²⁵ Маматов А.Э. Ўша мақола. – Б. 213.

²⁶ Боймирзаева С.Ў. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри дисс. ... автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010. – Б. 10-11.

²⁷ Боймирзаева С.Ў. Кўрсатилган автореферат.

²⁸ Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи: Филол.фанлари номзоди дисс. ... автореф. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 24 б.

²⁹ Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 4.

³⁰ Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 20.

³¹ Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 11-12.

³² Азимова И.А. Кўрсатилган автореферат. – Б. 13.

Azimova Irodaning mazkur ishi o'zbek tilshunosligida gazeta matnlari pertsepsiyasi birinchi marta psixolingvistik tajribalar asosida tadqiq etilganligi bilan e'tiborga molikdir. Tadqiqot o'zbek tilshunosligida matnni psixolingvistik tahlil etishga doir navbatdagi ishlar uchun ham nazariy, ham amaliy jihatdan muayyan ahamiyat kasb etadi.

M.X.Hakimovning "O'zbek tilida matnning pragmatik talqini" mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasida o'zbek tilshunosligida lingvistik pragmatikaga oid nazariy masalalar birinchi marta monografik aspektda tadqiq etildi³³. Mazkur tadqiqotda lingvistik pragmatikaning tarixiy ildizlari, uning umumnazariy masalalari, ushbu yo'nalishning tilshunoslikning boshqa yo'nalishlari bilan munosabati haqida bahs yuritilgan, matn semantik tuzilishida qatnashuvchi pragmatik mazmun turlari o'zbek tilidagi matnlar misolida tadqiq etilgan³⁴. M.X.Hakimovning mazkur tadqiqoti hozirgi vaqtda antropotsentrizmning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvistik pragmatikaga doir tushuncha va terminlarning o'zbek tilshunosligidan o'rin olishida muhim ahamiyat kasb etdi. Tadqiqot, xususan, nutqiy akt nazariyasi hamda matnning pragmasemantik masalalarini yoritib berganligi bilan e'tiborga molikdir. Dissertatsiyada garchi *lingvokulturologiya* termini qo'llanmagan bo'lsa-da, lingvistik pragmatika nazariyasi tilning milliy o'ziga xosligini ko'rsatib berishda muhim rol o'ynashi alohida ta'kidlanadi: "Millatga bo'lgan hurmatning asl namunasi sifatida tilimizga davlat tili maqomining berilganligi o'zbek tili va unga xos milliy xususiyatlarni o'rganishga dunyo xalqlari intilishining qiziqishi pragmatika nazariyasiga, uning mohiyatiga bo'lgan ehtiyojni yanada orttirmoqda. Sababi lingvistik pragmatika nazariyasi, ya'ni nutqning amaliy qo'llanishi bilan bog'liq hodisalar talqini o'sha tilga xos milliy o'ziga xoslikni anglash uchun qulay imkoniyatlar yaratadi"³⁵.

O'zbek tilshunosligida pragmalingvistika yo'nalishining rivojida prof. SHahriyor Safarovning "Pragmalingvistika" nomli monografiyasi alohida o'rin

³³ Ҳакимов М.Х. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фан. д-ри ... дис. – Тошкент: ЎЗР ФА ТАИ, 2001. – 283 б.

³⁴ Ҳакимов М.Х. Кўрсатилган диссертация. – Б. 8.

³⁵ Ҳакимов М. Кўрсатилган диссертация. – Б. 256.

tutadi³⁶. Monografiyada SH.Safarovning til va nutq dixotomiyasi, lisoniy faoliyat, lisoniy qobiliyat, diskurs kabi tushuncha va terminlar haqidagi jahon tilshunosligida mavjud fikrlarga shaxsiy munosabati yaqqol sezilib turadi. Mazkur tadqiqotning nazariy ahamiyati prof. Abdulhamid Nurmonovning “Immanentlikdan kognitivlikka” nomli maqolasida chuqur asoslab berilgan³⁷. A.Nurmonovning ta’kidiga ko’ra “... monografiya yuqori saviyada yozilgani bilan ajralib turadi va o’zbek tilshunoslarini tilshunoslikning yangi yo’nalishi bo’lgan pragmalingsvistika muammolari bilan chuqur va atroflicha tanishtiradi. Asarda pragmalingsvistikaning nazariy masalalarini yoritishda muallif bir qator shaxsiy mulohazalarini o’rtaga tashlaydiki, bu mulohazalar, shubhasiz, umumiy tilshunoslik nazariyasini yangi qarashlar bilan boyitish uchun xizmat qiladi”³⁸.

Eng keyingi davrlarda o’zbek tilshunosligida bevosita antropotsentrik tilshunoslikka doir ishlar yuzaga keldi. Xususan, bugungi kunda uning muhim sohalaridan biri bo’lgan lingvokulturologiyaga bo’lgan qiziqish ortganligini kuzatish mumkin. Jumladan, “O’zbek tili va adabiyoti” jurnalida N.Mahmudov, E.Begmatov, A.Nurmonovlarning ushbu sohaga aloqador bo’lgan maqolalari e’lon qilindi³⁹.

Prof. N.Mahmudovning “O’xshatishlar – obrazli tafakkur mahsuli” nomli maqolasi o’zbek tilidagi turg’un o’xshatishlarning til va nutqqa munosabati tayin etilganligi, shuningdek, ularning “milliy obrazli tafakkur tarzini namoyon etadigan birliklar”⁴⁰ sifatida ta’riflanib, bu kabi obrazli birliklarning lingvokulturologik xususiyatlarini o’rganish muammosi qo’yilganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. N.Mahmudov bu boradagi fikrlarini “O’zbek tili o’xshatishlarining izohli lug’ati”ga yozgan so’zboshisida yanada chuqurlashtirdi⁴¹.

³⁶ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: “Ўзбекистон Миллий энциклопедияси”, 2008. – 285 б.

³⁷ Нурмонов А. Имманентликдан когнитивликка // Ўзбек тили ва адабиёти- Тошкент, 2009. – № 6. – Б. 104-107.

³⁸ Нурмонов А. Қўрсатилган мақола. – Б. 107.

³⁹ Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли тафаккур маҳсули // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2011. – № 3. – Б. 19-24; Бегматов Э. Антропонимлар – антропоцентрик тадқиқ объекти // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 3. – Б. 35-39; Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 10-19.

⁴⁰ Маҳмудов Н. Қўрсатилган мақола. – Б. 23.

⁴¹ Маҳмудов Н. Ўхшатишлар – образли миллий тафаккур маҳсули // Маҳмудов Н., Худойберганова Д. Ўзбек тили ўхшатишларининг изоҳли луғати. – Тошкент: Маънавият, 2013. – Б. 3-10.

Keyingi yillarda antropotsentrizmning umumnazariy masalalariga bag'ishlangan bir qator maqolalar ham e'lon qilindi. Prof. N.Mahmudovning "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalida "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." sarlavhasi bilan e'lon qilingan maqolasida o'zbek tilshunosligida ilk marta antropotsentrizm paradigmasi va unga aloqador muammolar haqida chuqur ilmiy asosga ega bo'lgan mulohazalar bayon etildi⁴². Maqola o'zbek tilshunosligida antropotsentrik paradigma borasidagi ilmiy tushunchalarning shakllanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Maqola muallifi "paradigma" terminining ilmiy talqinlariga munosabat bildirib, bir paradigmani boshqa paradigmaga qarshi qo'yish to'g'ri emasligini ta'kidlaydi⁴³. N.Mahmudovning fikricha, "antropotsentrizm tilshunoslar tomonidan faqat til tadqiqigagina nisbatlangan tushuncha yoki paradigma emas, antropotsentrizm bevosita tilning mohiyatiga daxldor hodisadir". ... antropotsentrik paradigmada inson asosiy o'ringa chiqariladi, til esa inson shaxsini tarkib toptiruvchi bosh unsur hisoblanadi"⁴⁴.

Prof. E.Begmatov 2013 yilda e'lon qilgan maqolasida o'z e'tiborini "antroponimik birliklarda antropotsentrik usul uchun material bera oladigan xususiyatlar"ni⁴⁵ aniqlashga qaratgan. Olimning ta'kidiga ko'ra, "antroponimlarning inson xohishi va faoliyati bilan bog'liq ekanligi, ularda insonning ehtiyoji va ijodi namoyon bo'lishi, inson nomida qadimiy davr kishilarining madaniy-ma'naviy va etnik qarashlari o'z ifodasini topganligi, umuman, ismlar xalqning ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy-maishiy turmushi bilan bog'liq ekanligi" ularni antropotsentrik paradigma asosida o'rganish uchun asos bo'la oladi⁴⁶.

Prof. A.Nurmonov esa o'z maqolasida lingvistik nisbiylik va lingvistik determinizm nazariyalari haqidagi mulohazalarini bayon etar ekan, til va

⁴² Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб ... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 5-16.

⁴³ Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 3-5.

⁴⁴ Маҳмудов Н. Кўрсатилган мақола. – Б. 6.

⁴⁵ Бегматов Э. Кўрсатилган мақола.

⁴⁶ Бегматов Э. Кўрсатилган мақола. – Б. 37.

madaniyat aloqasiga oid munosabatini ham bildirib o'tadi. Olim lingvistik nisbiylik nazariyasi asoschilari B.Uorf va E.Sepirning til va tafakkurning madaniyat shakli ekanligi⁴⁷ haqidagi fikrlarini e'tirof etish bilan birga tillar o'rtasida umumiy tomonlar ham bor ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: "Har bir tilda xalqning ruhi, milliy madaniyati, o'ziga xos dunyoni ko'rish, idrok etish tarzi namoyon bo'lish bilan birga, tillar o'rtasida obraz yaratishdagi shunday umumiy jihatlar borki, bular umuminsoniy tafakkur mahsuli sifatida yuzaga chiqadi"⁴⁸.

Prof. A.Nurmonovning fikriga ko'ra, til va madaniyat o'rtasida aloqani tadqiq etgan olimlar 3 ta guruhga bo'linadi: "Birinchi yo'nalish V.Gumboldt, E.Sepir va B.Uorf nomlari bilan bog'liq bo'lib, ular til va tafakkur, til va madaniyat munosabatida tilni belgilovchi kuch deb hisoblaydilar"⁴⁹. Olim bu qarashni biryoqlama deb hisoblaydi. Jumladan, u shunday deb yozadi: "...nominatsiyaga asos bo'lgan obraz markazini idrok qilishda turli tipdagi tillarda o'ziga xos umumiy jihatlardan ham ko'z yumib bo'lmaydi. Bu ham lingvistik nisbiylik nazariyasining olamni idrok qilishda tilning roli ustuvor ekanligi haqidagi xulosasi biryoqlama ekanligidan dalolat beradi"⁵⁰.

A.Nurmonovning fikricha, til va madaniyat munosabati haqidagi ikkinchi nuqtai nazarda bu ikki hodisa o'rtasidagi aloqa tamoman inkor etiladi. Olimning qarashiga ko'ra, ushbu masala haqidagi uchinchi nuqtai nazarda yuqoridagi ikki qarama-qarshi fikrlar o'zaro sintezlanadi⁵¹. Jumladan: "...til va madaniyat o'zaro bog'liq va ayni paytda farqli hodisalardir. Til va madaniyat munosabatida tilning roli katta. Har bir xalqning o'ziga xos etnomadaniyati uning tili orqali ifodalanadi. Lekin ob'ektiv borliqda ana shu etnomadaniyat mavjudligi uchun u tilda o'z ifodasini topadi. Demak, til va madaniyat munosabatida ham *ob'ektiv borliq – ong – til* munosabati amal qiladi"⁵².

⁴⁷ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 12.

⁴⁸ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 18.

⁴⁹ Нурмонов А. Лингвистик нисбийлик ва лингвистик детерминизм назариялари ҳақида мулоҳазалар // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2013. – № 5. – Б. 10-19.

⁵⁰ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 15.

⁵¹ Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 15.

⁵² Нурмонов А. Кўрсатилган мақола. – Б. 18.

Tilshunos olim A.Rahimovning tilni paradigmalar asosida o'rganishga bag'ishlangan maqolasida ham antropotsentrik paradigmaga munosabat bildirilgan⁵³. Olimning fikriga ko'ra, "Tilshunoslik fani tarixidagi uchinchi makroparadigma **antropotsentrik paradigma (kommunikativ yoki nominativ-pragmatik paradigma)** deb hisoblanadi. Ushbu paradigma tilni quruq struktura sifatida emas, balki jonli muloqot va kommunikatsiyaga asoslangan ochiq sistema sifatida o'rganuvchi, boshqa sistemalar – jamiyat, inson, madaniyat, ruhiyat kabilar bilan uzviy aloqadorlikda tahlil etuvchi, insonni til ichida yoki tilni inson ichida tahlil etishga yo'naltirilgan qarashlar, g'oyalar va ta'limotlar majmuidir",⁵⁴.

A.Rahimov til va ijtimoiy hayotning turli sohalari o'rtasidagi aloqani yoritishda inson "oltin ko'pri" vazifasini o'taydi"⁵⁵, deb hisoblaydi. Tadqiqotchining fikricha, kognitiv, sotsiolingvistik, etnolingvistik, psixolingvistik, neyrolingvistik, pragmatik va lingvokulturologik paradigmalar antropotsentrik paradigma tarkibiga kiruvchi miniparadigmalar hisoblanadi⁵⁶.

⁵³ Раҳимов А. Тилни парадигмалар асосида ўрганиш муаммолари // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 2. – Б. 20-25.

⁵⁴ Раҳимов А. Қўрсатилган мақола. – Б. 24.

⁵⁵ Раҳимов А. Ўша ерда.

⁵⁶ Раҳимов А. Ўша ерда.

2 – mavzu. Psixolingvistikaning shakllanishi va rivojlanishi

Bugungi kunda ko'plab tadqiqotchilar XXI asrni fanlar integratsiyasi asri deb hisoblamoqdalar. Muayyan ob'ekt mohiyatini yoritishda fanlararo hamkorlik o'z natijalarini bermoqda. Bu kabi yondashuvdan murakkab mavjudot bo'lgan shaxs fenomenining nutqiy faoliyatini tadqiq etishda ham foydalanish eng to'g'ri yo'ldir. Zero, inson nutqi uning o'zi kabi murakkab va ko'p qirrali hodisa hisoblanadi. Bu borada tilshunoslik sohalarining hamkorligi o'z samaralarini berishi shubhasizdir.

Aytish lozimki, XXI asrning dastlabki yillarida o'zbek tilshunosligida matn lingvistikasi yo'nalishida jiddiy tadqiqotlar amalga oshirildi: matn lingvopoetikasi, mazmuniy pertseptsiyasi, uning pragmatik, derivatsion va psixolingvistik xususiyatlari, matn modalligi va temporalligi haqida monografik aspektdagi ishlar yuzaga keldi⁵⁷.

Tilshunos olim N.A.Arutyunova ta'biri bilan aytganda, "... bir maqsadga yo'naltirilgan ijtimoiy faoliyat turi, kishilarning o'zaro munosabatlarida va ular ongingning mexanizmlari (kognitiv jarayonlar)da qatnashuvchi nutq; voqelik bilan munosabatda olingan matn"⁵⁸ muammosini hamda lisoniy tafakkur egasi bo'lgan shaxs faoliyatini o'zaro aloqadorlikda tadqiq etish o'zbek tilshunosligida antropotsentrik tahlil tamoyillarini belgilashda muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, matnni uning yuzaga kelishi, idrok etilishi va tushunilishi nuqtai nazaridan o'rganish matn haqidagi nazariy qarashlarni yanada chuqurlashtiradi. Diskursiv faoliyat egasi bo'lgan shaxs intellekti va fikrlash tarzining matn shakliga kirish jarayoni mexanizmlarini tadqiq etish esa tafakkur modellarining o'zbek tilidagi in'ikosiga xos xususiyatlarni aniqlashga imkoniyat yaratadi. Fikrimizcha,

⁵⁷ Ҳакимов М. Ўзбек тилида матннинг прагматик талқини: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2004. – 23 б.; Азимова И.А. Ўзбек тилидаги газета матнлари мазмуний перцепциясининг психоллингвистик тадқиқи. – Тошкент: ЎзМУ, 2008. – 24 б.; Юлдашев М.М. Бадиий матннинг лингвопоэтик тадқиқи: Филол. фанлари д-ри... дисс. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2009. – 48 б.; Турниёзова Ш. Ҳозирги ўзбек тилида матн шаклланишининг деривацион хусусиятлари: Филол. фанлари номзоди ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010. – 24 б.; Боймирзаева С. Ўзбек тилида матннинг коммуникатив-прагматик мазмунини шакллантирувчи категориялар: Филол. фанлари д-ри ... дисс. автореф. – Тошкент: ЎзР ФА ТАИ, 2010. – 45 б.

⁵⁸ Лингвистический энциклопедический словарь. – М.: Сов.энциклопедия, 1990. – С. 136-137.

bunda matnning nutq uslublariga ko'ra turlaridan biri bo'lgan badiiy matn tahlili o'zbek tilshunosligi uchun boy materiallar bera oladi.

Ko'plab tadqiqotchilarning e'tirof etishicha, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya antropotsentrik paradigmaning yetakchi yo'nalishlari hisoblanadi⁵⁹. Biz ham bu fikrni e'tirof etgan holda psixolingvistika sohasini ham shu qatorga kiritish lozim, degan fikrni ilgari surish tarafdorimiz. Zero, kognitiv tilshunoslik va lingvokulturologiya juda ko'p nuqtalarda psixolingvistika bilan kesishadi. Yana shu narsani ta'kidlash lozimki, tadqiq ob'ektimiz bo'lgan badiiy matn bevosita psixolingvistik omillarga ham daxldor hisoblanadi. "Psixolingvistika asoslari" kitobining mualliflari I.N.Gorelov, K.F.Sedovlarning ta'kidiga ko'ra, psixolingvistika tilshunoslikdagi antropotsentrik yo'nalishning yadrosini tashkil etadi⁶⁰. SHu boisdan mazkur tadqiqotda o'zbek tilidagi matnlarni uch jihatiga ko'ra, ya'ni kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari asosida tadqiq etish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Badiiy uslubda yaratilgan o'zbek tilidagi nasriy va she'riy matnlar tadqiqot ob'ekti sifatida tanlangan. O'zbek tilidagi matnlarning kognitiv-semantik, psixolingvistik va lingvokulturologik xususiyatlari tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, bir dissertatsiya doirasida o'zbek tilidagi matnlarning shaxs va u mansub bo'lgan etnos bilan aloqador barcha jihatlarini batafsil tadqiq etishning imkoni yo'q, albatta. O'ylaymizki, matnning antropotsentrik tahlili mazkur tadqiqot bilangina cheklanib qolmaydi. Bu borada o'zbek tilshunosligida yana ko'plab tadqiqotlar yaratilishi shubhasizdir.

Bevosita ushbu paragraf mazmuni, ya'ni matnni kognitiv-semantik tadqiq etish muammolari xususida to'xtaladigan bo'lsak, aytish joizki, o'tgan asrning so'nggi choragida o'zining ilk qadamlarini qo'ygan kognitiv tilshunoslik XXI asr boshidayoq lingvistikaning peshqadam sohalaridan biriga aylanib ulgurdi. Hozirgi vaqtda ushbu sohaning bir necha yo'nalishlari mavjud.

⁵⁹ Қаранг: Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўлларини излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 3-16.

⁶⁰ Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психолингвистики: Учебное пособие. – М.: Лабиринт, 2001. – С. 4.

Kognitiv tilshunoslik tilni umumiy kognitiv mexanizm sifatida o'rganuvchi sohadir. V.Z.Demyankov fikriga ko'ra, unda til tizimining axborotni qayta ishlashdagi roli nutq yaratilishi va idrok etilishi nuqtai nazaridan o'rganiladi. Bunda nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi sub'ektlar – so'zlovchi va tinglovchiga axborotni qayta ishlovchi tizim sifatida qaraladi⁶¹.

Kognitiv tilshunoslik kognitiv faoliyat tushunchasi bilan uzviy bog'liqdir. Kognitiv faoliyat insonning biror narsa yoki voqelikni idrok etishini amalga oshiruvchi tafakkur jarayonidir⁶².

Kognitsiya tushunchasi ham kognitiv tilshunoslikda markaziy o'rinda turuvchi tushuncha bo'lib, u ilmiy adabiyotlarda axborotni idrok etish, kodlashtirish va yaratish kabi jarayonlar tizimi sifatida izohlanadi⁶³.

Kognitiv tilshunoslikda eng faol qo'llanuvchi va turli ta'riflarga ega bo'lgan termin *kontsept* hisoblanadi. Uning kognitiv tilshunoslik, lingvokulturologiya, shuningdek, adabiyotshunoslik fanlaridagi izohi o'zaro farqlanadi⁶⁴. Mazkur termin tilshunoslikda o'tgan asrning 80-yillarigacha *tushuncha* so'ziga sinonim sifatida ishlatilgan bo'lsa⁶⁵, uning hozirgi vaqtdagi izohi *tushuncha* terminiga nisbatan kengroq ma'no kasb etganini ko'rish mumkin. Jumladan, N.Yu.SHvedova kontsept bu – tushuncha ekanligi, bu tushuncha ortida esa ijtimoiy yoki sub'ektiv tarzda anglanuvchi, inson hayotining muhim moddiy, aqliy, ruhiy tomonini aks ettiruvchi, o'z tarixiy ildizlariga ega bo'lgan, xalqning umumiy tajribasini aks ettiradigan mazmun turishini qayd etadi⁶⁶.

Prof. N.Mahmudov o'z maqolalaridan birida *kontsept* termini eng ko'p definitsiyaga ega bo'lgan termin ekanligini ta'kidlab, shunday yozadi: “Lingvokulturologik tadqiqotlarda aynan kontseptning ifodalanishi muammolariga

⁶¹ Демьянков В.З. Процудирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов / Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. /Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. –С. 129-134.

⁶² Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 47.

⁶³ Кўрсатилган луғат. – Б.51.

⁶⁴ Демьянков В.З. Понятие и концепт в художественном литературе и в научном языке // Вопросы филологии. – Москва, 2001. – №1. – С.35-47.

⁶⁵ Демьянков В.З. Кўрсатилган мақола.

⁶⁶ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

juda katta e'tibor qaratilmoqda, internet materiallari bilan tanishganda, masalan, Rossiyadagi tilshunosliklarda bu yo'nalish nihoyatda keng tarqalganini ko'rish mumkin, bu boradagi ishlarni sanab, sanog'iga yetish ham mushkul. Hatto so'nggi yillarda yoqlangan nomzodlik dissertatsiyalarining juda katta qismi aynan u yoki bu tilda kontseptning lingvokulturologik tadqiqiga bag'ishlangan"⁶⁷.

Rus tilshunosi L.V.Adonina *kontsept* terminiga bag'ishlangan maqolasida bu terminning taniqli tilshunoslar tomonidan qayd etilgan 12 ta ta'rifini keltiradi. SHuningdek, uning ma'lumotiga ko'ra, *kontsept* termini o'n nuqtai nazardan tasnif qilingan. Masalan, kontsept standartlashishiga ko'ra universal, etnik, guruhga oid va shaxsiy kontseptlarga; qo'llanishiga ko'ra ilmiy, badiiy, maishiy kontseptlarga; ifodalanishiga ko'ra leksik-frazeologik, grammatik, sintaktik va matniy kontseptlarga bo'linadi va h.k.⁶⁸

Biz o'z tadqiqotimizda kontseptga Yu.N.SHvedova tomonidan berilgan ta'rifni asos sifatida tanlaganmiz⁶⁹.

Kontsept termini borasidagi fikrlar o'zbek tilshunoslari N.Mahmudov, SH.Safarov hamda A.E.Mamatov tomonidan batafsil izohlangan⁷⁰. SHu boisdan biz kontsept haqidagi o'z qarashlarimiz bilan cheklanishni ma'qul hisoblaymiz. Fikrimizcha, kontsept, darhaqiqat, mental tuzilma. Lekin u ko'p qirrali va ko'p qatlamli tuzilmadir. SHuningdek, kontsept bir vaqtning o'zida psixologik, kognitiv-semantik va lingvokulturologik jihatlarni namoyon etadi. Zero, kontseptning kognitiv, psixolingvistik va lingvokulturologik tadqiqotlar ob'ekti sifatida tavsiflanayotgani ham shundan dalolat beradi. SHuningdek, biz kontseptning sub'ektiv, ijtimoiy, lingvomadaniy, badiiy kontseptlar sifatida tiplarga ajratilganligini yagona mohiyatga turli jihatlardan yondashuv sifatida

⁶⁷ Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб... // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 2012. – № 5. – Б. 9.

⁶⁸ http://rtsu.slavist.ru/index.php?option=com_content&view=full&id=149&Itemid=80

⁶⁹ Шведова Н.Ю. Русский язык. Избранные работы. – М.: Языки славянской культуры, 2005. – С. 603.

⁷⁰ Қаранг: Маҳмудов Н. Тилнинг мукаммал тадқиқи йўллари излаб // Ўзбек тили ва адабиёти. –Тошкент, 29012. – № 5. Б. 3-16; Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.; Маматов А.Э. Тилга когнитив ёндашувнинг моҳияти нимада? / Ўзбек тилшунослигининг долзарб муаммолари (проф. А.Нурмонов таваллудининг 70 йиллигига бағишлаб ўтказилаётган илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2012. – Б. 212-220.

baholaymiz. Zotan, til tizimining o'zi yuqoridagi sifatlarni o'zida jamuljam etgan nihoyatda serqirra hodisalardan biri hisoblanadi.

Kognitiv tilshunoslikda lisoniy kontseptuallashtirish muhim ahamiyatga ega. Lisoniy kontseptuallashtirish ob'ektiv voqelik yoki uning biror qismini til vositasida ifodalashdir. U "...inson ongida to'plangan ma'nolarning verballashtirilgan shakli va dunyo haqidagi bilimlarining muayyan til vositasida tizimlashtirilishi bo'lib, qisman universal, qisman milliy xarakterga ega bo'ladi"⁷¹.

Kognitiv faoliyatda kognitiv metaforalarning ahamiyati beqiyosdir. Kognitiv tilshunoslik asoschilaridan biri J.Lakoff o'z tadqiqotlarida metafora faqat til hodisasi bo'libgina qolmasdan, insonning bilish faoliyatida muhim o'rin tutuvchi vosita ekanligini chuqur asoslab bergan. Kognitologiya fani nuqtai nazaridan kognitiv metafora insonning o'z bilimlarini namoyon qilishi va kontseptuallashtirishi usullaridan biri hisoblanib, uning mohiyati bir ob'ektni boshqa bir ob'ekt vositasida tushunish va tushuntirishdan iboratdir⁷².

Dunyo tilshunosligida metaforalarga oid ko'plab tadqiqotlar yaratilganiga qaramay⁷³, ushbu hodisa tilshunoslarni tobora o'ziga jalb etmoqda. Xususan, lingvokulturologiya hamda kognitiv tilshunoslik sohalarining shakllanishi metaforalarni yanada chuqurroq o'rganish, bu hodisani tadqiq etishda metaforik mazmunli matnlarni ham e'tiborga olishni taqozo qilmoqda. (Metaforalarning matn yaratilishidagi o'rni xususida ishimizning II bobida batafsil to'xtalamiz).

SHaxs omilini asosiy omillardan biri sifatida talqin etuvchi qarashlar ichida matn yaratilishining kognitiv talqini diqqatga sazovordir. Kognitiv talqin matn yaratilishiga "muallif – matn – matndan tashqaridagi voqelik" tamoyili asosida yondashib, unga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazar bilan qarash fikrini ilgari suradi⁷⁴. Jumladan: so'zlovchi maqsadining ifodasi bo'lgan matn, nutq

⁷¹ Рыбникова В.А. Языковая концептуализация социума (на материале английских дидактических текстов): Автореф. дис. ... канд. филол. наук. – Краснодар: Кубанский гос. ун-т, 2011. – 20 с.

⁷² Лакофф Дж., Джонсон М. Метафоры, которыми мы живем (Перевод Н.В. Перцова) // Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С 387-415.

⁷³ Каранг: Теория метафоры. – М.: Прогресс, 1990. – С. 512.

⁷⁴ Комарова Л.И. Современные подходы к изучению художественного текста // Аналитика культурологии. Электронное научное издание. ISSM, 1990. – 4045.

yaratilishi mahsuli bo'lgan matn, tushunish ob'ekti bo'lgan matn, tushunish mahsuli bo'lgan matn⁷⁵.

Matn yaratilishining kognitiv talqiniga binoan, matn mental tuzilmaning tilga transformatsiyasidir. Bundan ko'rinadiki, ushbu talqinga ko'ra, botiniy nutqdagi bo'lajak matnga ketma-ket joylashuvchi propositsiyalar yig'indisi sifatida emas, balki butundan qismlarga qarab harakatlanuvchi yaxlit shakl sifatida qaraladi. Ma'lumki, tilshunoslikda matnning tashqi (leksik-grammatik) va ichki (semantik) tuzilishiga ega ekanligi e'tirof etiladi⁷⁶. Matnning ichki tuzilishi o'zida semantik kontsentrat, yadroviy mazmunni namoyon etadi. Kognitiv tilshunosning vazifasi ana shu mazmunga kognitiv asos bo'lgan mental tuzilmalarni aniqlashdan iboratdir.

Kognitiv tilshunoslik namoyandalaridan biri V.Z.Demyankov ma'lumotiga ko'ra, tanlangan kommunikativ strategiyadan kelib chiqib, bir axborot turli sharoitlarda har xil tarzda ifodalanishi mumkin. Inson xotirasidagi tartibga solingan axborot bilan uning verbal shakli orasida katta farq ham bo'lishi mumkin. Matn yaratilishi modullariga axborot generatori va artikulyatorlari kiradi. Nutq, xususan, matn yaratilishi nafaqat semantik va grammatik qonuniyatlarga, balki axborotni bayon qilishning o'ziga xos qoidalariga ham bo'ysunadi. Voqea-hodisalarni bayon qilish sxemalari turlicha bo'lib, matn bu voqea-hodisalarning o'zaro aloqadorligiga muvofiq ravishda yuzaga keladi⁷⁷.

Nutq yaratilishi jarayonida so'zlovchi o'z nutqini tinglovchining reaksiyasiga qarab o'zgartirib boradi. Ta'kidlash lozimki, nutqni rejalashtirish hamda uning voqelanishi deyarli bir vaqtning o'zida amalga oshiriladi. Inson har doim ham o'z nutqining qanday shaklda ifodalanishini oldindan bilavermaydi, chunki bir jumla yoki so'z boshqa jumla yoki so'zni aytishni taqozo qiladi. Kognitivistlar fikriga ko'ra, bu jarayon grammatik monitor qurilma (monitoring)

⁷⁵ Чувакин А.А. Теория текста: объект и предмет исследования // Критика и семиотика. Вып. 7. – М., 2004. – С.88-90.

⁷⁶ Қаранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 45.

⁷⁷ Қаранг: Демьянков В.З. Продуктивное, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демьянков В.З., Панкрац Ю.Т., Лузина Л.Г. / Под общ. ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 129-134.

nazorati ostida kechadi. Matn yaratilishi vaqtida shaxs tayyor lisoniy birliklar bilan bir qatorda nominatsiya strategiyalaridan ham foydalanadi. Odatda, matn yaratilishi jarayonida ikkita bosqich belgilanadi: matn tuzishni rejalashtirish (kontseptual mazmunni tartibga solish); matn generatsiyasi (tabiiy tilga transformatsiya qilish)⁷⁸.

Hozirgi vaqtda kognitiv tilshunoslikda keng tarqalgan metodlardan biri freym tahlili hisoblanadi. Lingvokognitologiyaga ko'ra, har qanday matn ma'lum bir freym ifodasidir. Freym nazariyasini yaratgan olimlardan biri M.Minskiy unga shunday ta'rif beradi: "...freym – stereotip vaziyatlarni namoyon qilish usullaridan biri hisoblanib, har qanday freymda ko'p qirrali axborot o'zaro bog'langan bo'ladi"⁷⁹. Binobarin, freym u yoki bu tipik vaziyatning keng hajmli prototipi bo'lib, matn yaratilishi jarayonida kognitiv kontekst vazifasini bajaradi. Bu o'rinda shuni ham aytish lozimki, matn yaratilishi tadqiqida kognitiv tuzilmalardan biri bo'lgan geshtalt ham muhim o'rin tutadi. Hozirgi tilshunoslikda mavjud bo'lgan semantik geshtaltlar nazariyasi tilning lug'aviy sathini o'rganishga tatbiq etilgan⁸⁰. Geshtalt hodisasini matn bilan bog'lab o'rganuvchi tadqiqotlar soni esa juda oz. Vaholanki, har qanday matn yaratilishi "butundan – bo'lakka" jarayonini aks ettiradi. Prof. SH.Safarov fikriga ko'ra, geshtalt va matn yaratilishini uzviylikda tadqiq etish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi⁸¹.

Psixolingvistik nuqtai nazardan matn yaratish va uning mazmuniy pertsepsiyasi individning nutqiy tafakkuri mahsuli, ob'ektiv borliqni til tizimi vositasida aks ettirish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi. Bunda matnning shakli va mazmuni muayyan kommunikativ vaziyat qatnashchisi – konkret shaxsning psixologik xususiyatlari bilan uzviylikda tadqiq etiladi⁸².

Matn idrokini dekodlash sifatida talqin etish o'tgan asrning so'nggi choragida e'tiborni jalb qilgan qarashlardan biri bo'ldi. Mashhur psixolingvist

⁷⁸ Ўша ерда.

⁷⁹ Минский М. Остроумие и логика когнитивного бессознательного // Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XIII: Когнитивные аспекты языка. – М.: Энергия, 1988. – С. 289.

⁸⁰ Қаранг: Караулов Ю.Н. Русский язык и языковая личность. – М.: Наука, 1987. – 263 с.

⁸¹ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006 – 91б.

⁸² Қаранг: Зорькина О.С. О психологическом подходе к изучению текста // Язык и культура. – Новосибирск, 2003. – С. 205-210.

L.S.Vigotskiy “Мышление и речь” (“Tafakkur va nutq”) kitobida (Moskva, 1982) verbal tafakkur tabiatini keng miqyosda yoritib berdi. Dekodlash nazariyasini rivojlantirishda “Jinkin maktabi” deb nomlangan yo’nalish vakillari katta rol o’ynadilar.

N.I.Jinkin o’z tadqiqotlarida UPK (universal-predmet kodi) haqidagi nazariyani ilgari surdi. Bu qarashlarga ko’ra, inson nutqi dastlab uning ongida amorf – shaklsiz holatda bo’ladi. Bu verbal shakl emas, u tasavvur holatida bo’ladi. Bunday predmet kodi barcha millat vakillari uchun universal xarakterda bo’lib, uni barcha tillarga tarjima qilish mumkin⁸³.

N.I.Jinkinining mazkur qarashini I.N.Gorelov o’z tadqiqotlarida rivojlantirib, UPK axborotni uzatish kommunikativ usullarining neyrofiziologik ko’rinishi ekanligini qayd etdi. I.N.Gorelovning fikriga ko’ra, aynan mana shu jarayon tafakkurning tilga aylanish bosqichida vositachilik vazifasini bajaradi⁸⁴.

XX asrning so’nggi choragidan jahon tilshunosligida lisoniy faoliyat mahsuli bo’lgan har qanday nutqiy tuzilmani uni yaratuvchi va idrok etuvchi shaxs – muallif va retsipient muloqoti nuqtai nazaridan tadqiq etishga katta e’tibor qaratila boshlandi. Nutqiy tuzilmani muloqot jarayoni sifatida o’rganish *diskurs* tushunchasining yuzaga kelishiga sabab bo’ldi. O’tgan asrning 50-yillarida amerikalik tilshunos Zellig Xarris tomonidan birinchi marta qo’llangan *diskurs* so’zi bugungi kunda tilshunoslikning markaziy masalalaridan birini ifodalovchi hodisani anglatmoqda.

Diskurs tushunchasi hozirgi davrda o’ta jadallik bilan sodir bo’layotgan fanlar integratsiyasini o’zida yaqqol namoyon etadi. U adabiyotshunoslik, tilshunoslik, falsafa, tarix, sotsiologiya, antropologiya, pedagogika, siyosatshunoslik kabi fan sohalarining har birida maxsus defnitsiyaga ega bo’lishi bilan birga, bugungi kunda yangi yo’nalishlardan biri hisoblangan diskursiv tahlilning ham markaziy muammolaridan biriga aylandi.

⁸³ Каранг: Жинкин Н.И. Речь как проводник информации. – М.: Наука, 1982. – С. 157.

⁸⁴ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 10-11.

Ma'lumki, *diskurs* (fr. Diskours – nutq, harakat) termini dunyo tilshunosligida bir necha ma'noda talqin qilinadi. Bu termin dastlab *bog'lanma matn* tushunchasini ifodalagan bo'lsa, keyinchalik *suhbat*, *dialog* tushunchalariga nisbatan ham qo'llanila boshlandi⁸⁵. Antropotsentrik paradigmaning rivojlanishi natijasida *diskurs* termini yanada kengroq ma'noga ega bo'lmoqda. Mazkur termin ostida hozirgi kunda o'zida nolisoniy, xususan, psixologik, ijtimoiy va shaxs ongi bilan bog'liq omillarni mujassam etgan nutq tuzilmasini tushunish tendentsiyasi kuchayib bormoqda⁸⁶. SHu bilan birga, *diskurs* so'zi ifodalagan hodisani sof tilshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etib bo'lmasligi, bunda shaxs omili bilan bog'liq bo'lgan bir necha fanlarning hamkorligi taqozo etilishi ham ayni kunda e'tirof etilgan haqiqatdir⁸⁷.

Diskurs tushunchasining bu tarzda talqin etilishiga, shubhasiz, antropotsentrik paradigmaning shakllanishi va rivojlanishi katta ta'sir ko'rsatdi. Diskursiv tahlil, obrazli qilib aytganda, bir necha lingvistik tahlil yo'nalishlarining kesishgan chorrahasidir. CHunki diskursiv faoliyat, ya'ni ongli tarzda nutq yaratish va uni idrok etish⁸⁸ jarayoni shaxs omilini o'rganishni taqozo etadi. Zero, har qanday nutq ko'rinishi bu – o'zida muayyan ijtimoiy-madaniy muhitga mansub, psixologik va kognitiv jihatdan o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan shaxs faoliyatining natijasidir. Ayon bo'ladiki, diskursiv tahlil nutqni shaxs faoliyati sifatida o'rganishni taqozo etadi. Bu jarayon esa lisoniy faoliyatga bir vaqtning o'zida bir necha nuqtai nazardan yondashish kerakligini bildiradi. Ko'rinadiki, nutqiy tuzilmani bu tarzda o'rganish tadqiqotchiga juda katta imkoniyatlar eshigini ochib berish bilan birga, uning *diskursiv tahlil* deb nomlanayotgan “chorraha”dan o'tishini ham taqozo qiladi.

Diskursiv faoliyat jarayonini o'rganmasdan turib diskurs hodisasini tushuntirib bo'lmaydi. Diskursiv faoliyat – nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni ekan, ushbu jarayon nutq yaratuvchi – muallif va uni qabul qiluvchi –

⁸⁵ Новое в зарубежной лингвистике. Выпуск VIII. Лингвистика текста. – М.: Прогресс, 1978. – С. 467-468.

⁸⁶ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С. 7-8.

⁸⁷ Бу ҳақда қаранг: Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004.

⁸⁸ Седов К.Ф. Кўрсатилган асар. – С. 7-8.

retsipient shaxsi bilan uzviy bog'liqdir. Bu o'rinda diskursiv tahlil psixolingvistika, lingvokulturologiya, lingvistik semantika va kognitiv tilshunoslikning bir nuqtada kesishishini taqozo etadi.

Hozirgi kunda diskursiv tahlilning bir necha yo'nalishlari mavjud. Ulardan biri diskurs interpretatsiyasidir. Diskurs interpretatsiyasi nutq tuzilmasini "ichdan" turib tahlil etuvchi, kognitiv tilshunoslik bilan uzviylikka ega bo'lgan tahlil ko'rinishlaridan biridir. Diskursiv tahlil tadqiqotchidan ham muallif nuqtai nazarini, ham retsipient nuqtai nazarini e'tiborga olishni talab qiladi.

Diskurs interpretatsiyasi bilan shug'ullangan tadqiqotchilardan biri, mashhur gollandiyalik tilshunos T.A.van Deyk matbuot materiallari ustida olib borgan tadqiqotlarida diskurs tahliliga oid bir qancha muhim nazariy qarashlarni yaratdi⁸⁹. SHulardan biri makropropozitsiya haqidagi ilmiy qarashdir. *Makropropozitsiya* termini matnda ifodalangan ob'ektiv mazmunni aks ettiruvchi hodisadir. T.A.van Deyk so'zlari bilan aytganda, "Makropropozitsiya... diskursni tashkil etgan gaplarda ifodalangan propozitsiyalardan hosil qilingan propozitsiyadir.... u bir propozitsiyalar ketma-ketligining yana boshqa shunday yuqoriroq darajadagi propozitsiyalar ketma-ketligi bilan bog'lanishini aniqlaydi va buning natijasida diskurs yoki epizodning global ma'nosi kelib chiqadi"⁹⁰.

Olim matnda yonma-yon kelgan gaplarning mazmunan bog'lanishini *lokal aloqa*, diskursda ifodalangan ob'ektiv mazmunni keltirib chiqaradigan bog'lanishni esa *global aloqa* terminlari bilan nomlaydi va bu ikki hodisani farqlash lozimligini ta'kidlaydi⁹¹.

Darhaqiqat, matnda ifodalangan asosiy mazmun (tema, topik) alohida olingan gapdagi shunday mazmundan – propozitsiyadan tubdan farq qiladi. Makropropozitsiyani tadqiq etish tadqiqotchiga diskurs yaratilishida tafakkur va tilning munosabatini chuqurroq o'rganish, lisoniy shaxs fenomenini kengroq yoritish imkoniyatini beradi. Makropropozitsiya matnda ifodalangan gaplarning

⁸⁹ Дейк Т.А. ван. Язык. Познание. Коммуникация. – М.: Прогресс, 1989. – С. 117.

⁹⁰ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар. – Б. 42.

⁹¹ Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

mantiqiy sintezidir. Uning qanday verbal vositalar orqali ifodalanishi nutq yaratuvchi shaxsning diskursiv qobiliyatiga bog'liq bo'ladi.

Olimning makropropozitsiya haqidagi qarashlari publitsistik uslub materiallari misolida asoslangan bo'lsa-da⁹², uni badiiy matn tahliliga ham tatbiq etish mumkin. Makropropozitsiya haqidagi bu qarash murakkab mazmuniy tuzilishga ega bo'lgan badiiy matnni tushunishning kognitiv-diskursiv jihatlarini yoritishda muhim ahamiyatga ega. Zero, har qanday nutqiy tuzilma, shu jumladan, ko'p hollarda ikkilamchi nominatsiya bilan ish ko'ruvchi badiiy matnning asosida ham mantiqiy-kognitiv asos yotadi.

Alohida ta'kidlash joizki, eng so'nggi tadqiqotlarda matnga integrativ nuqtai nazardan yondashish fikri ilgari surilmoqda. Jumladan, Ye.Yu.Bajenovaning fikriga ko'ra, matnga bir vaqtning o'zida kommunikativ, kognitiv va funktsional nuqtai nazar bilan yondashish natijasida bu borada jiddiy yutuqlarni qo'lga kiritish mumkin⁹³. Mazkur fikrni bugungi kunda integrativ tahlil bo'yicha yaratilgan ko'plab tadqiqotlar ham isbotlamoqda. Zotan, integrativ tahlilning ustun jihat shundaki, unda matnni bir vaqtning o'zida lingvistik va nolisoniy omillar nuqtai nazaridan tadqiq etish mumkin. Bu esa ayni hodisaning mohiyatini to'lig'icha yoritib berish imkonini yaratadi. Amerikalik tilshunos Eduard Sepir o'zining "Lingvistikaning fan sifatidagi maqomi" nomli maqolasida shunday deb yozgan edi: "Lingvistik tadqiqotlar rivojlanishi jarayonida tilshunoslik inson haqidagi fanlarni egallashda muhim qurol ekanligini isbotlamoqda va, ayni vaqtda, o'z mohiyatini chuqur yoritishga imkon beruvchi bu fanlarga ham ehtiyoj sezmoqda. O'zining an'anaviy tadqiqot ob'ekti bilan chegaralanib qolgan tilshunos hozirgi davrda qiyin ahvolga tushib qolishi mumkin. Agar unda ozgina tasavvur qila olish imkoniyati bo'lsa, tilshunoslikning antropologiya, madaniyat tarixi, sotsiologiya, psixologiya, falsafa bilan, qolaversa,

⁹² Дейк Т.А. ван. Кўрсатилган асар.

⁹³ Баженова Е.Ю. Интегрированный подход к анализу процесса порождения текста // Вестник Челябинского государственного университета. – 2011. – №13 (54). – С.31.

fiziologiya va fizika fanlari bilan mushtarak manfaatlarga ega ekanligini inkor eta olmaydi”⁹⁴.

Mashhur tilshunosning bu so’zlari zamonaviy tilshunoslikning yetakchi yo’nalishlaridan biri bo’lgan integrativ tahlil to’g’risidagi bashoratdek tuyuladi. Bugungi kunda matn tahlilida tadqiqotchilar grammatika, semantika, kognitologiya, sotsiolingvistika, sotsiopsixolingvistika, psixolingvistika, etnopsixolingvistika, lingvokulturologiya kabi bir qator yo’nalishlar qo’lga kiritgan yutuqlarga tayanib ish ko’rmoqdalar. Bundan maqsad nutq yaratuvchi va uni idrok etuvchi shaxs omilining lisoniy faoliyatda qanday o’rin tutishini aniqlash bo’lsa, ikkinchi tomondan, matnning shaxs faoliyati bilan bog’liq xususiyatlarini yanada chuqurroq o’rganishdir.

Ayon bo’ladiki, lisoniy faoliyatni namoyon etuvchi matn xususida kognitiv tilshunoslikda mavjud bo’lgan qarashlar turli- tuman va o’ziga xosdir. Ammo ularning barchasi murakkab mavjudot bo’lgan inson (shaxs) fenomeni mohiyatiga chuqurroq yondashishga intilmoqda.

Dunyo tilshunosligidagi mazkur nazariy ta’limotlardan foydalanib, ularni rivojlantirgan holda o’zbek tilida so’zlashuvchi shaxs lisoniy faoliyatining o’ziga xos jihatlarini yoritib berish bugungi tilshunosligimizning dolzarb vazifalaridan biridir.

⁹⁴ Сепир Э. Статус лингвистики как наука // Избранные труды по языкознанию и культурологии. – М.: Прогресс, 1993. – С. 260.

3-mavzu. Amerika psixolingvistik maktabi: bixeviorizm, neobixeviorizm
4 –mavzu. J. Miller va N. Xomskiy transformatsion maktabi

Nutqiy faoliyat jarayon sifatida qadimdan faylasuflarning tadqiqot ob’ektiga aylangan. Qadimgi Misr obidalarida qayd etilgan “Til yurakdagi fikrni takrorlaydi” iborasini tilning ruhiyat bilan chambarchas bog’liqligi va uning mahsuli sifatida nutqda reallashishi haqidagi ilk ta’rif deyish mumkin. Keyinchalik bu fikrlar antik davr faylasuflari tomonidan rivojlantirildi. Ular til va nutqni farqlab, nutqni so’zlash jarayoni tarzida baholadilar. Jumladan, eramizdan avval V asrda yashagan grek faylasufi Demokrit “Til belgi sifatida muloqot uchun xizmat qiladi va voqelikni aks ettiradi” degan g’oyani ilgari suradi. Platon esa “Kratil” asarida ushbu g’oyani rivojlantirib, nutqni inson ongida yaratiladigan faoliyat deya baholaydi.⁹⁵ Buyuk faylasuf Aristotel ham nutqning kommunikativ xarakterda ekanligini e’tirof etgan holda og’zaki va yozma nutqni farqlaydi. “Tovushlar qo’shilmasida ifodalangan nutq, qalbdagi tasavvurlar belgisi, yozuvdagi ifoda tovushlarning belgisidir”.⁹⁶ “Ritorika” asarida qayd etilishicha nutqni tashkil etuvchi uchta tushuncha mavjud: “etos”, “logos”, “pafos”. Etos – insonning axloqi bilan bog’liq etik pozitsiyani, logos - suhbatdoshga bevosita ta’sir o’tkazuvchi ma’noni, pafos- muloqot maqsadi va vaziyatiga mos keladigan ifoda shaklini

⁹⁵ Платон. Кратил. С. 679.

⁹⁶ Аристотель. Об истолковании. Собр. соч. Т. 2М., 1978. С. 93.

anglatadi. Notiqning nutqi mana shu uch tarkibiy qismdan tashkil topmog'i shart deb hisoblaydi Aristotel.⁹⁷ SHarqda ham til va nutqqa notiqlikning bevosita asosi sifatida qaralgan, ushbu asos esa nutq sohibining axloqiy, ma'naviy- ma'rifiy yetukligi bilan uzviy bog'liqligi ta'kidlangan. Jumladan, Forobiy "quvvai notiq"ni inson fozilligining muhim belgilaridan biri hisoblasa, Husayn Voiz Koshifiy nutqda so'zning o'rni, so'z tanlashda voizning didi, nazokati, tinglovchining umumiy saviyasini hisobga olish zarurligini ta'kidlaydi. Amir Temur ham nutqiy ifodaning aniqligi va rostligini yuksak qadrlagan. Alisher Navoiy nutqiy faoliyatni insonni hayvondan ajratgan buyuk ne'mat sifatida baholaydi va har bir so'zga zargar kabi yondashadi. Z.M.Bobur farzandlariga nutqning sodda, ravon, aniq bo'lishi muvaffaqiyatning garovi ekanligini uqtiradi. SHu kabi fikrlar tilimiz fidoyilari bo'lgan M.Behbudiy, A.Fitrat, A.Cho'lpon, A.Avloniyning qator maqolalarida ham o'z aksini topgan.

Til belgilarning murakkab tizimi sifatida shaxsning intellektual faoliyati, idroki, xotirasi, tafakkuri o'rtasida vositachidir. Bu tizimga kirgan belgilar real olamdagi narsa va hodisalarni cheklanmagan holatda ifodalay oladi. Barcha til belgilari birlashib, shu til egalari yashaydigan va nimalarnidir yaratadigan alohida umumiy manzarani hosil qiladi. Aynan mana shu sababga ko'ra insonlarning turmush tarzi, ijtimoiy holati rang-barang bo'ladi va bir-birlaridan o'zaro farqlanadi.⁹⁸ Til va nutq birliklari belgi sifatida ma'no, tushuncha, fikr ifodalaydi. SHu bois F.Sossyur tilni fikr ifoda etuvchi belgilar sistemasi deya ta'riflaydi. Tilning belgi tabiatiga ega ekanligi va informatsiya uzatish, informatsiyani qabul qilish qobiliyatida yaqqol ko'rinadi. Demak, tilning tarkibini tashkil qiluvchi struktural elementlar ijtimoiy vazifa bajaruvchi belgilar sistemasidir. Insonning olamni anglash, idrok etish va qabul qilish salohiyati beqiyos. SHuning uchun tashqi olam uning ichki olamiga bemalol jo bo'ladi. Ammo har bir hodisa shu insonning ong va qalb prizmasidan qanday o'tadi va qayta akslanish qay tarzda sodir bo'lishini hech kim, hech qachon ayta olmaydi. Ana shu nuqtai nazardan

⁹⁷ Аристотель. Риторика. Собр. соч. Т. 3. М., 1980.

⁹⁸ Панов Е.Н. Знаки. Символи. Языки. М., 1980. С. 38.

qaraganda, insonning ichki olami tashqi olamdan ko'ra kengroq, rang-barangroq deyishga to'la haqlimiz. Inson haqida gap ketganda "inson olami", "insonning ichki dunyosi" kabi atamalar bejiz qo'llanmaydi. Zotan, har bir inson alohida bir olam va uning ma'naviyati, axloqiy darajasi, fe'l-atvori va xatti-harakati bevosita ana shu ichki dunyo qiyofasi, ichki olam ko'rinishi orqali baholanadi. Insonning ma'naviy olami esa, o'zini aql-zakovat, tafakkur, iroda va eng asosiysi, ko'p asrlardan beri tilshunoslar, tibbiyotchilar, ruhshunoslar, faylasuflarning tadqiqot manbaiga aylangan o'zaro nutqiy munosabatlar orqali namoyon etadi. Psixolingvistika so'zini birinchi bo'lib Amerikalik psixolog N.Pronko 1946 yil chop etilgan maqolasining sarlavhasida qo'llagan bo'lsa ham, bu atama 1953 yilga kelibgina Amerika-ning Indiana shtati Blumington shahrida o'tkazilgan universitetlararo tadqiqiy seminarda alohida fan, ilmiy nazariya nomi sifatida mazmun va mohiyat kasb etdi. Seminar tashkilotchilari taniqli amerikalik psixologlar J.Kerrol va CH.Osgud, tilshunos, etnograf T.Sibeok edi. Ikki oy davom etgan tadqiqotlar, bahs va munozaralar mahsuli sifatida "Psixolingvistika nazariy va tadqiqiy muammolar haqida ocherk" nomli kollektiv to'plam chop etildi va juda katta shov-shuvga sabab bo'ldi. Kitobda nutqiy faoliyatni eksperimental tadqiq etishning amaliy vazifalari nazariy nizom tariqasida qisqacha yoritilgandi. Tez orada psixolog va tilshunoslarning nutqiy faoliyatni kompleks tadqiq etishga yo'naltirilgan chaqiriqlari ommaviy axborot vositalarida chop etildi. Butun Yevropa, Rossiyaning vayronalar ichida ekanligi, ikkinchi jahon urushining dahshatlari hali unut bo'lmaganligi, iqtisodiyot hali to'la izga tushmaganligi e'tiborga olinsa, ushbu chaqiriq noo'rinday tuyiladi. Aynan shunday og'ir davrda nutqiy faoliyat muammosining ko'tarilganligi, davlat miqyosida mablag' bilan ta'minlanishi ko'pchilikni ajablantirdi. Haqiqatan ham, jamiyatda nutqiy faoliyat tadqiqiga ma'naviy ehtiyoj juda katta bo'lgan. Ikkinchi jahon urushi natijasida kelib chiqqan birinchi ehtiyoj urush izdan chiqarib yuborgan migratsiya jarayoni hisoblanadi. Chunki o'sha yillari yevropaliklar jon saqlash ilinjida okean ortiga – Amerikaga qochib ketgandilar. Tinch va farovon hayotni orzu qilganlarning son-sanog'i, millatlarning adog'i ko'rinmasdi. Amerika maorif tizimi emigrantlarning

oqimi oldida ojiz qoldi. Muhojirlar to'laqonli hayot kechirish, ishlash uchun tabiiy ravishda yerli aholi bilan muloqotga kirishishga harakat qilar, ammo hamma ham buni uddalay olmayotgandi. Muloqotga kirishish uchun esa ingliz tilini o'rganish zaruratga aylandi. Amerikalik lingvistlar oldida quyidagi masalalarni hal qilish muammosi turardi. Katta va kichik yoshdagi turli millat vakillariga qanday qilib til o'rgatish mumkin? Yevropalik bilan osiyolikka bir xil metod bilan yondashish mumkinmi? Til o'rganishda o'quvchining yoshi, jinsining ahamiyati bormi? Muhojirlar ingliz tilini tez va oson o'rganishlari uchun nima qilish kerak? Mana shu kabi savollarga javob izlash jarayonida hozirda ommalashgan turli bosqichlardan iborat qisqa ingliz tili kurslari ochildi va asta-sekin takomillasha boshladi.

Ikkinchi asosiy ehtiyoj urushdan yarador bo'lib qaytgan jangchilarni kundalik hayotga, jamiyatga qaytirish ehtiyoji butun dunyoda hal qilinishini kechiktirib bo'lmaydigan muhim masalaga aylangandi. Mana shu ezgu niyat medik, psixolog, pedagog, lingvistlarni birlashtirdi. Miyasi shikastlangan, eshitish, ko'rish, nutq organlari jarohatlangan, xotirasini yo'qotgan bemorlarning har biri individual yondashuvni talab qilardi. Bu juda ham mashaqqatli, murakkab jarayon ediki, natijasini ba'zan yillab kutishga to'g'ri kelardi. Mana shunday amaliy tadqiqotlar natijasida, bir necha fanlar chorrahasida asta-sekin psixolingvistika shakllandi, tilshunoslikning tatbiqiy yo'nalishi sifatida tanildi va fan sifatida mazmun, mohiyat kasb etdi. SHu davrda fanlar uyg'unligida yuzaga kelgan neyrolingvistika, sotsiolingvistika, etnolingvistika ham yangi bosqichga ko'tarildi. Ushbu tarixiy faktlar ham jamiyat rivojida tilning ahamiyati beqiyos ekanligini yana bir bor isbotlaydi. Psixolingvistika termini ham shu yillari ko'p qo'llana boshlasa-da, faqat 1957 yilga kelib psixolingvistikani tilshunoslikning bir bo'limi sifatida tan olish kerakligi haqidagi fikr o'rtaga tashlandi. Yuqorida nomi zikr etilgan asarning dastlabki ikki bobida psixolingvistikaning boshqa fanlar bilan aloqasi va mavqei haqida so'z boradi. J.Jenkins turli bixevioristik nazariyalarni, ya'ni Gazri, Golman, Skinner, Xal nazariyalariga to'xtalib, ularni mexanik va atomik xarakterga egaligini ta'kidlaydi. Aniqroq qilib aytsak, ular insonning

murakkab xulq-atvorini to'la qamray olmaydi. SHuning uchun bu kitobdagi psixologik kontsepsiya asosini CH.Osgudga mansub neobixeviorizm tashkil qiladi.⁹⁹ Fikrimiz isboti uchun tilshunoslik tarixiga yana bir karra nazar tashlashga to'g'ri keladi. Psixologiya va tilshunoslik fanining hamkorligi uzoq tarixga ega. Umumiy va nazariy tilshunoslikning shakllanishiga asos solgan V.Gumboldt lingvistik kontsepsiyasining eng muhim jihati – nutqiy faoliyatda sotsiallik va individuallik dialektikasi tushunchasini tilshunoslik faniga olib kirganidir. Olim har bir tilda til egalarining dunyoqarashi aks etishi, tillarning xilma-xilligi faqat tovushlarning turlicha ekanligida emas, balki har bir millatdagi dunyoni ko'rishning farqliligi natijasi ekanini aytadi. “Tillarning struktur farqlanishi va uning kishilarning ruhiy olamiga ta'siri” nomli maqolasi psixolingvistik qarashlarning ilk nazariy manbasi sifatida tan olinadi. V.Gumboldt lingvistik qarashlarining falsafiy asoslari sifatida nemis faylasuflari I.Kant va G.Gegel falsafasini ko'rsatish mumkin. Xususan, I.Kantning “Antropologiya pragmatik nuqtai nazaridan” asarida kommunikatsiya jarayonida kommunikantlar o'rtasidagi axborot uzatish va qabul qilishning ziddiyatli xarakterda bo'lishi ta'kidlanadi. Faylasufnin bu xulosasiga tayangan V.Gumboldt kommunikantlar o'rtasidagi tushunish va tushunmaslik antinomiyasi to'g'risidagi g'oyani ilgari suradi. Til Gumboldt nazarida inson va jamiyatni bog'lab turuvchi vosita. Til shakli tabiatiga ko'ra sotsial bo'lib, u nutqiy faoliyatda til materiyasi uchun tashkillashtiruvchi manba bo'lib xizmat qiladi. Til materiyasi bir tomondan tovushlar yig'indisi, ikkinchi tomondan ichki kechinmalar, hissiy taassurotlar yig'indisidir. Unisi ham, bunisi ham individual hodisa. Til shuning uchun ham o'ziga xos mohiyat kasb etadiki, o'zining ma'nosini doimo tafakkurdan o'tish aktidagina saqlab qoladi, ammo bus-butunicha tafakkurdan holidir.¹⁰⁰ Til va tafakkurning o'zaro bog'liqligi haqida N.Mahmudov shunday deydi: “...til rasolashgan sari tafakkur, tafakkur rasolashgan sari til rasolik kasb etib boradi”.¹⁰¹ Tafakkurning reprezentatsiyasi til hisoblanadi. Ong amalda til formasida mavjud. SHu bilan birga til va tafakkur

⁹⁹ Цит по: А.А.Леонтьев Психолингвистика. Л., 1967. С. 7.

¹⁰⁰ Цит по: А.А.Леонтьев Психолингвистика. Л., 1967. С. 7.

¹⁰¹ Махмудов Н. Ўзбек тили луғат бойлиги ривожда фаоллашган жараёнлар. // Ўзбек тили ва адабиёти, 2015. №5. Б. 4.

murakkab qarama qarshiliklarga boy bo'lgan dialektik birlikdir. Til fonetika, grammatika qonunlari asosida tashkil topgan material hodisa bo'lsa, tafakkur ob'ektiv borliqning inson miyasida aks etishining oliy formasi sifatida ideal hodisadir. Til shakli o'ziga xosligini til materiyasining hosil bo'lish jarayonida namoyon etadi. Til bir tomondan barqarorlik, ikkinchi tomondan o'zgaruvchanlik belgisiga ega. Til faolligi ijtimoiy, sotsial hodisa sifatida individga ta'sirida namoyon bo'ladi. O'z-o'zidan tilning ijtimoiyligi ham individ nutqida faollashadi, reallashadi. Bunday ilmiy qarashlar tilshunoslik tarixida til va nutqni bir-biridan ajratishga zamin yaratdi. Gumboldt turli insonlar tilidagi o'xshashlikni tovush birligi va ruhiy ma'no birligidan izlagan. U tovush birligini irsiyat bilan bog'lab, ruhiy birlikni esa jamiyat birligi sotsial faktor bilan izohlaydi. SHunday fikrni Gumboltdan 900 yil oldin "ikkinchi muallim" nomi bilan mashhur bo'lgan Abu Nasr Forobiy ham bildirgan edi. "Har qanday bilish dastavval, o'zini qurshab turgan olamdagi narsa va hodisalarni kuzatishdan boshlanadi. CHunki tafakkur faoliyati bilan hosil qilingan mohiyat o'zining tabiiy asosidan oldin bo'lishi mumkin emas. Bilishdan maqsad haqiqatga erishmoqdir".¹⁰² Bilish – voqelikning inson tafakkurida aks etish va takror hosil bo'lish jarayoni. Bilishning maqsadi ob'ektiv haqiqatga erishishdir. Bilish jarayonida kishilar real hodisalar haqida bilimlar tushunchalar orttiradilar, olamni anglaydilar va eng muhimi bu bilimlardan amaliy faoliyatda o'z ehtiyojlarini qondirish maqsadida foydalanadilar. Sezgi organlarimiz orqali biz narsalarning xossasini, xususiyatlarini his qilamiz, aqliy bilish tufayli biz ularning moddiy asosini, mohiyatini bilamiz. Ong faqat ob'ektiv olamning in'ikosini emas, balki insonning o'z ruhiy faoliyatini anglashini ham o'z ichiga oladi. Ong voqelikning ham aqliy, ham hissiy in'ikosini qamrab oladi. SHuningdek, u inson hissiyotlarini, irodasini ham o'z ichiga oladi.¹⁰³ SHunga uyg'un fikrni tildagi o'zgarishlarni nozik ilg'ay oladigan tilshunos olim N.Mahmudov quyidagicha ifodalaydi: "Olam benihoya murakkab, muhtasham va ayni paytda muntazam voqelikdir, inson bolasi ibtidoiy sezgi organlari va intiho

¹⁰² Абу Наср Форобий Фозил одамлар шахри. Т., 1993. Б. 3.

¹⁰³ Туленов Ж. Ғафуров 3 Фалсафа. Т., 1997. Б. 182.

bilmas aqliy zakovati bilan bu murakkablikning tarkibini aniqlashga, bu muhtashamlikning hashamlarini idrok etishga, bu muntazamlik asosidagi mavjud intizomni inkishof qilishga tinimsiz urinish mashaqqatidan huzur qilib yashaydi”.¹⁰⁴ SHuning natijasida har birimizning ongimizda o’zimizga xos olam manzarasi va uni ifodalashga qodir bo’lgan o’zimizga mos til boyligimiz bor. Va bu buyuk ne’matning nimaga sarflanishi har bir insonning bilimi, iqtidori, tarbiyasi va madaniyatiga bog’liq. “Forobiy bugungi til falsafasi uchun g’oyat muhim tushunchalarga (konstanta – aktsidentsiya, zot-tazohir, umumiylik-xususiylilik; fahmiy (hissiy) bilish-idrokiy bilish), asos solgan ulug’ faylasuf bo’lish bilan birga, tilshunoslikning umumiy masalalarini yoritib bergan ulkan tilshunos olim hamdir”.¹⁰⁵ Lisoniy va mantiqiy faoliyatlar o’zaro qo’shilib, yagona nutqiy tafakkur faoliyatini tashkil etadi. Demak, nutqiy birliklarning hosil bo’lishi va ularning tushunilishi aqliy faoliyatning natijasidir. “Tafakkur voqelik haqidagi axborotni qabul qilish, to’plash, qayta ishlash va tartibga solish usulidir”. – degan xulosaga keladi SH.Safarov o’zining “Kognitiv tilshunoslik” risolasida. SHu kabi fikrni buyuk mutafakkir Alisher Navoiyning til va nutq borasidagi qaydlarida ham uchratish mumkin. Alisher Navoiy fikrlariga e’tibor berilsa, bu olim V.Gumboldt va F.de Sossyurlardan ancha oldin til va nutq hodisalarini bir-biridan farqlaganining guvohi bo’lamiz. Alisher Navoiy imkoniyat tarzidagi so’zni (til birligi), sohibi ixtisos (so’zlovchi) tomonidan turli jilvalantirilishi (nutq birligi) mumkinligini bayon qiladi. Bizningcha, psixolingvistikaning negizini ham ayni shu fikrlardan izlash to’g’ri bo’ladi. “Muhokamat ul-lug’atayn” asarida ta’kidlanishicha, so’z go’yo durdur. Durning joylashish o’rni dengiz tubi bo’lsa, so’zning joylanish o’rni ko’nguldir (xotiradir). Dur g’avvos yordamida dengiz tubidan tashqariga chiqarilib, jilvalantirilsa va g’avvosning qiymati javharni jilvalantira olish qobiliyatiga qarab belgilansa, so’z sohibi ixtisos tomonidan ko’ngildan tashqariga olib chiqiladi va notiqning qiymati so’z qo’llash mahoratiga uni jilvalantirish qobiliyatiga qarab belgilanadi. Dengiz qa’rida harakatsiz

¹⁰⁴ Махмудов Н Оламнинг лисоний манзараси ва сўз ўзлаштириш. // Ўзбек тили ва адабиёти. 2015. № 3. Б. 3.

¹⁰⁵ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т., 2002. Б. 13.

imkoniyat tarzida turgan durlar g'avvos yordamida harakatga keltirilsa, ko'ngil tubidagi imkoniyat tarzidagi so'zlar ham so'zlovchi tomonidan nutq jarayonida o'z jilvasini topadi.¹⁰⁶ Ushbu ilmiy qarashlarni XXI asr tilshunoslarining tadqiqot ob'ektiga aylangan nutqning yaratilishi va unda sub'ektning o'rni, so'zlovchi va tinglovchining o'ziga xos jihatlarini kommunikatsiyaga ta'siri, kommunikanlar ruhiyatining nutqda aks etishi, nutqning yaratilishi kabi dolzarb masalalarning negizi deyish mumkin. Chunki sharqda lisoniy umumiylik va xususiyliklarni farq qilishga intilish shu fan paydo bo'lgan kundan boshlab mavjud.¹⁰⁷

Ayni holat haqida yana g'arb olimlarining fikriga qaytamiz. Agar Gumboldt tilni jarayon, ontologik birlik, inson ruhiy faoliyatining muhim qismi sifatida ko'rib chiqqan bo'lsa, uning izdoshi SHteyental esa til yo jarayon, yo ontologik hodisa degan fikrni bildiradi. "Til mohiyat sifatida porox emas, ammo jarayon sifatida portlashdir" – deydi SHteyental. (Ta'riflardagi mohiyat birligi, ifoda planining har xilligi kishini hayratga soladi. Hattoki ilmiy uslubda ham zamon va makon, imkoniyat va voqelik, sharq va g'arbning o'ziga xosliklari o'z aksini topar ekan, Navoiyda "dur", "jilva", SHteyentalda "porox", "portlash". Hatto, shu misolning o'ziyoq psixolingvistikaning ildizlarini ancha uzoq asrlarga olib ketadi). Bunday mantiqiy fikrlash SHteyentalni tilni sub'ektiv – psixologik tushunishga olib keldi. R.SHor o'z vaqtida bunga to'g'ri baho bergan edi: "SHteyental Gumboldt g'oyalarini tubdan qayta qurmoqda. Gnoseologik muammolarni tillarning o'zaro munosabati muammolari bilan, ong va turmush, individual nutq taraqqiyoti muammolari bilan, individual tafakkur va individual nutq taraqqiyoti muammolarining o'rnini almashtirgan holda qayta qurmoqda". SHteyentalning xulosasi shu bo'ldiki, umumiy tilshunoslik va psixologiya o'zaro chambarchas bog'liq tushunchalar, ya'ni til xuddi xayol, iroda kabi psixologik kategoriyan hosil qiladi. Psixologiya mohiyatni, tilshunoslik esa jarayonni o'rganadi. Bunday qarash tilshunoslikda individual psixologiya deb nom oldi va olimga quyidagicha ta'rif berilishiga sabab bo'ldi: "SHteyentalning shaxsi Robinzon kabi o'ziga o'zi

¹⁰⁶ Нурмонов А. Ўзбек тилшунослиги тарихи. Т., 2002. Б. 80.

¹⁰⁷ Шаҳобиддинова Ш. Умумийлик ва хусусийлик диалектикаси ҳамда унинг ўзбек тили морфологиясида акс этиши Филол фанлари доктори... дисс. автореф. Т., 2001. Б. 9.

kompozitor, organchi va organ edi”. Agar til faqatgina individual hodisa bo’lsa xalq tili, millat tili degan tushunchalarni qanday tushunmoq kerak? Bu tilda so’zlashuvchilarni nima birlashtiradi? SHteyental bu hodisani nasldan naslga o’tuvchi holat sifatida baholaydi. Bu kontseptsiya, albatta, yanglish edi va Boduen de Kurtene shuning uchun ham SHteyentalni yolg’on tushunchalarni tadqiq qilishda ayblagandi. A.Potebnya so’zga quyidagicha baho beradi: “So’zsiz hech qanday fikr almashuv, hech qanday insoniyat erishgan bilim bo’lmas edi”. Potebnya dialektikani sotsial va individual-psixologik tushunishda Gumboldtga yaqin. Olim V.Gumboldtning “tushunish – tushunmaslik” antinomiyasini rivojlantirdi. Mazkur holatni individual psixologiya bilan uzviy bog’lab, bir narsani so’zlovchi va tinglovchi turlicha tasavvur qilishi mumkinligini, natijada so’zlashuvchilar o’rtasida predmet obrazi turlicha namoyon bo’lishini ta’kidlaydi. A.Potebnya bir qator lisoniy hodisalarni izohlash da psixologizm yo’lidan boradi. Masalan, so’zning paydo bo’lishini insonga ob’ektiv borliqning ta’siri deya izohlaydi. “Yosh grammatiklar” SHteyental izidan bordilar. Ular uchun til jarayon yoki jarayonlar yig’indisi emas balki, “psixik obrazlar” yoki assotsiatsiyalar yig’indisidir. Bu haqda G.Paul shunday deydi: “Psixik holatlar bir qalbda individual psixologiyaning umumiy qonuniyatlariga bo’ysungan holda ro’y beradi”. Boduen de Kurtene esa tilni muayyan bir jamiyatni tashkil etgan individlar ongida, psixikasida, individlarning tili sifatida yashaydi degan g’oyani ilgari suradi, o’z tadqiqotlarida shaxs nutqiga asosiy e’tiborni qaratadi.

XIX asrning oxiriga kelib psixologiya taraqqiyotida burilish davrining boshlanishi tilshunoslikka ham o’z ta’sirini ko’rsatdi. G’arb psixologlari shaxs psixik taraqqiyotining harakatlantiruvchi kuchi sifatida biogenetik va sotsiogenetik kontseptsiyani ilgari surdilar. Biogenetik kontseptsiya tarafdorlari inson shaxsining taraqqiyoti biologik ya’ni nasliy faktor bilan belgilanadi deb hisoblaydilar va insonni “peshonasiga bitilgani” dan boshqasini uddalay olmaydigan passiv organizm sifatida talqin etadilar. Sotsiogenetiklar esa odamni “ijtimoiy muhit nusxasi” deb hisoblab, jamiyat ta’siriga ortiqcha baho berib, bir yoqlama fikr bildiradilar. Bunday qarashlar psixolingvistika sohasida ham turli nazariyalarga

tayangan holda bo'linishlarga sabab bo'ldi. Jorj Millerning "Til va aloqa", Noem Xomskiyning "Sintaktik strukturalar" asarlari mana shunday qarashlarga asos bo'ldi. Ruhshunos va tilshunoslar Osgud kontseptsiyasini qayta ko'rib chiqib, u taklif etgan modelga tanqidiy yondashdilar. Natijada, psixolingvistikaning ikki yo'nalishi paydo bo'ldi. Yangi yo'nalish klassik deskriptivizmga emas, balki transformatsion lingvistikaga asoslandi. Osgud izohlab bergan bixeviorizmga emas (ya'ni inson tashqi axborotlarning passiv yig'uvchisi emas) balki inson atrof muhitga nisbatan faol organizm sifatida talqin qilindi. Qisqacha qilib aytganda, Osgud modeli tilni yaxlit holda o'rgansa, Miller taklif etgan transformatsion model bevosita tashkil etuvchilardan iborat. Ammo transformatsionizmni Osgud psixolingvistikasiga qarshi turgan yagona va to'la to'kis nazariya deb aytishga haqimiz yo'q, chunki ko'p o'tmay transformatsion modelning chegaralanganligi haqida ilmiy tadqiqotlar yaratila boshladi. SHunday yo'nalishlarning biri Frantsiyada paydo bo'ldi. Bu yo'nalish Frantsuz psixologiyasining sotsiologik maktabi asosida yuzaga keldi. Bu qarashlar Pol Fress va Jan Piaje kabi frantsuz psixolingvistikasining ko'zga ko'ringan namoyondalarining ilmiy ishlarida o'z aksini topdi. J.Piaje intellektning rivojlanishini bosqichlarga bo'lib o'rganish yaxshi samara berishini aytib, qo'yidagi 3 bosqichni taklif etadi: Sensomotor intellekt bosqichi (0-2 yosh). Konkret operatsiyalarni bajarishga tayyorlash va uni tashkil qilish bosqichi (3-11 yosh). Formal operatsiyalar bosqichi (12-15 yosh). Uchinchi bosqichda bola nafaqat ko'rib turgan narsasi, balki mavhum tushunchalar va so'zlar vositasida ham fikr yuritadi, muloqotga kirisha oladi deb hisoblaydilar frantsuz psixolingvistlari. Rus tilshunoslari uchun esa psixologiya va fiziologiya ilmida psixik jarayonlarga materialistik qarash xarakterli jihat bo'lib qoldi. Ular nutqiy faoliyat jarayonidagi har bir bosqichni faoliyat motivlari bilan izohladilar. Motivlarning o'zgarishi shaxs ehtiyojlari va talablari darajasining o'zgarishiga mos tarzda ro'y beradi. Rus tilshunosligida L.Vygotskiy, A.Leontev, A.Luriya asos solgan psixolingvistika maktabi Amerika psixolingvistikasidan tubdan farqlandi. Rossiyalik psixolingvistlar "Nutq – nutqiy reaksiyalar tizimi emas, balki faol va maqsadga yo'naltirilgan nutqiy faoliyatdir" – degan nazariy kontsepsiya asosida

shakllandilar va keng ko'lamli ilmiy tadqiqot olib bordilar. SHuning uchun ular "psixolingvistika" termini bilan parallel ravishda "nutqiy faoliyat nazariyasi" iborasini qo'llaydilar. Jumladan, A.R.Luriya inson olamni anglashda faqat sezgi organlariga emas, balki ratsional bilishga ham asoslanishini ta'kidlaydi.¹⁰⁸ Inson olamni ratsional bilishda tafakkurga tayanadi. Tafakkur uch bosqichdan iborat: tushuncha; muhokama; hukm. Dastlab narsa va hodisalarning mavhum obrazi ongda tiklanadi, keyin ularning o'xshash va farqli jihatlari qiyoslanadi va tasdiq yoki inkor etish yo'li bilan yakunlanadi. Inson moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning umumiy va xususiy belgilarini ajratgan holda, ongda aks ettirish imkoniyatiga ega.¹⁰⁹ Insonning psixik taraqqiyotida genetik omillar bilan birgalikda ijtimoiy omillarning roli katta ekanligi isbotlanadi. Vygotskiy L, Rubinshteyn S, A.Leontev esa ikki omilning ham rolini inkor qilmagan holda ijtimoiy muhitning yetakchi ta'siri to'g'risidagi fikrni olg'a suradilar va bizningcha ham, bu eng maqbul pozitsiya. Rus psixologlari nutqni har xil muammoli vaziyatlarda tildan o'rinli foydalana olish aspektida, inson xatti-harakatlarini programmashtirishda tilning rolini boshqa vositalarga nisbatan qay darajada ahamiyatli ekanligi jihatdan o'rgandilar. Odamning xatti-harakatlari muammoli vaziyatlar asosida amalga oshadi va bu muammoni hal qilish yo'lida o'ylaydi, fikrlaydi, taqqoslaydi. Mana shu jarayon intellektual akt deyiladi. U uch fazadan iborat: faoliyatni planlashtirish, uni amalga oshirish, va qo'lga kiritilgan natijani ko'zlangan maqsad bilan solishtirib ko'rish. Rus olimlari o'zlarining nazariyalarida jamiyat va shaxs dialektikasini aks ettirdilar, nutqiy faoliyatning ijtimoiy-sotsial tabiatini ochishga harakat qildilar. A.A.Reformatskiy tilning muhim xususiyati haqida "Til kishilar munosabatining muhim vositasi. Til bo'lmasa, kishilar o'rtasida munosabat bo'lmaydi. Munosabatsiz jamiyat ham yo'q, insoniyat ham. Tilsiz tafakkur ham, ya'ni insonning borliqni va undagi o'zini anglashi ham bo'lishi mumkin emas", – degan edi. Ayni fikrni tilshunos olim Alisher Navoiy ixcham va lo'nda qilib quyidagicha ifodalaydi: "CHun alfoz va maskur

¹⁰⁸ Лурия А. Р. Язык и сознание. М., 1979. С. 28.

¹⁰⁹ Искандарова Ш. Тил системасига майдон асосида ёндашув. Т., 2007. Б. 12.

mahluqotdin murod ma'nidir". Ya'ni olamdan olgan ma'lum bilimimizni ifodalash, boshqalarga yetkazish uchun gapiramiz. Yuqorida keltirilgan ilmiy qarashlar XX asr tilshunoslari tomonidan shakl va mazmun dialektikasi, imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik dialektikasi sifatida tilga tadbiq etila boshladi. "...tilda bir fikrni bir qancha shaklu shamoyillarda ifodalash imkoniyatlari mavjud, aynan qaysi shaklni tanlash, muayyan fikr va muloqot vaziyati uchun eng uyg'un ifodani topa bilish nutq egasining tilga sohiblik darajasi, mahoratu malakasi, ma'rifatu ma'naviyatiga bog'liq. Muloqot vaziyatini yetarlicha baholamasdan turib, fikr ifodasi uchun tanlangan lisoniy libos, har qancha to'g'ri va go'zal bo'lmasin, maqsad nishoniga yetib bora olmaydi".

Jahon tilshunosligida ko'zga ko'ringan psixolingvistik kontseptsiyalarni qiyoslash natijasida shunday xulosaga keldik, insoniyat tamaddunida til va nutqning ahamiyati beqiyos. Nutqiy faoliyat yuksak darajada shakllangan psixolingvistik jarayon bo'lib, asosiy kognitiv jarayonlar: idrok, xotira, tafakkur, xayol bilan uzviy bog'liq. Ona tili har bir etnik guruhning o'ziga xos, betakror madaniyati va ruhiy olamining shakllanishi bilan chambarchas bog'liq. O'zbek tili to'laqonli muloqot olib borish uchun potentsial imkoniyatga ega.

5- 6 – mavzu:

NUTQIY FAOLIYATNING UMUMIY QONUNIYATLARI

1. Og'zaki nutq yaratilishining psixolingvistik jihatlari

Fikrning moddiy asosi nutqdir. Nutq faqatgina fikr afodalash vositasi emas, balki fikrni shakllantiruvchi vosita ham hisoblanadi. So'zlovchi va tinglovchi o'rtasidagi axborot uzatish va axborotni qabul qilish jarayoni nutqiy faoliyat sanaladi. Ferdinand de Sossyur nutqiy faoliyatning til va nutq zidlanishi asosida amalga oshishini ta'kidlab, nutq faollashgan, bevosita yuzaga chiqqan til ekanligini aytgandi. Psixologlar nutq faoliyatini odam tomonidan ijtimoiy tarixiy tajribani o'zlashtirish va avlodlarga berish yoki kommunikatsiya o'rnatish yoki o'z

harakatlarini planlashtirish maqsadida tildan foydalanish protsessi sifatida ta'riflaydilar. Nutqiy faoliyat jarayoni ko'p bosqichli. Nutqiy faoliyatning yagona kontseptsiyasini shakllantirishda rus tilshunosi, psixolingvisti A.A.Leontevning xizmatlari katta. U o'z ilmiy ishlarida nutqning psixologik, lingvistik, neyrofiziologik, falsafiy jihatlarini umumlashtirdi. Leontev nutqning vujudga kelishini murakkab bosqichli, davriy shakllanishga ega nutqiy harakat sifatida baholaydi.

Olimning fikricha, nutqning vujudga kelish bosqichi quyidagicha:

- a) ifodaning grammatik-sintaktik tamonlarini programmashtirish;
- b) grammatik realizatsiya va so'z tanlash;
- v) ifoda (sintagma) komponentlarini programmashtirish;
- g) tovush tanlash;
- d) ifoda; Axutina taklif etgan jadvalda bu yaqqol aks etgan.

Motiv	
Fikr	
Ichki dasturlash	
Leksik izlanishlar (so'z tanlash)	Grammatik konstruksiyalar tanlash (loyihalash)
Motor reallashuv (tashqi nutq)	

SH.Safarov nutqiy faoliyatning yuzaga kelishini quyidagicha izohlab, tashqi nutqni “tasavvurga lisoniy libos berish” deb ta'riflaydi. Til tizimining o'zi nutqiy faoliyat natijasida mavjuddir, uning tabiati va mohiyati nutqiy muloqot jarayonida namoyon bo'ladi. SHunday ekan, til birlik larining ma'no xususiyatlari nutqda voqelanadi, aniq tus oladi. Har bir nutq ijodkori voqelikda kechayotgan hodisani o'zicha idrok etadi, uni ma'lum makon, zamon hududida tasavvur qilib, hosil bo'lgan mantiqiy tasavvurga lisoniy libos beradi.¹¹⁰

Nutqning vujudga kelish jarayoni ikki bosqichdan iborat ekanligi haqida dastlab Vygotskiy shunday degan edi: “Jonli nutqiy tafakkur dasturida harakat

¹¹⁰ Сафаров Ш. Прагмалингвистика. Т., 2008. Б. 168.

motivdan boshlanib, fikrdan fikr shakllanib ichki so'zga, keyin tashqi so'zga va nihoyat so'zlarga aylanadi".¹¹¹ Demyankov V.Z. matn yaratilish jarayoni ham ikki bosqichdan iborat ekanligini ta'kidlaydi. Matn tuzishni rejalashtirish (kontseptual mazmunni tartibga solish);matn generatsiyasi (tabiiy tilga transformatsiya qilish). SHu o'rinda bir narsani ta'kidlash zarur, bizningcha, Axutina taklif etgan chizma ruhan sog'lom odamlargagina mos keladi. Ruhiy xasta, mast, hatto uyqusirash holatida ham ichki nutq bo'lmaydi, har qanday ma'nodan holi tashqi nutq bo'ladi, xolos. Vygotskiy ta'rifidagi birinchi bosqich – motivlash, bir so'z aytishdan oldin fikrlash bosqichi ro'y bermaydi. Fikrimiz isboti sifatida barchaga yaxshi tanish bo'lgan badiiy matnlarga murojaat qilamiz:

Javobsiz muhabbatdan telba bo'lgan Zaynabning ushbu holatini kuzataylik: “Ko'laga yalingansimon unga yaqin yurib keldi...

- Kim bu?

- Men Kumush!..

Otabek tovush egasini tanidi. Bu majnuna Zaynab edi.

- Ket mundan!

- Men Kumush!.. – dedi yana Zaynab, ammo ketmay iloji qolmadi”.

Zaynab Otabekka shu qadar oshiq ediki, hatto majnunalik holida ham suyuqliki uchun Kumush bo'lishni istaydi. Go'yoki, **“Kumush”** so'zi javobsiz muhabbatining javobini topib beradigan, jondan ortiq ko'rgan insonining yuragiga yo'l ochib beradigan sehrli so'z edi. Go'yoki, ojiza ayolning baxtsizligiga sabab yolg'izgina **“Zaynab”** degan ismi edi. Zaynab cho'kayotgan odam cho'pga yopishganday, zaif ong osti sezgilari bilan so'nggi chorani qo'llamoqchi bo'ladi. Ammo anglanmagan bu harakat o'zini oqlamaydi. Atrofimizdagi insonlarning taqdiriga e'tibor berib qarasak, qandaydir og'ir ruhiy zarba tufayli aqldan ozganlar mana shu holga sabab bo'lgan ismlarni, holatlarni, joylarning nomini beixtiyor takrorlab yurishlariga guvoh bo'lamiz.

“Qurvonbibi bir nafas tinmasdan o'zicha so'zlanar, kim yoniga borsa, Zebini maqtab gapirar, uning dutor chalishi, ashula aytishi, chok tikishi,

¹¹¹ Вygотский Л. С. Избранные психологические исследования. М, 1956.

to'ppi bosishlarini hikoya qilar, yurish-turishlari, qaddi-qomati, bo'ylari, ko'zlari va qoshlarining chiroyliligini aytib, har kimdan “qani, mening Zebim? Qani, Zebonam?” deb so'rar: shundan so'ng ho'ngrak otib yig'lab yuborar edi”. Bu ikki holatda ham ichki dasturlash - fikr-motiv jarayonlari yo'q. Bunday affekt holatlar alohida tadqiqqa muhtoj.

“...Onajon, men unga xafa bo'lmayman. Menim yosh umrim, guldek yoshligim kechalari sarg'ayib o'tmasa edi! – dedi.


Xuddi shul choqda ochiq turgan eshikdan o'lgudek mast, tentraklanib Qodirjon kelib kirdi. Uni ko'rishlari bilan ikki alamzada birdan:

- Ana, keldi! – deb yubordilar.

Ularning bu jonli qarshi olishlariga javob o'rnida Qodirjon:

- Gde, gde moya Anna, gde moya Annushka ? – dedi va “gup” etib obrezga yiqildi”... Xaqimizda mastlik – rostlik degan ibora bor. Haqiqatan ham, ba'zan hushyorlik holatida yashirishga harakat qilingan fikrlar ong ostiga yashirilgan gaplar mastlik yoki gipnoz holatida tashqi nutq sifatida reallashadi. Bunday holatlarni tajribada ko'plab kuzatish mumkin. Yuqoridagi psixologik holatlardan xulosa chiqargan holda biz nutqning yaratilish jarayonini ikki xil variantda tavsiya etamiz. Birinchi variant ruhan sog'lom odamlarda nutqning paydo bo'lishini ifodalasa, ikkinchi variant psixologik muvozanat buzilgan – affekt holatlardagi nutqning paydo bo'lishini aks ettiradi.

Ichki nutq



Grammatik konstruksiyalar tanlash – loyihalash



Tashqi nutq



Affekt holatlarda ichki nutq bilan bog'liq jarayonlar amalga oshmaydi, shuning uchun bu holatga quyidagi sxema mos keladi.

Ichki nutq = 0

Tashqi nutq. Motor reallashuv.

Ba'zan, har ikki modelga ham mos kelmaydigan holatlarni uchratamiz. Affektiv holat o'ta kuchli bo'lganda, yoki kommunikantlardan biri muloqotni davom ettirishni istamaganda umuman nutqiy apparat harakatga kelmasligi mumkin. Bunday holatda paralingvistik vositalar kommunikativ vosita sifatida birinchi planga chiqadi. Bunday holatlarni professor A.Nurmonov kommunikatsiya kanalining funktsionallashuviga qarshilik deya izohlaydi. "Bu qarshilikning o'zi ikki xil: ichki va tashqi omillar bilan bog'liq bo'lishi mumkin. Masalan, kommunikatsiya ochiqlikda yuz berib, suhbatdoshlarning masofasi uzoq bo'lsa yoki masofa yaqin bo'lib, kuchli shovqin suhbatga halaqit bersa, qo'shimcha noverbal vositalarga – imo-ishora va mimikalarga ehtiyoj kuchayadi. Ichki sabablari esa so'zlovchi va tinglovchining sub'ektiv holatlari bilan bog'liqdir". Mana shunday ilmiy xulosalarga tayangan holda ushbu holatlar uchun ham nutqning yaratilish jarayoni modelini ikki xil variantda taklif etamiz. Sababki, kuchli ruhiy zo'riqish – stress holatida, miya faoliyatidagi ayrim o'zgarishlar bilan bog'liq xastaliklarda, ichki nutq va tashqi nutq nolga teng bo'lsa, so'zlashishni xohlamaslikda esa vaziyat butunlay boshqacha. Unda ichki nutq bilan bog'liq barcha jarayonlar amalga oshiriladi. Tashqi reallashuvga tayyor holatga keltiriladi, faqat so'zlovchining ongli ravishdagi istagiga ko'ra tashqi nutq reallashmaydi.

Ichki nutq



2. Tashqi nutq = 0

3. Paralingvistik vositalar

Imo-ishora, mimika, badan harakatlari kommunikatsiyada ishtirok etuvchi qo'shimcha vositalar sanaladi. Ular axborot uzatishga, uning mazmunini to'ldirishga xizmat qiladi. Bu ko'proq jonli nutqda namoyon bo'ladi va so'zlovchining fikrini qisqa, lo'nda, ta'sirchan ifodalash maqsadi bilan izohlanadi. Ma'lum axborotni tinglovchiga yetkazish jarayonida qo'l, bosh, yelka, gavda, yuz harakatlari, ovozning baland-pastligi, cho'ziq yoki qisqaligi ham ma'no ifodalaydi. Va aksincha, tinglovchining olayotgan informatsiyaga munosabati ham uning yuz ifodasidan ham sezilib turadiki, so'zlovchi shunga qarab keyingi jummalarni tuzishda tinglovchi bilan moslashishga harakat qiladi. Psixolingvistik tahlillarda paralingvistik vositalarga nutqning ta'sirchanligini oshiruvchi omil sifatida qaraladi. Kolshanskiy G.V. paralingvistik vositalar sub'ektning verbal kommunikatsiyasining chala tomonlarini to'ldiradigan kommunikativ podsystemaligini aytadi.⁹⁵ G.M.Nikolaeva B.A.Uspenskiy esa informatsiyada qatnashadigan barcha yordamchi vositalarni uch guruhga ajratadilar.

⁹⁵ Колшанский Г.В. Паралингвистика. М., 1974. с. 6.

1. Tabiiy nutqni kuzatib boruvchi noverbal vositalar.
2. Nutq ifodasi o'rnida qo'llaniladigan noverbal vositalar.

3. Verbal vositalar bilan birga ishlatilib aralash holatni hosil qiladigan noverbal vositalar. Birinchi tur paralingvistik holat, ikkinchisi til belgilari substitutsiyasi, uchinchi esa til va til bo'lmagan vositalar interferentsiyasi sifatida izohlanadi. Birinchi va uchinchi holatni kundalik hayotimizda ko'p kuzatamiz. Har ikkisida ham muloqot ham verbal, ham paralingvistik vositalar yordamida amalga oshsa-da, verbal vosita birinchi planga chiqadi va turli imo-ishoralar, mimikalar, xarakterizatorlar faqat nutqni kuzatib boradi. Psixolingvistik nuqtai nazardan aynan ikkinchi holatda insonning ruhiy holati yaqqol aks etadi. Paralingvistik vosita birinchi planga chiqadi. Muloqot asosan ko'z orqali amalga oshadi. Bunday axborot almashinuvining sifati kommunikantlarning bir-birining fe'l-atvori, ruhiyati, hayotini qay darajada yaxshi bilishlariga bog'liq bo'lib qoladi.

“CHorshanbiev ustoziga **ma'nodor qaradi**: ko'rdingizmi, yana changalzor – selvalarga og'ib ketyapti. Yaxshiboev **ko'zlarini bir yumib-ochdi**, demoqchi bo'ldiki, parvo qilma, buning o'zi koyot”.¹ Yaxshiboev o'zlarini dahlo deb biladigan yosh ijodkorlarning ichki dunyosini besh qo'lday bilib turgani uchun shogirdining nigohidagi ma'noni darhol sezdi va buni arimas narsa sifatida baholab, mensimaygina ko'z harakati bilan javob berdi. Ko'zlar –qalb oynasidir. Ruhiyatdagi evrilish qanchalik chuqur va dardli bo'lsa nigohlarning ta'sirchanligi, “so'zamolligi” shunchalik ortib boraveradi.

“Qaynota bilan kuyovning ko'zlari to'qnashdi.

-Bilib turib atay qildingiz-a? – dedi Elchinning ko'zlari. Bunchalik makkorligingizni hisobga olmagan ekanman. Bir qo'lingiz bilan boshimni silab, ikkinchisi bilan jonimni sug'urib olmoqchi bo'ldingiz-a?!

-Sen bola bundan battar azoblarga loyiqsan, – dedi Asadbekning ko'zlari. - Men umr bo'yi azob tortgin, deb seni o'limdan saqlab qoldim. Sen mening yuragimni tilib, tuz sepgansan. Bu yara o'lgunimcha meni azoblaydi. Sen ham o'lguningcha qaqshaysan. SHunda hisob-kitobimiz to'g'ri bo'ladi...”

¹ Мурод Мухаммад Дўст. Лолазор. Т., 1988. Б. 142.

Imo-ishoralar verbal vositani to'la kompensatsiya qilganda ham, verbal vositaning izi – artikulyatsiyasi seziladi. Bundan imo-ishoraning ma'lum nutq vaziyati taqozosi bilan fikr ifodalash vazifasida qo'llanilishi vaqtincha – fakultativ ekani ko'rinadi. SHuning uchun nutq birliklari vazifasida kela oladigan substitutiv xarakterdagi paralingvistik vositalarning vazifa doirasi cheklanganligini unutmaslik lozim. Muloqotda hatto sukut ham noverbal informatsiya vositasi sifatida ishtirok etadi va situativ, sotsial hamda psixologik faktorlarga bog'liq holda o'ziga xos kommunikativ mazmun ifodalaydi. Masalan, Sukut alomati – rizo. Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirib muloqot inson psixologiyasi va fiziologiyasi bilan chambarchas bog'liq hodisadir, har qanday nutq tafakkur bilan, tafakkur esa ruhiyat bilan bog'liqdir degan xulosaga keldik. Tanani ruh boshqarib turadi. Demak, ruhga ta'sir har qanday narsa nutqqa ham ta'sir etadi. Jumladan, paralingvistik muloqot ham inson ruhiy holati bilan uzviy bog'liq.

2. Yozma nutq yaratilishida psixolingvistik faktorlarning roli

Nutqiy tafakkur jarayoni ichki nutq va tashqi nutqdan iborat. SHundan kelib chiqib, yozma nutqning vujudga kelish modeli ham og'zaki nutqning hosil bo'lish modeli bilan o'xshash deb ayta olamiz. CHunki bunda ham semantik rejalashtirish bosqichi va verbal ifodalanish bosqichi mavjud. SHu bilan birga matn yaratilishining o'ziga xos xususiyatlari ham bor. Matnning rejalashtirish bosqichi ancha tartibli bo'ladi, Og'zaki ifodada ichki nutq bosqichi tushib qolsa, matnning yaratilishida esa aksincha bo'ladi. Nutqiy ifoda ba'zi sodda noverbal vaziyatlarni o'z ichiga olsa, matnning yaratilishida bu kengroq planda namoyon bo'ladi. Matn yaratilishining asosi real vaziyatlardan tashqarida bo'lishi, mualliflarning matn ortidagi vaziyatlarga turlicha munosabatini aks ettirishi mumkin. Badiiy matn til yordamida borliqni aks ettiradi. “Badiiy matn borliqni va harakatlanuvchi, fikrlovchi, his qiluvchi insonni uni o'rab turgan muhiti bilan birga tasvirlaydi”.¹¹² A.A.Potebnya masalni tahlil qila turib, masalning kundalik turmush

¹¹² Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. М., 1971. С. 33.

munosabatlarini, odamning fe'l-atvori, inson ma'naviy hayotining barcha jabhalarini qamrab olishiga e'tibor bergan edi. Bu fikr barcha badiiy asarlarga tegishlidir. Insonning ichki dunyosi, uning borliqqa munosabatini, kishilarning o'zaro munosabatlarini to'laqonli aks ettirish badiiy matnning ustuvor vazifasidir. Insonning borliqqa munosabati modelini til vositalari yordamida ifodalanishi har bir matn uchun xosdir.¹¹³ Matn tahlili bilan bog'liq psixolingvistik tadqiqotlarda Vygotskiyning fonetikada, morfologiyada, leksika va semantikada, hatto ritmika, vazn va musiqada-grammatik va shakliy kategoriyalar ortida psixologik omillar yashiringanligi haqidagi fikri tayanch nuqta bo'lib xizmat qiladi.¹¹⁴ Muallif matnni yaratarkan o'z dunyoqarashiga mos keladigan hayotiy hodisalarni tanlab oladi. Matnning psixolingvistik tahlili ustida samarali izlanishlar olib borgan V.P.Belyanin matnlarni unda ifodalangan emotsiya turlariga ko'ra olti guruhga ajratadi: yorug' matnlar, qorong'i matnlar, qayg'uli matnlar, quvnoq matnlar, chiroyli matnlar, murakkab matnlar. Psixolingvist psixolog sifatida personajlarning ruhiy holatlarini tahlil qilish bilan birgalikda, ana shu holatni yuzaga keltirgan lingvistik faktorlarga asosiy e'tibor qaratishi lozim bo'ladi. Murakkab olam manzarasini ixcham matnga joylashtirishning eng samarali usuli modellashtirishdir. Modellashtirish metodi masal janrida yaqqol namoyon bo'ladi. Fikrimizning isboti sifatida Ezop, Krilov, Gulxaniyning mashhur masallarini eslash kifoya. To'qima, haqiqatga zid bo'lmagan holatlar muallif tomonidan o'z fikrini, qarashlarini tasdiqlash va tushuntirish maqsadida modellashtiriladi. SHu o'rinda A.Oripovning mashhur "Tilla baliqcha" she'ri yodga keladi:

Tuxumdan chiqdi-yu keltirib uni
SHu loyqa hovuzga tomon otdilar.
Tashlandiq ushoq yeb o'tadi kuni,
Xoru xas, xazonlar ustin yoptilar.
Dunyoda ko'rgani shu tor hovuzcha
Va mudroq tollarning achchiq xazoni.

¹¹³ Степанов Г.В. Цельность художественного образа и лингвистическое единство текста. М., 1974.

¹¹⁴ Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. М., 1976; Белянин В.П. Художественный текст и психология личности. М., 1985; Беляев А.И. Мотивы чтения и критерии оценок произведений художественной литературы и различных категорий читателей. Л., 1971.

Manga alam qilar, tilla baliqcha

Bir ko'lmak hovuz deb bilar dunyoni...¹¹⁵

Turg'unlik psixologiyasi, tor doirada fikrlash, oyoq ostidan narini ko'rolmaslik, kundalik tashvishlarga o'ralashib, umuminsoniy, asriy qadriyatlardan uzilish, vatanparvarlik, el-yurt ravnaqi uchun kurash kabi ulug' maqsadlardan uzoqlashish haqida soatlab gapirish yoki bir necha kitob yozish yoki shoirdek bu ulkan muammoni sakkiz qator she'rga jo qilish mumkin. Diqqatni jalb etadigan jihati shundaki, ayni holatni ifodalash uchun tanlangan syujet, janr, kompozitsiyaning badiiy ta'sirini yuqoridagilarning hech biri bosa olmas edi. Bu asar vijdoni uyg'oq har bir o'zbekning eng nozik tuyg'ularini junbushga keltira olgan, o'ylashga fikrlashga majbur qilaolgan edi. Produtsient A.Oripov o'z oldiga qo'ygan maqsadiga to'la erishdi. Keng kitobxon ommasi bilan moslashib, ularning xayolidagi ichki nutq sifatida yashirinib turgan fikrlariga mos keladigan shaklni topib reallashtirdi, ya'ni tashqi nutqqa aylantirdi. SHu sababli o'quvchilar – retsipientlar matnni yaxshi qabul qildilar. Bir voqea bir necha kishi tomonidan so'zlab berilganda ham bir voqeaning turli bayoni hosil bo'ladi. Natijada bir-biriga o'xshamagan matnlar yaratiladi. Demak, matnlar rang-barangligi muallifning borliqning turli sohalariga murojaat qilganligi uchungina emas, ayni holatga insonlarning turlicha yondashishidan ham kelib chiqadi. Matn yaratilishida sub'ektiv omilning roli katta. Zvegintsev fikricha, “muallifning dunyoqarashi til vositasida ifodalanadi va har qanday voqelikning tasviri asosida yaratuvchisining shaxsiy dunyoqarashi yotadi”.¹¹⁶ SHklovskiy bu fikrni quyidagicha talqin etadi: “SHoiralar o'z asarlariga poema, qasida, parodiya yoki oddiy she'r deb nom beradilar va bu bilan qabul qilish jarayonini yengillashtiradilar. Lekin ular fikrlar oqimi qay tomonga ketishini, qanday obrazlar yaratilishini hech qachon bilmaydilar”. SHoir va yozuvchilarning tutqich bermas xayollarga asir bo'lishlari va nimani, qanday, qachon yoza olasiz degan savol hamisha ochiq qolishi turli tadqiqotchilar tomonidan psixologik nuqtai nazardan turlicha baholangan.

¹¹⁵ Орипов А. Йиллар армони. Т., 1984. Б. 98.

¹¹⁶ Звегинцев В.А. Предложение и его отношение к языку и речи. М., 1976. С.. 20.

Ko'pchilik olimlarning va ijodkorlarning fikri ijod ijodkorning ixtiyoridan tashqari bo'lgan hodisa degan nuqtai nazarda to'qnashadi. Tilimizda shu holatni ifodalaydigan chiroyli so'z bor – Ilhom. “His, ichki dard kishining qalbini toshirib yuboradi. Bunday vaqtda kishi o'zini qaerga qo'yishini bilmaydi. O'zining dardiga boshqalarni sherik qilish, yuragini bo'shatish, kishiga azob berish darajasiga yetadi. SHu vaqtda qo'l qalamga boradi. Kishining ko'ziga hech narsa ko'rinmaydi. Yozish uchun hech narsa xalal bermaydi. Fikr to'kila boradi. Yozib ulgurib bo'lmaydi”. Biz ham ushbu fikrlarga qo'shilgan holda ijod tug'ma iste'dod, yuksak tuyg'ular mevasi ekanligini ta'kidlaymiz. Unda hamisha ezgulik, yorug'lik g'alaba qila- di. SHuning uchun ijod hamma narsani mag'lub qilgan vaqtdan ham g'olibdir. “Betakror nutqiy vaziyat va betakror ruhiy holatda aytilgan gapning o'zi ham tom ma'noda betakrordir. Aytilgan fikrlar ijod onlari, san'atkorning ijod onlaridagi ma'naviy-ruhiy holati adabiy asarga ham birdek taalluqli”. Abdulhamid CHO'lpon bu holatni produtsient sifatida yorqinroq ifodalagan:

“... xayolimning ko'zlari bilan,
Bir go'zal holatni ko'rib turaman;
Lazzatga g'arq bo'lib, o'lib turaman.
U holni borliqning so'zlari bilan –
Anglatish, qo'limdan kelmay qoladir.
SHu choqda tillarim qaldirab ketib,
Borlig'im – yo'qlikka g'aldirab ketib
Deymanki: “Boshqalar bilmay qoladir” –
SHunday go'zallikni! Attang, agar men
Rassom bo'lsam edi, chizib berardim,
O'xshash nusxa bilan, yozib berardim,
SHu ojiz holimda, shoirmanmi men?..

“Yozuvchi olamining mohiyati irsiyat, milliylik va ijodkorning shaxs sifatidagi o'ziga xos psixologiyasi bilan uzviy bog'liqligi aniq”.¹¹⁷ SHuning uchun ham asarda ijodkorning didi, ta'bi, dunyoqarashi yoki ayni asar yaratilayotgan paytdagi ruhiyati aks etadi.¹¹⁸ “Poeziya... sub'ektivlik saltanati. Bunda shoirning **shaxsiyati** birinchi o'rinda turadi, biz hamma narsani faqat u orqaligina qabul qilamiz va anglaymiz. ”¹¹⁹ Ijodkorning shaxs sifatidagi o'ziga xosligi nutqiy faoliyatda yaqqol namoyon bo'ladi. Bunda ijodkorning psixologik quroli so'zdir va u orqali shaxsning intellektual faolligi, anglash, xotira va tafakkur kabi psixologik funktsiyalari yuzaga chiqadi. “Badiiy matnda muallif shaxsi ko'p qirrali va turli darajada – tilda, syujetda, mavzuda, g'oyada namoyon bo'ladi”.¹²⁰

Mavzu tanlashda produtsientning (yozuvchi, shoir, dramaturg) roli katta, ya'ni har bir ijodkorning uzoq yillar davomida xayolida yetilayotgan mavzulari bo'ladi. A. Qahhor bu jarayonni yozishga majbur qiladigan holat sifatida baholaydi va bu hol ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish asosida yuzaga kelishini ta'kidlaydi.¹²¹ “Ijtimoiy hodisalarni tahlil qilish, uning yaxshi-yomon ekanini bilish uchun yozuvchining saviyasi **juda-juda** baland bo'lishi kerak”¹²² ligini uqtiradi.

Produtsient individualligi badiiy matnda tasvirlanayotgan muammoda va g'oyada ham namoyon bo'ladi. Borliqdagi har qanday hodisa san'at sohasida tasvirlandimi tamom, u nafaqat borliqdagi ma'nosiga, balki ijodkor ichki dunyosining belgisiga ham aylanadi.¹²³ SHuning uchun har qanday badiiy matnga, u qaysi millatga, qaysi adabiy-badiiy an'analarga, qaysi madaniyatga mansubligidan qat'iy nazar muallif dunyoqarashi muhrlanadi.

Asarning g'oyaviy-tematik mohiyati, muallif yaratgan xarakterlar asosida aniqlanadi (konkretlashadi). Ya'ni asar qahramonlarining yurish-turishi, ruhiy kechinmalari, asar g'oyasining aniq va ishonchli ifodalanishiga xizmat qiladi. Yozuvchi ijod jarayonida o'zining ichki kechinmalariga asoslanmay iloji yo'q.

¹¹⁷ Дмитриук Н.В. Национально-культурная специфика вербальных ассоциаций: Автореф. канд. дисс. М, 1985.

¹¹⁸ Ингарден Р. Исследования по эстетике. М., 1962. С. 242.

¹¹⁹ Белинский Л.И. Танланган асарлар. Т., “Ўзбекистон” 1995. Б. 134.

¹²⁰ Тимофеев Л.И. Основы теории литературы. М., 1971, С. 406-407.

¹²¹ Куронов Д. Мутолаа ва идрок машқлари. Т., 2013. Б. 28.

¹²² Қаҳҳор А. Асарлар. Т., 1989,5-жилд. Б. 66.

¹²³ Чит. по, Белянин В.П. Психологические аспекты художественного текста. М., 1988. С. 20.

Asar qahramonining xarakterini, shaxsini ochishda ixtiyoriy yoki beixtiyor o'z his-tuyg'u istak va talablarini tasvirlaydi. Boshqacha aytganda, muallif matndagi ijobiy qahramonga o'ziga yaqin va tushunarli bo'lgan sifatlar beradi, personajlarning hayoti, harakatlari ham muallif nazarida to'g'ri, ayni haqiqat deb tan olingan yo'nalish bo'yicha amalga oshadi. Masalan, Abdulla Qodiriy o'z qahramonlariga quyidagicha ta'rif beradi:

Otabek: **“...og'ir tabiatli, ulug' gavgdali, ko'rkam va oq yuzli, kelishgan qora ko'zli, mutanosib qora qoshli va endigina murti sabz urgan bir yigit”**. E'tiborni tortadigan jihati shundaki, salbiy personajlar ijobiy qahramon xislatlariga zid bo'lgan, muallif yoqtirmaydigan xarakter ga ega odam qiyofasida tasvirlanadi. Yozuvchi ruhiyatidan kelib chiqadigan bo'lsak Homid obrazining quyidagicha tasvirlanishi o'rinli: **“...uzun bo'yli, qora, cho'tir yuzli, chog'ir ko'zli, chuvoq soqol, o'ttiz besh yoshlarda bo'lgan ko'rimsiz kishi edi”** yoki Sodiq: **“...yigirma ikki yshlar chamasida bo'lgan bu yigit sariq tanli, ukkinig ko'zidek chaqchayib o'ynab va yonib turgan qizil ko'zli, yuziga parchinlangandek yuza (puchuq) burunli, manglayi qanchalik tashqariga o'sib chiqqan bo'lsa yuzi o'shancha ichkariga ketgan, qisqasi vaqtsizroq yaratilib qolgan bir mahluq edi”**.¹²⁴

Ammo ijobiy yoki salbiy personajning tasviriga ko'ragina muallifning dunyoqarashi aynan shunday deya xulosa chiqarishga shoshilmaslik lozim. Badiiy asar qancha hajmga ega bo'lishidan qat'iy nazar turfa olam, murakkab hayotning bir bo'lagini aks ettiradi. “O'zini-o'zi tanishtiradigan” bunday obrazlarning retsipient tomonidan qabul qilinishi oson, ularga nisbatan simatiya yoki antipatiya portret ta'siridayoq hosil bo'ladi va voqealar rivoji davomida bu munosabat mustahkamlanadi. Demak, produtsient shu yo'l bilan ham retsipientga yengillik yaratib, matnning qabul qilinishiga qaysidir darajada yordam beradi. Ba'zi asarlarda esa mutlaqo boshqacha yondashuvni ko'ramiz. Ya'ni yozuvchi qahramonining botiniy go'zalligini bo'rttirib ko'rsatish maqsadida ataylab tashqi ko'rinishini ko'rimsiz, oddiy, hatto, jismoniy kamchilikka ega odam sifatida

¹²⁴ Абдулла Қодирий. Ўтган кунлар. Т., 1974. Б. 177.

tasvirlaydi. O'quvchi ma'lum nuqtagacha bunday obrazni yo yaxshi, yo yomon deya baholay olmaydi. Bunday qahramonlar o'zlarining yuksak insoniy fazilatlari, odamiyligi va samimiyligi bilan kitobxon mehrini qozonadilar. Ularning portretini har bir retsipient o'z dunyoqarashiga ko'ra o'zi mustaqil yaratadi va bu kabi obrazlar ular uchun qadrli bo'lib qoladi. "Ufq" romanidagi ko'rimsiz, tortinchoq Nizomjonni, "Avlodlar dovoni"dagi Nizomni, "Ming bir jon" dagi hayotsevar Masturani bir eslang-a. Esladingizmi?! Endi ularning tashqi qiyofasini tasvirlab bering-chi?! Ha, qiynalyapsiz, chunki sizning ongingizda Halol, Mard, Pok, Iymonli. Mehnatkash inson kontseptlari asosi da o'zingiz har gal yangitdan chizadigan portretlar galereyasi bor. (Sababi, vaqt o'tishi bilan insonning dunyoqarashi, saviyasi, voqea-hodisalarga munosabati o'zgarib turadi)

Yozuvchilarning o'ziga xosligini yaqqol ko'rsatib turadigan narsa bu uning tilidir. Badiiy matn tilining o'ziga xosligi personajlarning ruhiy kechinmalari, iztirobu shodliklari, ko'rgan kechirganlari, intim tuyg'ularining qay tarzda aks ettirishda ko'rinadi. Badiiy adabiyot tilida o'sha asar yaratuvchisining o'ziga xos individual xususiyatlari ko'rinar ekan, yozuvchining uslubi ikki muhim nuqtada idrok etish uslubi va ifoda etish uslubida namoyon bo'ladi. "...yozuvchining dunyoqarashi, o'y fikri, uning tushunish darajasi, yangilik –ixtirosi uning asarlarida badiiy til orqali yuzaga keladi". "Til har bir yozuvchining o'ziga xos stilini ta'min etuvchi asosiy omillardan biri bo'lib, san'atkor qalamiga xos bo'lgan individual tomonlar boshqa ko'p badiiy faktorlarga nisbatan tilda ko'proq namoyon bo'ladi"....**buni qarang-a, bizning uyimizga o'g'ri kepti. Bizni ham odam deb yo'qlaydigan kishilar bor ekan-da dunyoda? Ertaga o'rtoqlarimga toza maqtanadigan bo'ldim-da: "Bizning uyga o'g'ri keldi". G'urur bilan aytilsa bo'ladi. Lekin ishonisharmikin?**

Kampir tong qorong'usida xamir qilgani turib ho'kizidan xabar oldi. O! Ho'kiz yo'q, og'il ko'cha tomondan teshilgan... Dexqonning uyi kuysa kuysin, ho'kizi yo'qolmasin. Bir qop somon, o'n-o'n beshta xoda, bir arava

qamish – uy, ho’kiz topish uchun necha zamonlar qozonni suvga tashlab qo’yish kerak bo’ladi.¹²⁵

Suv qalqisa, loyqasi yuqoriga chiqqanday, zamon qalqigandan buyon yomon ko’paydi. Erta bahorda ularning tug’ay deb turgan sigirini o’g’irlab ketishdi. O’sha kecha SHoikrom tungi smenada edi. Kechasi bilan sharros jala quyib chiqdi. SHoikrom tong saharda bir nimani sezganday ko’ngli g’ash tortib, uyiga qaytdi. Kelsa xotini, onasi, bolalari dod solib o’tirishibdi.¹²⁶

Uch mashhur asarlardan olingan parchalar ustida o’tkazilgan ixcham tadqiqotlarimiz ham produtsientning matnga, matnning retsipientga, produtsientning mashhurligi, insoniy fazilatlarining bevosita retsipientga ta’siri va mana shu ta’sir natijasida matnga munosabatning shakllanishiga olib kelishini isbotladi. Tajriba jarayonida milliy guruhlar hech bir xatosiz yuqoridagi parchalar qaysi muallifga tegishli ekanligini topdilar. Ushbu matnlar ularga maktab programmasidan tanish. SHuning uchun ularda eslash orqali aniqlash oson bo’lganini nazarda tutib, rus guruhlarida ham sinab ko’rdik. Avval G’.G’ulom, A.Qahhor, O’.Hoshimov ijodi. ularning o’ziga xos qirralari haqida qisqacha ma’lumot berdik. So’ng yuqoridagi matnlarni raqamlab, qaysi matn qaysi yozuvchiga tegishli ekanligini topishlarini so’radik. Natija biz kutgandek. Milliy guruhlardagi kabi yuz foiz emas 60% dan 80% gacha to’g’ri topilgan. SHu jarayonda yana bir fikr tug’ildi. Rus guruhlariga noto’g’ri yo’nalish bersak-chi, ya’ni G’.G’ulomning yumorga boy sodda tilini O’.Hoshimovga, A.Qahhorning ixcham, keskirligini G’.G’ulomga, O’.Hoshimovninig keng, mulohazakorligini A.Qahhorga nisbat bersak retsipientlar biz ko’rsatgan yo’nalish bo’yicha ketadilarmi? Ha, xuddi shunday bo’ldi. Ular biz bergan yolg’on informatsiyaga aldanishdi. O’z-o’zidan natijalar ham biz yo’naltirgan yo’nalish bo’yicha ketdi. SHu o’rinda yana bir fikr tug’ildi. Demak, yolg’on axborotlar bilan retsipientlarning fikriga ta’sir ko’rsatish mumkin ekan. SHuning uchun ommaviy axborot vositalari bunday holatga zinhor yo’l qo’ymasliklari lozim. Ularning

¹²⁵ А.Қаҳҳор. Асарлар. 5 жилдлик. 1-ж. Т., 1987. Б. 291.

¹²⁶ Ў.Ҳошимов. Ўзбек адабиёти дарслик- мажмуа. 6-синф. Т., 1997. Б. 209.

auditoriyasi juda katta, ozgina xatolik ham shov-shuvga, tushunmovchilikka olib keladi.

Badiiy matn tili uning mavzusi, muammosi, g'oyasi bilan uzviy bog'liq, mavzuning tanlanishi bevosita asar tilini ham belgilashi tabiiy hol.¹²⁷ Mavzu sintaktik konstruktsiyalarni tanlashda ham alohida ahamiyatga ega. Oybek mutafakkir shoir, davlat arbobi, komil inson Alisher Navoiy obrazi, saroy muhiti va urf-odatlarini, o'sha davr ruhi va Navoiy mansub bo'lgan ijtimoiy tabaqaning nutqini to'laqonli yoritish uchun uzundan uzoq qo'shma gaplardan, ravishdosh, sifatdosh oborotlardan, dabdabali, hashamatli so'z va iboralardan unumli foydalanadi.

“Bahor quyoshi ko'kning tiniq feruzasida Hirotning “Gavharshod” madrasasining haybatli gumbazi ustida porlar, gumbazning azamat pashtoqlarining naqshlari shu'lalarda jonli, havoii bir chamanzor kabi turli – tuman olov ranglar chaqnatar, kabutarlar dam uchib, dam sirpanib qo'nib, gumbaz tevaragida quvunch bilan inoq o'ynashar edi”¹²⁸

“Bolalik” asarida esa mutlaqo boshqacha sintaktik qurilmani ko'ramiz. Ixcham, sodda, ravon. **“Men chollarning atrofida aylanaman. Dam bobomning, dam o'rtog'ining gavronday uzun hassasini “ot” qilib minaman, tuproqda hassalar chizgan izga qiziqib qarayman. Keyin bu quruq tayyoqlarni taraqlatib uloqtiraman. Bobom o'siq qoshlari tagida yashiringan ko'zlarini yolg'ondaka olaytirib, ko'rsatkich barmog'i bilan po'pisa qiladi, men hassalarni tixirlik bilan egalariga qaytaraman”.**¹²⁹

Produtsientning dunyoqarashi, o'ziga xosligi asar uslubini belgilaydi. “...tilda badiiylikka xizmat qiluvchi vositalar qanchalik ajralib, ma'lum bo'lib turgan bo'lsa ham har bir ijodkor ularni tanlashda o'ziga xos yo'ldan boradi. SHu orqali faqatgina g'oyaviy pishiq, badiiy mukammal, kitobxonga estetik zavq beradigan asarlar namunasini yaratibgina qolmasdan til vositalaridan foydalanishda o'ziga xos mahoratini ham namoyish qilishi va shu bilan badiiy uslub kamolotiga

¹²⁷ Долинин К.А. Интерпретация текста. М., 1985. С. 221.

¹²⁸ Ойбек. Навоий. Т., 1985. 3-б.

¹²⁹ Ойбек. Болалик. Т., 2002. 3-б.

o'z hissasini qo'shishi tabiiydir".¹³⁰ Yozuvchi hayotni o'rganish, odamlarni kuzatish, asarga material to'plash jarayonida paydo bo'lgan g'oyaviy maqsadini o'z dunyoqarashi doirasida takomillashtiradi. Asarni yozish davomida esa o'z tafakkurida jamlangan voqea –hodisalardan eng zarurlarini tanlab, saralab oladi va ularni o'ziga xos tarzda ifodalaydi. SHu tarzda nimalarni ifodalashi va qay tarzda ifodalashiga ko'ra yozuvchi uslubi yuzaga chiqadi. O'ziga xos uslubga ega bo'lish hayotga boshqacha nigoh tashlash, uni turli rakurslardan kuzatish va to'g'ri xulosalar chiqarish qobiliyati sifatida namoyon bo'ladi.

7-mavzu. Nutq yaratilishining psixolingvistik talqini

Nutq yaratilishi hodisasi til ilmi bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar uchun hamma vaqt birdek dolzarb masala bo'lib hisoblangan. Bugungi kunda ushbu masalaga bag'ishlangan ko'plab tadqiqotlar yuzaga kelgan.

Hech bir istisnosiz aytish mumkinki, nutq yaratilishi nazariyasining alohida yo'nalish sifatida shakllanishi omillari til va nutq hodisalarining ajratilishiga borib taqaladi. F.de Sossyur tomonidan til va nutqning farqlanishi psixolingvistik tadqiqotlarda “nutqiy faoliyat” tushunchasining yanada aniqroq bo'lishiga o'z ta'sirini ko'rsatdi. A.A.Leontev fikriga ko'ra, F.de Sossyur nutqiy faoliyatni til va lisoniy qobiliyatning birligi sifatida tushuntirgan. L.V.SHcherba esa nutqiy faoliyatni so'zlash va tushunish jarayonlarining umumlashmasi deb hisoblagan¹³¹. Ye.S.Kubryakovaning ta'kidlashicha, aynan L.V.SHcherba til hodisalariga oid bo'lgan nutq, uning real asosi hamda nutqiy jarayon mahsulini ajratib ko'rsatgan¹³².

A.A.Leontev esa nutqiy faoliyatni “nutqiy jumlalarining nutqiy bo'lmagan sub'ektiv kodlar orqali dasturlashtirilishi” sifatida baholaydi¹³³. Ye.S.Kubryakova esa *nutqiy faoliyat* termini ostida nutq yaratilishi va uning qabul qilinishiga oid barcha hodisalarni tushunish kerakligini ta'kidlaydi¹³⁴.

¹³⁰ Каримов С. А. Ўзбек тилининг бадиий услуби. Филол. фанлари доктори... дисс. Т., 1993. Б. 59.

¹³¹ Основы теории речевой деятельности. – М.: Наука, 1974. – С. 64.

¹³² Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – М.: Наука, 1986. – С.9.

¹³³ Леонтьев А.А. Речевая деятельность // Основы теории речевой деятельности. – М.: Наука, 1974. – С.25.

¹³⁴ Кубрякова Е.С. Номинативный аспект речевой деятельности. – М.: Наука, 1986. – Б. 9.

Nutqiy faoliyatga berilgan ta'riflardan ko'rinadiki, u ba'zan statik hodisa (masalan, matn), ba'zan esa harakatdagi hodisa sifatida (masalan, so'zlash va eshitish) talqin qilinadi. Nutqiy faoliyatga berilgan mazkur ilmiy ta'riflar bir-biridan turli jihatlariga ko'ra farq qilsa-da, ularning barchasida ikki omil, ya'ni so'zlovchi va tinglovchi faoliyati nazarda tutilganligini ko'rish mumkin¹³⁵. Bu esa nutqiy faoliyat eng avvalo antropotsentrik xarakter kasb etuvchi faoliyat ekanligini bildiradi.

Nutq yaratilishi haqidagi nazariyada til va tafakkur munosabati o'ta dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Nutq yaratilishi jarayonining tafakkur bilan aloqasi psixolingvistikada "nutq yaratilishi modeli" deb nomlanuvchi sxemalarda aks ettirildi. Bunday modellarning deyarli barchasida L.S.Vigotskiy tomonidan ilgari surilgan "Fikrdan – ma'noga, ma'nodan – so'zga" tarzidagi g'oya o'z aksini topdi.

L.S.Vigotskiy fikriga ko'ra, fikr nutqqa aylanguncha bir necha bosqichlarni o'tishi lozim. Olimning "ichki so'z" haqidagi g'oyasi botiniy nutq to'g'risidagi fikrlarning rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatdi. Ichki so'z – botiniy nutqda paydo bo'luvchi, inson ongidagi obrazlar, assotsiatsiyalarning ramziy ko'rinishi. Aynan u botiniy nutqning tashqi, tabiiy nutqqa aylanishida vosita bo'la oladi. Olim botiniy nutqdagi fikrning so'zga aylanish jarayonini "tafakkur grammatikasining so'z grammatikasiga aylanishi" sifatida izohlaydi. L.S.Vigotskiy tomonidan nutqiy faoliyatning "fikr – ma'no – so'z" shaklidagi jarayon sifatida talqin etilishi keyinchalik rus tilshunoslari tomonidan rivojlantirildi va psixolingvistik tadqiqotlardan mustahkam o'rin oldi.

O'tgan asrning 60-yillarida N.A.Jinkin tomonidan yaratilgan universal-predmet kodlari haqidagi nazariya o'z mohiyatiga ko'ra L.S.Vigotskiy g'oyasiga yaqin turadi. Olimning fikriga ko'ra, inson ongida hali tashqi nutqqa aylanmagan fikrlar universal-predmet kodlaridan iborat. Bu kodlar barcha millat kishilari uchun birdek ahamiyatga ega bo'lib, uni barcha tillarga tarjima qilish mumkin. Boshqacha aytganda, noverbal bosqichdagi tafakkur milliy xarakter kasb etmaydi,

¹³⁵ Кубрякова Е.С. Курсатилган асар. – Б. 25.

u tashqi nutqqa aylangandagina milliy “libos” kiyishi mumkin. N.I.Jinkinining mazkur fikri nutq yaratilishi jarayonining ichki – noverbal bosqichi (Vigotskiy va Luriyada bu bosqichlar verbal shaklda deb hisoblanadi) haqidagi yangi g’oyalarning paydo bo’lishiga o’z ta’sirini ko’rsatdi. Olimning universal-predmet kodlari haqidagi nazariyasini N.I.Gorelov o’z tajribalari bilan isbotlashga harakat qildi.

N.I.Jinkinining universal-predmet kodlarini har qanday tilga tarjima qilish mumkinligi haqidagi fikrlariga qo’shilgan holda shuni aytish joizki, ayrim hollarda predmetning ongdagi obrazi milliy assotsiatsiyalarni ham ifodalashi mumkin. Masalan, *paxta* so’zini boshqa tillarga tarjima qilish mumkin. Bu so’zning muqobili bo’lmagan tilda esa mazkur tushunchani so’z birikmasi orqali ifodalasa bo’ladi. Lekin *paxta* haqida boshqa millat vakili ongida paydo bo’lgan assotsiatsiyalar bilan o’zbek millatiga mansub kishining ongidagi assotsiatsiyalar o’rtasida muayyan farqlar bo’lishi tabiiy. Bu borada “Kognitiv tilshunoslik” kitobining muallifi SH.Safarovning quyidagi fikrlarini keltirish joiz deb bilamiz: “Menimcha, P.Dasenning tafakkur faoliyatining ayrim jarayonlari umumiy (universal) bo’lishi bilan bir qatorda, bu jarayonlarning boshqa qismi esa individual va milliylik xususiyatiga ega, degan xulosasiga (Dasen 1977:155) ergashgan ma’qulroq. Buning isbotini kognitiv stereotiplar va modellarning madaniyatlararo farqida ko’rishimiz mumkin. Kognitiv stereotiplar, modellar (freym, skript, stsenariy, geshtalt va hokazo) inson tarbiya topgan madaniy muhit bilan bog’liq, zero, kognitiv birliklar madaniyatda mavjud bo’lgan voqelik idroki asosida shakllanadi”¹³⁶.

Nutqiy tafakkurga oid qarashlar ichida Yu.N.Karaulovning oraliq til haqidagi fikrlari o’ziga xosdir. Uning ta’kidlashicha, “oraliq til biologik, fizik-kimyoviy tabiatga ega bo’lgan miya tili (ya’ni neyronlar tili) va insonning tili o’rtasidagi vositachi” dir¹³⁷.

¹³⁶ Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 72.

¹³⁷ Кўчирма қуйидаги китобдан олинди: Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Жиззах: Сангзор, 2006. – Б. 28-31.

Nutq yaratilishi jarayoni talqinida yana bir masala – til va tafakkurning aynan yoki alohida hodisalar ekanligi bahsli masalalardan biri bo'lib kelmoqda. Ayrim psixolog va tilshunoslar bu borada birinchi fikrni yoqlasalar, ayrimlari bu fikrga qarshi chiqadilar¹³⁸.

Eng so'nggi qarashlarga ko'ra, "til va tafakkur o'zaro ajralmas va chambarchas bog'liq hodisalardir. Lekin ularning ikkovi bir narsa emas. Til tafakkurning ifoda shakli va yashash formasi sifatida inson ongining shakllanishida ham muhim o'rin tutadi. Til qobig'idan tashqarida ongning qaror topishi mumkin emas. ... Abstrakt tafakkur til tufayligina voqe bo'ladi. Tilning mavjudligi tafakkurning umumlashtiruvchi faoliyatining eng zaruriy shartidir. Tilsiz bu hol mavjud bo'lmas edi. Chunki so'z umumlashtiruvchi xususiyatga ega. Til o'ziga xos qonuniyatlarga ega va bu qonuniyatlar tafakkur qonuniyatlaridan farq qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tilning mustaqil hodisa ekanligini ko'rsatadi"¹³⁹.

E.S.Kubryakova lisoniy tafakkur haqida fikr yuritar ekan, quyidagi muammoni o'rta tashlaydi: odam avval o'ylab, keyin gapiradimi yoki bu ikki faoliyat bir vaqtning o'zida amalga oshadimi? Olimaning fikricha, ayrim holatlarda odam o'z nutqini o'ylab, keyin tuzadi (masalan, maqola yozganda). Ayrim hollarda esa fikrlash va so'zlash jarayoni ayni bir vaqtning o'zida amal qiladi (masalan, suhbat chog'ida). E.S.Kubryakovaning ushbu fikrini she'riy nutq yaratilish jarayoni ham isbotlaydi. Ma'lumki, ko'p hollarda she'r misralari birdaniga, shiddat bilan qog'ozga tushadi. Usmon Nosirning "*Tilim charchar, ajab, gohi Seni tarjima qilmoqdan*" satrlarida bu holat juda aniq ifodalangan. SHoir o'z fikrlarini tashqi nutqqa "tarjima qilar" ekan, bizningcha, unda tafakkur va nutq jarayonlari bir vaqtning o'zida amal qiladi.

E.S.Kubryakovaning psixolingvistikadagi yana bir xizmati shundan iboratki, u ichki nutq yaratilishi mexanizmida nominatsiya jarayoniga ham amal qilinishi haqidagi qarashni rivojlantirdi. Uning ta'kidlashicha, fikrning shakllanishi va lisoniy tus olishi jarayonlarida miya tili tashqi tilga ikki kanal – nominativ va

¹³⁸ Сафаров Ш. Кўрсатилган китоб. – Б. 26.

¹³⁹ Фалсафа. Қомусий луғат. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 400.

sintaktik kanallar orqali o'tadi. Nominativ kanal nomlash vazifasini bajarsa, sintaktik kanal nutqning grammatik-shakliyl tuzilishini belgilaydi.

Ko'rinadiki, nutq yaratilishi jarayoniga oid fikrlar xilma-xil va yechilishi lozim bo'lgan muammolar hali yetarli. Bundan 30 yilcha avval A.N.Kolmogorovning "Nutqiy faoliyat nazariyasi asoslari" nomli fundamental asarida epigraf qilib keltirilgan quyidagi gapi, bizningcha, hali ham o'z dolzarbligini saqlab turibdi: "Nutq oqimini uning yaratilishi mexanizmi haqidagi farazsiz o'rganish nafaqat samarasiz, balki qiziqarsiz hamdir". Buni nutq yaratilishi nazariyasida yangi paydo bo'lgan yo'nalish – kognitiv tilshunoslik tomonidan qo'yilayotgan muammolar ham isbotlamoqda.

8-mavzu. Nutq idroki (matnni tushunish)

Tilshunoslikda murakkab hodisalardan biri hisoblangan nutq yaratilishi jarayoniga nisbatan turlicha yondashuvlar mavjud. Ulardan biri nutq yaratilishini kognitiv faoliyatni modellashtirish sifatida talqin etishdan iborat bo'lib, unga asosan, nutq yaratilishi bu so'zlovchi maqsadiga ko'ra harakatga keluvchi til ko'nikmalarining murakkab tizimidir.

Nutq yaratilishi til unsurlaridan foydalanish jarayoni bo'lishi bilan birga, muayyan til zaxiralarida mavjud bo'lgan imkoniyatlarni yuzaga chiqaruvchi, binobarin, uning rivojlanishi va dinamikasini ta'minlovchi lingvokreativ hodisa hamdir.

Nutq (matn) yaratilishiga kognitiv yondashuv kontseptual mazmunning tabiiy til vositasida ifodalanishi mexanizmlarini tadqiq qilishni taqozo etadi. Nutq yaratuvchi ijodkor shaxs voqelikni til unsurlari vositasida ifodalash – nominatsiya jarayonida tilda mavjud bo'lgan an'anaviy vositalarni qo'llar ekan, bunda nutqiy ifodaning yangicha, o'ziga xos shakllarini kashf qiladi.

Badiiy matnning diskursiv xususiyatlari yuzasidan tadqiqot olib borgan I.I.Chumak-Jun diskursiv maydonning uch jihatini alohida ta'kidlab ko'rsatadi. Bular: 1) kognitiv jihat; 2) kommunikativ-pragmatik jihat; 3) lingvomadaniy jihat. Diskursiv maydon deganda u til sohibi tomonidan anglangan, nutqiy tafakkur vositasida aktuallashtiradigan hamda matnda poetik kommunikatsiyaning assotsiativ-

obrazli parchasi sifatida reallashadigan hodisani tushunadi. I.I.CHumak-Jun diskursiv faoliyatning assotsiativ-derivatsion mohiyatiga alohida e'tibor qaratadiki, bu, nazarimizda, matn yaratilishini tadqiq etishda ham muhimdir. Zero, matn yaratilishida amal qiluvchi omillarga til belgilaridan tashqari yana bir qator hodisalar ham kiradi. Ulardan biri birlamchi obrazlarning ramziy interpretatsiyadir. Ramziy interpretatsiya real voqelik parchasini tasavvur asosida nomlash bo'lib, u, xususan, badiiy matn referentsiyasida muhim o'rin tutadi. Bu jarayonda nomlash uchun kognitiv asos bo'lgan mental tuzilma va nutqiy ifoda o'rtasida pertseptiv obrazlilik bog'lovchi vosita vazifasini bajaradi.

Voqelikdagi ob'ektni turli assotsiatsiyalar asosida nomlash uning kontseptuallashuvi va lisoniy voqelanishi bilan bog'liq bo'lgan matn referentsiyasi hodisasini o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, matn referentsiyasi tilshunoslikda "til unsurlarining lisoniy bo'lmagan ob'ekt va vaziyatlar bilan munosabati" tarzida talqin etiladi. Matn referentsiyasi tarkibiga diskursda qo'llanilgan ismlar va otli birikmalar kiradi.

Ismlar asosan real voqelikdagi ob'ektlarning ifodachisi bo'lganligi sababli, matn muallifi pragmatik maqsadini ro'yobga chiqarishda ularga ko'proq e'tibor beradi. O'zbek yozuvchilari asarlarini kuzatish shundan dalolat beradiki, matndagi referentlarni o'xshatish asosida nomlash yetakchi usullardan biridir. Bu, ayniqsa, O.Yoqubov, P.Qodirov, A.Muxtor, X.To'xtaboev, O'.Hoshimov, X.Do'stmuhammad, N.Eshonqul kabi yozuvchilarning individual ifoda uslubini ko'rsatuvchi xususiyatdir.

Voqelikni o'xshatish asosida ifodalash kognitiv va psixologik tomondan umumiylikni hosil qilsa, pragmatistik jihatdan muayyan shaxs ifoda usulining o'ziga xosligini namoyon qiladi. SHu o'rinda aytish lozimki, lisoniy-tafakkur ko'rinishlaridan biri bo'lgan o'xshatish nutqda turli sintaktik-semantik shakllarda reallashishi mumkin. Jumladan: o'xshatish qurilmalari, o'xshatish ergash gapli qo'shma gap, metaforik mazmunli birikma, perifraza, ibora, mikromatn, makromatn kabi.

O'xshatish asosida hosil qilingan matnlar tilning shunday asosda tuzilgan quyi sath birliklaridan mazmun-mohiyatiga ko'ra tubdan farqlanadi. Xususan, metaforalar asosida hosil qilingan matn referentsiyasi ob'ektiv voqelik va uni ifodalovchi til unsurlari o'rtasidagi an'anaviy shartlilik qonuniyatlariga hamma vaqt ham bo'ysunavermaydi.

Ma'lumki, mumtoz she'riyatimizda muayyan ob'ekt nomini to'g'ridan-to'g'ri aytishdan ko'ra, uni o'xshatish asosida nomlash usuli yetakchilik qilgan. Navoiyning "qilg'il" radifli g'azalida qo'llangan *ko'ngul ravzasi, qading niholi, jon rishtasi, xazon sipohi* kabi birikmalar shoirning g'azal mazmunini tashkil etuvchi unsurlarni nomlashga obrazli tafakkur asosida yondashganini ko'rsatib turibdi. N.Eshonqul asarlari tili o'zbek mumtoz she'riyatida qo'llanib kelingan ana shunday ifoda usulini yodga tushiradi. Uning "Momoqo'shiq" qissasidan olingan quyidagi mikromatnda yozuvchining voqelikdagi ob'ekt nomlarini ifodalashda aynan shu yo'ldan borganligini ko'rish mumkin:

U mana shu qora turmushning baxtsiz asoratini izlab Muazzamning ko'zlariga tikildi, biroq bu ko'zlar SHamsi Salohga noma'lum bo'lgan baxtdan yayrab turar, o'zidan baxtsizlik izlayotgan sovuq ko'zlarga yal-yal yashnab boqardi. Bu ko'zlarning qirlarida goho tole ohulari yugurgilab qolardi va atrofga xijolat – hayo aralash saodat yellari taralardi. Tikilib-tikilib qarasang, bu qorachiqlar supasida qora libos kiygan sehrgar o'tirganini ko'rarding, sehrgar o'ziga tez-tez josusona nigoh tashlayotgan anchayin sur ko'zlarga goho ajablanish, goho hayrat tuzoqlarini qo'yardi, goh o'zining sahnasiga qoqsuyak, xo'mraygan yuzning suratini chizardi; goh kichkina bu saltanatga bostirib kirmoqchi bo'layotgan ayg'oqchi nigohlarni tahdidona muzaffarlik bilan qarshi olardi va o'zining shu taxlit tilsimona o'yinlari bilan har qanday baxt va baxtsizlik haqidagi tushunchalardan yuksakda turishini isbot etmoqchi bo'lardi.

Mikromatnda ajratib ko'rsatilgan birikmalar yozuvchi badiiy tafakkurining hosilasidir. N.Eshonqul *nigoh, nazar* so'zi o'rnida *ko'zlarning qirlari, saodat yellari, hayrat tuzoqlari*; *ko'z* so'zi o'rnida *kichkina bu saltanat, qora libos kiygan sehrgar* birikmalarini qo'llagan.

Matnda ifodalangan ob'ektlarning bu tarzda nomlanishi matn referentsiyasi va real voqelik o'rtasidagi muvofqlikning o'quvchi tomonidan idrok etilishini kognitiv va psixologik jihatdan bir oz murakkablashtiradi. Boisi – retsipient matn muallifi idiolektida mavjud bo'lgan, ammo eksplitsit tarzda ifodalanmagan ob'ektning mohiyatini turli assotsiatsiyalar va tasavvurlar asosida o'zi kashf etishi lozim bo'ladi. Demak, mazmuniy idrok zanjirida yana bir xalqa – o'quvchi kognitiv faoliyatining ham bo'lishi zaruriy shartlardan biridir.

O'xshatish asosida yuzaga kelgan matnlarda shu narsa diqqatga sazovorki, har bir ijodkor o'xshatish mazmunini turli sintaktik shakllarda ifodalaydi. Bunday nutqiy tuzilmalarda matn muallifining o'xshatishga asoslangan obrazli tafakkur tarzi to'liq verbal holatda, shuningdek, implitsit tarzda ham ifodalanishi mumkin. Masalan, o'xshatish qurilmalarida matn muallifining psixologik-kognitiv faoliyati o'zining aniq ifodasini topadi. O'.Hoshimov qalamiga mansub quyidagi matn bunga misol bo'la oladi: *Haqiqat havoga o'xshaydi. Rangini ko'rmaysiz. Ovozini eshitmaysiz. Hidini bilmaysiz... Ammo bir lahza havosiz qolsangiz, bo'g'ilib ketasiz.* (“Daftar hoshiyasidagi bitiklar”) N.Eshonqul qalamiga mansub matnlarda esa o'xshatishga asoslangan kognitiv faoliyatning o'ziga xos shaklda ifodalanganligini ko'ramiz: yozuvchi aniqllovchi – aniqlanmish tipidagi birikmalar vositasida o'xshatishga asoslangan yangicha metaforik ifodalarni yaratadi: *Qo'shiq aytayotgan juvon qiyofasidagi o'zi izlagan qo'shiq ilohasi shu bir necha soniyada ayolni tashlab ketgan edi; u iloha o'rnida eriga ko'r-ko'rona mehr qo'ygan, o'zining notavon, baxtiqaro ekanligini eslashdan ham qo'rqib, ho'ng-ho'ng yig'lab yotgan ojiz va nochor ayol qolgan edi. SHamsi Salohning ko'nglida yana birdan **tushkunlik bayroqlari** hilpiray boshladi.* (N.Eshonqul. “Momoqo'shiq” qissasi)

O'xshatishga asoslangan matnlarga xos yana bir xususiyat borki, bu matnni tashkil etgan propozitsiyalarning ob'ektiv voqelik bilan bevosita bog'lanmasligidir.

... *hayot yo mamot jangiga kirgan qadim massagetlar malikasi yanglig' yuzi va avzoyiga har qanday o'tinchu iltijolar o'tmaydigan sovut kiyib olgan Hosila*

*o'sha kuni xonasiga va ko'zlariga tishlarini qayrab yotgan **nafrat ajdahosini** bog'lab qo'ygan edi: uni ko'rgan kundan chirqillab sayray boshlagan va unga tomon besarupoy uchib jo'nagan, biroq manzillariga yetmay daydi va hosila-iltifotsiz ko'zlaridan otilgan o'qlardan bir-bir halok bo'lgan **ko'nglim qushlarining** qalashib yotgan murdalari bilan liq to'lgan **ko'ksimdagi besarishta xonaga** esa o'zi ketgandan so'ng ham qalbimni pora-pora qilish, uni eslagan onlarim ko'krak qafaslarimni yorib tashlash uchun quturib ketib, hamma narsani sindirib, parchalab tashlaydigan bir sherni – behudud va hech qachon javobi topilmaydigan savollarni bog'lab ketgan edi. (N.Eshonqul. “Tun panjaralari” qissasi)*

Mikromatnlarda qo'llangan *nafrat ajdahosi*, *ko'nglim qushlari*, *tushkunlik bayroqlari* birikmalarida aniqlovchi o'z aniqlanmishiga o'xshatilganligi ko'rinib turibdi.

Matn referentlarini o'xshatish asosida ifodalash matnning metaforik mazmun kasb etishiga olib kelgan: *qo'nglida tushkunlik bayroqlarining hilpiray boshlashi, ko'zlariga nafrat ajdahosini bog'lab qo'yish, ko'nglim qushlarining qalashib yotgan murdalari bilan liq to'lgan ko'ksim* kabi ifodalar o'quvchiga muayyan axborot uzatishi bilan birga, uning tasavvurida obrazli manzaralarni paydo etadiki, bu badiiy adabiyot tilining bosh xususiyatlaridan biridir.

Misollar tahlili shuni ko'rsatadiki, o'xshatish asosida hosil bo'lgan matnlar ijodkorning badiiy tafakkur tarzini ko'rsatuvchi hodisa bo'lishi bilan birga, matn referentsiyasining hosil bo'lishida matn yaratuvchi shaxsning kognitiv-stilistik individualligini ko'rsatuvchi omillardan biri bo'la oladi.

Diskursiv tahlil masalalari bilan shug'ullanib kelayotgan olimlardan biri V.Z.Demyankov o'z maqolalaridan birida nutq yaratilishi jarayoniga “g'oyalarning kristallashuvi” deb ta'rif bergan edi¹⁴⁰. Anglashiladiki, muallif bunda lisoniy tafakkurning verbal bosqichga o'tishini obrazli tarzda ifodalamoqda

¹⁴⁰ Демяньков В.З. Продуцирование, или порождение речи // Краткий словарь когнитивных терминов // Кубрякова Е.С., Демяньков В.З., Панкрац Ю.Г., Лузина Л.Г. Под общ.ред. Е.С.Кубряковой. – М.: МГУ им. М.В.Ломоносова, 1996. – С. 129-134.

va bu o'xshatish juda o'rinli qo'llangan. Zero, muayyan til egasining ongida "charx urayotgan" fikrlar nutq maqomiga o'tar ekan, yagona markaz tomon harakatlanib zichlashayotgan zarrachalar singari bir mazmun atrofida birlashadi va nutq yaratuvchi shaxs maqsadining moddiy ifodachisiga aylanadi. Bu jarayonda ijodkor shaxs tomonidan qo'llangan kommunikativ strategiya muhim o'rinni egallaydi.

"Illokutiv mazmunni ifodalashning umumiy pragmatolingvistik tamoyillari"¹⁴¹, "muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshirishga yo'naltirilgan nutqiy harakatlar jamlanmasi"¹⁴² hisoblangan kommunikativ strategiyaga bag'ishlangan tadqiqotlarda bu hodisaga turli tomondan va turli nuqtai nazarlar asosida yondashilganini kuzatish mumkin. Ularda, asosan, kommunikativ strategiyani tiplashtirish, ayni hodisaning pragmatik va psixolingvistik hamda sotsiolingvistik xususiyatlarini yoritishga e'tibor qaratilgan.

Ma'lumki, so'zlovchi (yozuvchi) shaxs bo'lajak nutqining qay tarzda ifodalanishini o'zi ham aniq bilmaydi. Bu jarayonda ichki nutq nazorati (grammatik monitoring) amalda bo'lsa-da, u nutq oqimida qanday holatlar yuzaga kelishini avvaldan belgilab bo'lmaydigan, bir oz stixiyalilik ham amal qiluvchi hodisadir. SHunday bo'lsa-da, har safar yaratilgan nutq muayyan til egasiga xos bo'lgan nutqiy ko'nikmalarning kombinatsiyalari sifatida namoyon bo'ladi. Xususan, badiiy matn yaratuvchisi bo'lgan shoirlar va yozuvchilar tomonidan yaratilgan matnlarda bunday kombinatsiyalarning takrori individual uslub maqomiga ega bo'ladi.

O'zbek tilidagi nasriy asarlarni kuzatish shundan dalolat beradiki, poetik kommunikatsiyani amalga oshirishda tadqiqotchilar tomonidan "sub'ektiv-tahliliy" deb nomlangan strategiya turi juda ko'p qo'llanadi. Mazkur strategiya real voqelikni modellashtirishning o'ziga xos usuli bo'lib, unda matn muallifining referentni til unsurlari orqali tasvirlashidan ko'ra, unga bo'lgan sub'ektiv

¹⁴¹ Седов К.Ф. Дискурс и личность. – М.: Лабиринт, 2004. – С.35.

¹⁴² Иссерс О.С. Коммуникативные стратегии и тактики русской речи. – М.: URSS / УРСС; ЛКИ, 2008. – С.60.

munosabatini ifodalash maqsadi ustunlik qiladi. Bunday usulning muhim xususiyati shundaki, unda o'quvchi omili yuqori darajada amal qiladi.

Sub'ektiv-tahliliy strategiya asosida yaratilgan matnlarning kognitiv va psixologik asosida ko'p hollarda ikki vosita – o'xshatish va tasavvur qilish harakatlari yotadi.

O'xshatish asosida yaratilgan matnlar haqida gapirganda avvalo, ta'kidlash joizki, bu jarayon badiiy matnlarda ikki xil yo'l bilan – ochiq va yashirin tarzda ifodalanganini kuzatish mumkin. Quyidagi matnga e'tibor bering: *Iste'dodlar hadeganda qovusha qolmaydi. Ular yulduzga o'xshaydi. Har bir yulduzning o'z mehvari bo'ladi. Yulduzlar bir-birini inkor etmaydi. Ammo bir-birining mehvariga kirmaydi ham.* (O'.Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar")

Muayyan ob'ektni bu tarzda izohlash matn yaratishning ko'p qo'llanadigan usullaridan biridir. Bunda muallif tomonidan quyidagi nutqiy harakatlar amalga oshiriladi: 1. Bir ob'ektning ikkinchi ob'ektga o'xshashligini qayd etish. 2. Ikkinchi ob'ektning belgilarini tavsiflash. Muhim jihati shundaki, bu kabi matnlarning mazmuniy pertseptsiyasida o'quvchi ayni bir jumlada ikki xil propozitiv struktura parallel ifodalanganini va ulardan qaysi biri qabul qilinayotgan matnning kognitiv asosi ekanligini anglab yetishi lozim bo'ladi.

Berilgan matnda kognitiv asos bo'lgan *Har bir iste'dodli odam – o'ziga xos shaxsdir* makropropozitsiyasini muallif yashirin tarzda – implikasiya yo'li bilan ifodalagan. Matnning ichki tuzilishiga xos bo'lgan bu yashirin fikrni topish o'quvchi zimmasiga yuklanadi. Bunday tuzilishdagi matnlardan ko'zlangan maqsad – muallif o'zi tasvirlayotgan referentlarning belgisini o'xshatish yo'li bilan yanada aniq tasvirlash va o'quvchi tasavvurida obrazli manzarani yuzaga keltirishdan iboratdir.

Quyidagi matnda esa o'xshatish munosabati yashirin ifodalanganligini ko'rish mumkin:

Mevali daraxt o'ziga ishongani uchun yonidan yangi nihol o'sib chiqsa quvonadi. To'nka o'ziga ishonmagani uchun niholga g'ashlik qiladi. Biroq u

xohlaydimi-yo'qmi, nihol o'saveradi! (O'.Hoshimov. "Daftar hoshiyasidagi bitiklar")

Biz bu kabi matnlarni lingvistikada "metaforik mazmunli matnlar" termini bilan nomlash to'g'ri deb hisoblaymiz. Chunki ularda matn referentsiyasi yashirin o'xshatishga asoslangan bo'ladi. Yuqoridagi matnda *mevali daraxt, to'nka, nihol* referentlari muallif nazarda tutgan *iste'dodli odam, iste'dodsiz odam, yosh iste'dod egasi* referentlariga qiyoslanayotgani matn mazmunidan bilinib turibdi.

O'zbek tilida metaforik mazmunli matn yaratishning yana bir usuli borki, u ham o'xshatishga asoslanadi. Bu usulga ko'ra matn sub'ekti o'xshatish asosida tasvirlanadi. Masalan: *Tong yorishadi, tun qushi qop-qora qanotlarini yig'ib, qishloq ustidan olislarga uchib ketadi-da, chor-atrof odatdagi qiy-chuvga to'lib-toshadi.* (O'.Hoshimov. "Dehqonning bir kuni" hikoyasi) Ko'rinadiki, matn muallifining *tun* so'zi o'rnida *tun qushi* birikmasini qo'llashi *tong otishi* propozitsiyasining metaforik usulda ifodalanishiga sabab bo'lgan.

Matn sub'ektini o'xshatish asosida ifodalash natijasida o'quvchi ongida yangi va noreal ob'ekt haqidagi tasavvur paydo bo'ladi. Bunday matnlarda yangi deskriptsiyalar yuzaga kelib, matnda lingvokreativlik hodisasi namoyon bo'ladi. Bu kabi matnlarni qabul qilishda o'quvchi matn mazmuniga tasavvur va shartlilik asosida yondashishi lozim bo'ladi.

Sub'ektiv – tahliliy strategiyaning ikkinchi usuli bo'lgan poetik kommunikatsiyani tasavvur asosida amalga oshirish ham o'zbek badiiy matnlarida ko'p qo'llanadi. Bu usul qo'llangan matnlarda ob'ektiv voqelikning tasavvur asosida ifodalanishi matnning mazmuniy tuzilishida "muallif referentsiyasi" ustunlik qilishiga sabab bo'ladi. X.Do'stmuhammadning "Men – sensiz, sen – mensiz" qissasidan olingan quyidagi mikromatn ayni shu hodisaga misol bo'la oladi:

Utro ḍyshit u neyo na grudi...

Bunchalar aniq, bunchalar dilbar tasvir! Bir asr muqaddam yashab o'tgan shoir qaerdan bilgan Sening ko'ksingda tonglar nafas olishini, tonglar ko'ksingdan rang olishini?! Naq mo'jizaning o'zginasi emasmi bu, yagonam?!

Bu ta'rif mening dilim to'ridagi arzandadan-arzanda tuyg'u, shoir Fet esa o'sha tuyg'u ummonidan olgan rang timsolida she'riy surat chizgan xolos...
(X.Do'stmuhammad. "Men – sensiz, sen – mensiz" qissasi)

Tahlilga tortilgan matnlar shuni ko'rsatadiki, bu kabi strategiyalar badiiy matn hosil bo'lishida muhim o'rinni egallaydi. Ularda sub'ektiv va aksiologik modallik yaqqol bilinib turadi. O'xshatish va tasavvur asosida kognitiv faoliyatni modellashtirish nasriy matnlarda bayon qilishning o'ziga xos yangi usullarining yaratilishi va ularning barqarorlashib, nutqiy uslub an'anasiga aylanishiga sabab bo'ladi.

Ma'lumki, diskursiv tahlilga oid nazariy qarashlarda yaxlit nutqiy tuzilmani tushunish – retsipientning muallif matni asosida "o'z matni"ni yaratishi sifatida izohlanib, bunda nutqiy tuzilma yaratish kodlashtirish jarayoni, uni idrok etish esa dekodlash jarayoni hisoblanadi. Muallif matni asosida o'quvchi lisoniy tafakkurida qayta yaratilgan matn makroqoidalarga ko'ra yuzaga keltiriladi, ya'ni o'quvchi matn qismlari mazmunini alohida-alohida emas, umumiy, yaxlit tarzda qabul qiladi. T.A.Van Deyk terminlari bilan aytganda, o'quvchi ongida matn qismlarining l o k a l m a z m u n i emas, g l o b a l m a z m u n i qayta tiklanadi. Tushunish strategiyasining bu muhim qonuniyati metaforik mazmunli matnlarda o'zgacharoq tarzda kechadi. Boisi – oddiy bayon tarzida yozilgan matnlarda til belgisi va referentlar o'rtasida muvofiqlik mavjud bo'lsa, metaforik mazmunli matnlarda ko'p hollarda bunga amal qilinmaydi.

Metaforik mazmunli matnlarda ifodalangan referentsiya zohiran ob'ektiv voqelik haqidagi hukmni ifodalayotgandek ko'rinsa-da, matnning ichki tuzilishida ikkinchi, asosiy hukmni ifodalovchi referentsiya ham mavjudligi anglashilib turadi. SHu sababli bu kabi matnlarni tushunishda assotsiativ fikrlash juda muhim ahamiyatga ega. Quyidagi matnga e'tibor bering:

Mening ko'p gullarim ochilmay xazon bo'ldi, hazratim. Mening bir qanotim Ahmad Tanbalning olovida kuydi-yu, ikkinchi qanotimni SHayboniyyxon kuydirdi. Ilohim, endi siz shu mash'um olovlarning orasida qolmang! (P.Qodirov. "Yulduzli tunlar" romani)

Keltirilgan matnda 4 ta gap mavjud bo'lib, ularning hammasi metaforik mazmunga ega. O'quvchi ularda ifodalangan implitsit mazmunni tushunishi uchun gaplarning tashqi strukturasida ifodalangan vaziyatni matn muallifi nazarda tutgan vaziyat bilan assotsiatsiyaga kiritgan holda anglab yetishi lozim bo'ladi. O'quvchining metaforik mazmunni tushunishida o'zbek tilida mavjud bo'lgan *xazon bo'lmoq, kuymoq, yonmoq* (ushbu matnda: *olovlar orasida qolmoq*) ifodali an'anaviy metaforalar ham muayyan ahamiyat kasb etadi.

9- ma`ruza. Matnni psixolingvistik yondashuv asosida o`rganish

Matnning antropotsentrik mohiyati psixologiya va lingvistika sohalari kesishuvi natijasida yuzaga kelgan psixolingvistikada ayniqsa yaqqol namoyon bo'ladi. Psixolingvistik tadqiqotlarda matnning **matn tuzuvchi – matn – retsipient**dan iborat uchlik¹⁴³ nuqtai nazaridan tadqiq etilishi unda shaxs omilining rolini chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Ma'lumki, psixolingvistika sohasi XX asrning 50-yillarida psixologiya va tilshunoslik fanlarining hamkorligi natijasida yuzaga kelgan. Psixolingvistikaning asosiy tadqiq ob'ekti nutqiy faoliyat sub'ekti bo'lgan shaxs, til sohibi hisoblanadi. Rus tilshunosligida mazkur soha rivojiga katta hissa qo'shgan A.A.Zalevskaya psixolingvistikaning vazifasi haqida yozar ekan, "tilning amal qilishini psixik fenomen sifatida tavsiflash va tushuntirish" ushbu sohaning asosiy maqsadi bo'lishi kerakligini ta'kidlaydi¹⁴⁴.

Psixolingvistikaga doir ko'plab tadqiqotlar yaratgan rus tilshunosi va psixologi V.P.Belyanin "Основы психологическоy diagnostiki (modeli mira v literature)" nomli asarida matnga lingvistik va psixologik yondashuv haqidagi o'z kontseptsiyasini yaratdi. Olimning mazkur kitobdan o'rin olgan, matn haqidagi qarashlarini aks ettirgan 6 banddan iborat fikrlarini to'liq keltirishni lozim, deb hisoblaymiz. Zero, ular tilshunosligimizda hali shakllanib ulgurmagan matnning psixolingvistik tadqiq tamoyillari uchun juda muhimdir.

¹⁴³ Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психология. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

¹⁴⁴ Залевская А.А. Введение в психолингвистику: Учебник для студентов высших учебных заведений. – М.: Российский гос. гуманитар. ун-т, 1999. – С. 25.

1. V.P.Belyaninning fikriga ko'ra, nutq ortida nafaqat til tizimi, balki psixologiya ham turadi. (Ayonki, bunda olim nutq yaratilishi jarayonini nazarda tutgan).

2. Har xil matn ortida har xil psixologiya turadi. (Bunda V.P.Belyanin matn tuzuvchining matnda aks etuvchi sub'ektiv xususiyatlarini nazarda tutgan).

3. Badiiy matn tuzilishi aktsentuallashgan ong tuzilishiga muvofiqdir. (Bunda Belyanin ong psixik tuzilishining matn tuzilishiga ta'sirini nazarda tutadi. Uning bu fikri keyingi bandda yanada ravshanroq namoyon bo'ladi).

4. Hissiy-mazmuniy dominanta badiiy matnning semantik, morfologik, sintaktik xususiyatlari, shuningdek, uning uslubiyati namoyon bo'lishida asosiy rol ni bajaradi.

5. Matn voqelik – ong – olam manzarasi – til – matn tuzuvchi – retsipient – matn proektsiyasidan iborat tizim unsuri hisoblanadi. (V.P.Belyanin ushbu bandda matn yaratilishi va idrokining barcha lisoniy va nolisoniy omillarini qayd etgan).

6. Retsipientning badiiy asar haqidagi o'z talqini bo'lishi mumkin. Bu talqin matn bilan birga retsipientning psixologiyasiga ham bog'liq bo'ladi. (Bu bandda V.P.Belyanin matn idrokining xususiy hodisa ekanligini ta'kidlagan).

Nazarimizda, V.P.Belyanin tomonidan keltirilgan ushbu qarashlar faqat badiiy matnni emas, boshqa uslubdagi matnlarni ham psixolingvistik tahlil qilish uchun asos bo'la oladi. Xususan, 5-bandda bayon etilgan matnning ob'ektiv voqelik, ong, olam manzarasi, nutq yaratilishi va uning idroki bilan bog'liq bo'lgan serqirra va murakkab hodisa ekanligi haqidagi qarashlar matnning psixolingvistik mohiyatini yaqqol namoyon etadi.

Psixolingvistik tahlilda lisoniy ong masalasi ham markaziy o'rinlardan birini egallaydi. "Lisoniy ong tashqi faoliyatni til belgilari vositasida rejalashtirish va boshqarishdan iborat bo'lgan ichki jarayondir". U, xususan, muloqotning eng oliy birligi bo'lgan matn yaratilishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Matnning psixolingvistik tadqiqida eng muhim bo'lgan ob'ektlardan biri til sohibi – matn tuzuvchi va retsipient faoliyatidir. Ma'lumki, matn inson tomonidan inson uchun yaratiladi. Bu matn yaratilishi va uning idrokidan iborat faoliyat

zanjirining antropotsentrik xususiyatga ega ekanligidan dalolat beradi. Psixolingvistik tahlilda muallif-retsipient munosabatlarida amal qiluvchi lisoniy va nolisoniy omillar borki, ularni o'zaro uyg'unlikda tadqiq etish kutilgan natijalarni olishga imkon yaratadi.

Tilshunoslikda matn mohiyati, unga xos bo'lgan asosiy belgilar haqida mavjud bo'lgan fikrlar matnni psixolingvistik aspektda o'rgangan tadqiqotchilar tomonidan ham e'tirof etiladi. Jumladan, yaxlitlik, informativlik, bog'lanishlik kabi xususiyatlar matnning asosiy belgilari ekanligi bir qator psixolingvistlarning ishlarida ham qayd etib o'tilgan. SHu bilan birga, ushbu tadqiqotchilar matnning psixolingvistik o'ziga xosligi haqida ayrim qarashlarni ham ilgari surdilar. Jumladan, matnni psixolingvistik aspektda o'rgangan Yu.A.Sorokin uning bog'lanishlik va yaxlitlikdan iborat belgilariga quyidagi tarzda yondashadi: "Matn yaxlitligi psixologik nuqtai nazardan retsipient va matnning o'zaro munosabati jarayonida yuzaga keluvchi yashirin proeksion (kontseptual) holatdir, shuningdek, bog'lanishlik til / nutq qurilishi unsurlari barobarida uning qurilish unsurlari bo'lmagan qismlarning o'zaro hamkorligi natijasi hamdir. Yana bir tilshunos A.I.Novikovning fikriga ko'ra esa matn yaxlitligi faqat uning mazmuniy tuzilishiga xosdir. A.I.Novikovning ushbu xulosasi psixologik va kognitiv nuqtai nazardan to'g'ri bo'lsa-da, matnning tashqi tuzilishi – sintaktik-struktur jihatini e'tiborga olmaganligi bilan munozaralidir. Zero, matn yaxlitligini uning ichki tuzilishigina ta'minlamaydi.

A.I.Novikov matnning psixolingvistik belgilari qatorida axborot siqqligi (kompressivnost)ni ham qayd etadi. Axborot verbal shaklining siqqligi N.A.Jinkinining har bir matnni bitta gap shakliga keltirish mumkinligi haqidagi g'oyasiga asoslangan.

A.I.Novikov yuqorida qayd etilgan maqolasida matnni tahlil qilishning yangi bir yo'nalishi haqidagi qarashlarini ham bayon etgan. Uning fikricha, psixolingvistik va kognitiv tilshunoslikda til turli nuqtai nazarga ko'ra tahlil qilinsa-da, ular bir nuqtada kesishadi. U mana shu nuqtani "lingvopsixologiya" deb atashni taklif qiladi.

Matnni psixolingvistik tahlil etish haqidagi ayrim tadqiqotlarda uning kreollashtirilganlik, shakliy uzilish hamda interpretativlik xususiyatlari ham e'tiborga olinishi lozimligi ta'kidlanadi¹⁴⁵.

Kreollashtirilganlik (rus tilida: kreolizovannost) *kreol*¹⁴⁶ so'zidan hosil qilingan bo'lib, retsipientga ta'sir o'tkazish maqsadida verbal hamda noverbal shakllarning uyg'unlashtirilishi tushuniladi. Rus tilshunosi M.B.Voroshilovanning ma'lumotiga ko'ra, bu tushuncha psixolingvistikaga Yu.A.Sorokin hamda Ye.F.Tarasovalar tomonidan kiritilgan¹⁴⁷. Kreollashtirish natijasida "verbal va noverbal unsurlar yagona vizual, tuzilmaviy, mazmuniy va funktsional yaxlitlikni hosil qiladi"¹⁴⁸. Bunday matnlar sirasiga tadqiqotchi reklama matnlari, kinomatnlarni kiritadi.

Biz ruscha *kreolizovannyi tekst* terminini o'zbek tilida *uyg'un matn* termini bilan ifodalash ma'qul, deb o'ylaymiz, chunki bunday matnlarda bir necha nolisoniy va lisoniy faktlarning uyg'unlashuvidan iborat jarayon hosil bo'ladi. Fikrimizcha, uyg'un matnlar nafaqat psixolingvistikada, balki lingvokulturologiyada ham o'rganilishi lozim. Sababi – uyg'un matnlarda turli madaniy-semiotik maydonlar o'zaro aloqaga kirishadi. Masalan, g'azallar to'plamidan iborat kitoblarda ko'pincha CH.Ahmarov miniatyuralari ham beriladi. Bunda she'riy matn mazmuni hamda suratlardagi tasvir o'zaro uyg'unlashadi. Bunday usulni ertaklar to'plamida ham ko'rish mumkin. Reklama matnlari ham uyg'un matnga tipik misol bo'la oladi. Teleekranda namoyish etiladigan reklamalarda uch turdagi madaniy-semiotik maydon: tasvir, musiqa va matn uyg'unlashuvini kuzatish mumkin. Kinomatnlarda ham og'zaki matn, tasvir va musiqa uyg'unligi tomoshabin ruhiyatiga ta'sir etuvchi asosiy omillar hisoblanadi.

¹⁴⁵ Каранг: Ковшиков В.А., Пухов В.П. Психоллингвистика. Теория речевой деятельности: Учебник для вузов. – М.: Астрель, АСТ, 2007. – 318 с.

¹⁴⁶ *креол* – Африка мамлакатларида африкаликларнинг тубжойли бўлмаган, келгинди халқ вакиллари билан бўлган никоҳларидан туғилган авлодлар / Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 5 жилдди. 2-жилд. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2006. – Б. 416.

¹⁴⁷ Ворошилова Н.Б. Креолизованный текст: аспекты изучения // Политическая лингвистика. Вып. 20. – Екатеринбург, 2006. – С. 180-189.

¹⁴⁸ Ворошилова М.Б. Кўрсатилган мақола.

Yuqorida aytilganidek, bu kabi matnlar funktsional yaxlitlikni hosil qiladi. Psixolingvistikada retsipientlarning ana shu yaxlitlikni qabul qilish qobiliyatlari tadqiq qilinadi.

Psixolingvistikaga doir adabiyotlarda qayd etilgan shakliy uzilish (rus tilida: skvajnost) ham matnga oid qiziqarli hodisalardan biridir. Ma'lumki, matnda ketma-ket kelgan jumlar mazmunan o'zaro bog'liq bo'ladi. Ana shu bog'liqlik kutilmaganda uzilib qolishi mumkin. O'.Hoshimovning "O'zbek ishi" deb nomlangan hikoyasidan olingan quyidagi parchada mana shu hodisani ko'rish mumkin: *Yo'q, Jumanov Koryaginga emas, deraza tomon intildi. Soqchi eshikdan kirguncha bir hatlab deraza rahiga cho'kkalab oldi. SHu alpozda bir soniya, atigi bir soniya Koryaginga qaradi. Hozirgina ko'zlarida yonib turgan g'azab ifodasi o'rnida shu qadar chuqur, unsiz nafrat, nochorlik, iztirob... shu qadar teran hayrat bor ediki, Koryaginning yuragi orqaga tortib ketdi.*

– Jumanov! – Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi. – Jumanov ...

Gapini tugatmasdan derazadan yana g'ira-shira oqshom yorug'i ko'rindi.

Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi. CHuqurlikdagi hovlida, hovuz chetidagi simyog'ochda lampochka yonib turar, Jumanov yaproqlarini chang bosgan archa tagida g'ayritabiiy yonboshlab yotar edi: boshi hovuzning tsement qirrasida, gavdasi qirg'oqda... Koryagin uning jon taslim qilayotib, oyog'ini uch-to'rt silkitganini ko'rdi.

Berilgan mikromatnda xalqimiz kechmishidagi fojiali davrlardan biri – paxta yakkahokimligi vaqtida "o'zbek ishi" deb atalgan mash'um harakatning qurboniga aylangan shaxs, ya'ni sovxoz direktori Jumanovning tergovchining ma'naviy va jismoniy qiynoqlariga chidolmasdan, o'zini tergov bo'layotgan binoning yuqori qavatidan pastga tashlab halok bo'lishi epizodi tasvirlangan. Agar matndagi jumlariga mantiqiy jihatdan yondashadigan bo'lsak, uning ikki o'rnida muayyan jumlar tushirib qoldirilganini ko'rishimiz mumkin: bu – *Jumanov! – Vasiliy Stepanovich deraza tomon talpindi. – Jumanov...* jumlasidan keyingi **Jumanov deraza rahidan o'zini pastga otdi** hamda *Soqchi ikkovlari baravar yugurib borishdi* jumlasidan oldingi **Koryagin va soqchi yuqori qavatdan pastga tushib,**

hovliga chiqishdi jumlaridir. Axborot izchilligi ushbu jumalarni taqozo etsa-da, ularni matn tarkibida qo'llamaslik matnning mazmuniy yaxlitligiga ta'sir etmagan: retsipient muallif nazarda tutgan propozitsiyalarni matnda ifodalangan vaziyatdan kelib chiqib, o'zi tiklashi mumkin. Implikatsiyaning bu usuli badiiy matnlarda ko'p uchraydi. Demak, shakliy uzilish, aytish mumkinki, matn va retsipient munosabatlariga, ya'ni matnning mazmuniy idrokiga oid hodisa bo'lib, aborot siqqligining yuzaga kelishiga xizmat qiladi. Matnning psixolingvistik xususiyatlaridan biri interpretativlik hisoblanadi. V.P.Belyanin fikriga ko'ra, har bir retsipient muayyan matn haqida o'z interpretatsiyasiga ega bo'lishi mumkin. Matn idroki natijasida yuzaga keluvchi interpretatsiya xarakteri faqat matnning emas, retsipientning ham psixologik xususiyatiga bog'liq bo'ladi. Muallif bilan retsipient psixologik jihatdan qanchalik yaqin bo'lsa, ularning matn haqidagi interpretatsiyasi shunchalik muvofiq bo'ladi.

11- 12- mavzu. Matnning lingvokulturologik tadqiqi

Antropotsentrik tilshunoslikning yetakchi yo'nalishlaridan biri hisoblangan lingvokulturologiya (*lot. lingua* – til + *lot. cultura* – ishlov berish + *yun. logos* – ta'limot) tilshunoslik, madaniyatshunoslik, etnografiya, psixolingvistika sohalari hamkorligida yuzaga kelgan, tilning madaniyat, etnos, milliy mentallik bilan o'zaro aloqasi va ta'sirini antropotsentrik paradigma tamoyillari asosida o'rganuvchi sohadir¹⁴⁹. Tadqiqotchilarning ta'kidlashicha, mazkur soha XX asrning so'nggi choragida shakllandi, “lingvokulturologiya” termini esa V.N.Teliya rahbarligidagi Moskva frazeologik maktabi tomonidan olib borilgan tadqiqotlar bilan bog'liq ravishda paydo bo'ldi¹⁵⁰. Lingvokulturologiyaning yuzaga kelishi haqida gapirilganda, deyarli barcha tadqiqotchilar bu nazariyaning ildizi V.fon Gumboldtga borib taqalishini ta'kidlaydilar. Tilshunoslikda bu sohaning shakllanishida A.A.Potebnya, L.Vaysgerber, X.Glints, X.Xolts, U.D.Uitni,

¹⁴⁹ Сабитова З.К. Лингвокультуроология: Учебник. – М.: Флинта: Наука, 2013. – С. 8-9.

¹⁵⁰ Телия В.Н. Русская фразеология: семантический, прагматический и лингвокультурологический аспекты. – М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. – 288 с.

D.U.Pauell, F.Boas, E.Sepir, B.L.Uorf, G.Brutyan, A.Vejbitskaya, D.Xaymz kabi tilshunoslarning qarashlari muhim rol o'ynaganligi ta'kidlanadi.

Lingvokulturologiya sohasida jiddiy tadqiqotlar yaratgan V.A.Maslova ushbu sohaning rivojini 3 bosqichga ajratadi:

1) fan shakllanishiga turtki bo'lgan dastlabki tadqiqotlarning yaratilishi (V.fon Gumboldt, E.Benvenist, L.Vaysgerber, A.A.Potebnya, E.Sepir kabi tilshunoslarning ishlari);

2) lingvokulturologiyaning alohida soha sifatida ajratilishi;

3) lingvokulturologiyaning rivojlanish bosqichi.

Madaniyat, xalq tafakkuri, uning olamni idrok etishidagi o'ziga xos jihatlarining tilda aks etishini o'rganish lingvokulturologiyaning asosiy maqsadidir. Mazkur sohaning ob'ekti til va madaniyat, predmeti esa o'zida madaniy semantikasi namoyon etuvchi til birliklari hisoblanadi. Binobarin, lingvokulturologiyada madaniy axborot tashuvchi til birliklari tadqiq etiladi. Bunday til birliklari *lingvomadaniy birliklar* termini ostida birlashadi. Ramz, mifologema, etalon, metafora, paremiologik birliklar, lakunalar, stereotiplar, pretsedent birliklar, nutqiy etiketlar eng asosiy lingvomadaniy birliklar hisoblanadi. Olamning lisoniy manzarasini, madaniyatning asosiy kontseptlari majmui bo'lgan kontseptosferani, lisoniy ongini tavsiflash hamda til egalarining milliy-madaniy mentalligini aks ettiruvchi lisoniy birliklarni, insoniyatning qadimiy tasavvurlariga muvofiq keluvchi madaniy arxetiplarni, nutqiy muloqotga xos bo'lgan milliy ijtimoiy-madaniy stereotiplarni aniqlash lingvokulturologiyaning asosiy vazifalari hisoblanadi. Til va madaniyatning o'zaro ta'siri muammosi etnolingvistika, etnopsixolingvistika, kognitiv tilshunoslik, lingvomamlakatshunoslik, lingvokontseptshunoslik, lingvopersonologiya kabi sohalar ham o'rganiladi. SHu sababli ushbu sohalar lingvokulturologiyaga yaqin sohalar hisoblanadi.

Jumladan, V.N.Teliya bu haqda shunday yozadi: "Lingvokulturologiya insoniy, aniqrog'i, insondagi madaniy omilni tadqiq etuvchi fandir. Bu esa shuni bildiradiki, lingvokulturologiya markazi madaniyat fenomeni bo'lgan inson

to'g'risidagi antropologik paradigmaga xos bo'lgan yutuqlar majmuasidir". G.G.Slishkinning fikriga ko'ra, "Lingvokulturologiya inson omiliga, aniqrog'i, insondagi madaniyat omiliga yo'naltirilgan. Lingvokulturologiya markazining madaniyat fenomenidan iborat bo'lishi inson haqidagi fanning antropologik paradigmaga tegishli hodisa ekanligidan dalolat beradi". Lingvokulturologiyaning o'rganish ob'ekti haqidagi fikrlar borasida bir to'xtamga kelingan bo'lsa-da, ayrim munozarali qarashlar ham yo'q emas. Masalan, V.N.Teliyaning fikriga ko'ra, lingvokulturologiya til va madaniyatning faqat sinxron aloqasini o'rganadi. V.A.Maslova esa bu soha tilni ham sinxron, ham diaxron jihatdan o'rganadi, deb hisoblaydi. SHuningdek, V.N.Teliya lingvokulturologiya ob'ekti umuminsoniy xarakterga ega bo'lishini ta'kidlasa, V.A.Maslova muayyan xalq yoki qardosh xalqlar tilining lingvokulturologik xususiyatlari alohida o'rganilishi lozim ekanligini ta'kidlaydi.

Hozirgi vaqtda lingvokulturologiya jahon, xususan, rus tilshunosligida eng rivojlangan yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada bir qancha o'quv qo'llanmalar yaratilgan. Tilshunoslarning e'tirof etishicha, ularning orasida eng mashhuri V.A.Maslova tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanma hisoblanadi. Mazkur o'quv qo'llanmada lingvokulturologiya sohasining metodlari, ob'ekti va predmeti, yo'nalishlari yoritib berilgan, muayyan til birligini lingvokulturologik tahlil qilish namunalari ko'rsatilgan.

Lingvokulturologik tadqiqotlarda, asosan, quyidagi masalalar tadqiq etilganini ko'rish mumkin: 1) muayyan nutqiy janrning lingvokulturologik xususiyatlari. Bunda ko'pincha miflar, xalq og'zaki ijodiga xos janrlar tili tahlil etilgan; 2) muayyan uslubda yozilgan asarda lingvokulturologik kontsept ifodalanishi tadqiqi. Bunda, asosan, badiiy-nasriy asarlar tili tahlil etilgan; 3) qiyosiy aspektdagi ishlar. Bunda, asosan, rus tilidagi lingvomadaniy birliklar ingliz, nemis, frantsuz tillari bilan qiyoslangan; 4) lingvokulturologiyaning pedagogika fani bilan bog'liq jihatlari. Bunda talabalarda lingvokulturologik birliklarni aniqlash va tahlil etish malakasini hosil qilish asosiy maqsad qilib olingan.

Lingvokulturologik yondashuvdagi tadqiqotlar o'zbek tilshunosligida oxirgi o'n yilliklarda paydo bo'la boshladi. Masalan, Z.I.Solievning nomzodlik ishi o'zbek va frantsuz tillaridagi sententsiya, ya'ni axloqiy-ta'limiy xarakterdagi matnlarning milliy-madaniy xususiyatlarini o'rganishga bag'ishlangan.

Professor N.Mahmudovning "Tilning mukammal tadqiqi yo'llarini izlab..." nomli maqolasida lingvokulturologiya, umuman, antropotsentrik paradigmaning mohiyati va bu boradagi muammolar chuqur va asosli yoritib berildi. Ushbu maqolani o'zbek tilshunosligida lingvokulturologiya haqida jiddiy mulohazalar bayon qilingan birinchi asar sifatida baholash mumkin.

Maqolada lingvokulturologik nazariyaning shakllanishi uchun xizmat qilgan omillar, undagi asosiy tushunchalar, ularning talqinidagi har xilliklar haqida juda asosli mulohazalar aytilgan. Xususan, N.Mahmudov ayni sohaning eng asosiy tushunchalaridan bo'lgan til va madaniyat haqida quyidagilarni yozadi: "Til va madaniyat deganda, ko'pincha, "nutq madaniyati" deyiladigan muammo assotsiativ holda esga tushsa-da, bu ikki o'rindagi madaniyatning aynanligini aslo ko'rsatmaydi. Til va madaniyat deganda, odatda, (to'g'risi ham shu) til orqali u yoki bu madaniyatni yoki aksincha, madaniyatni o'rganish orqali u yoki bu tilni tushuntirish nazarda tutiladi, aniqroq aytadigan bo'lsak, lingvokulturologiyadagi madaniyatning ma'nosi "aqliy-ma'naviy yoki xo'jalik faoliyatida erishilgan daraja, saviya (*nutq madaniyati*)" emas, balki "kishilik jamiyatining ishlab chiqarish, ijtimoiy va ma'naviy-ma'rifiy hayotida qo'lga kiritgan yutuqlari majmui (*madaniyat tarixi, o'zbek madaniyati*)" demakdir. SHunday bo'lgach, nutq madaniyatining o'rganish muammolari boshqa, lingvokulturologiyaning o'rganish ob'ekti tamoman boshqadir".

Lingvokulturologiyaning bevosita matn bilan bog'liq jihatiga kelsak, shuni aytish lozimki, matn ham boshqa til birliklari qatorida bu sohaning tadqiq ob'ektlaridan biri hisoblanadi. "Lingvokulturologiya" kitobining muallifi V.A.Maslova bu borada quyidagicha yozadi: "Matn tilshunoslik va madaniyatning haqiqiy kesishuv nuqtasidir. Zero, matn til hodisasi va uning oliy sathi hisoblanadi, shu bilan birga u madaniyat mavjudligining amal qilish shakli hamdir.

Lingvokulturologiya esa tilni madaniy qadriyatlar tajassumi sifatida tadqiq etadi". V.A.Maslovaning, xususan, o'xshatish – matnlar haqidagi fikri ham e'tiborga molikdir. Olima o'xshatishlarning matn yartilishidagi o'rniga yana to'xtalib, ular matnda struktur-kompozitsion vazifani bajarishi va matn kogerentligini ta'minlovchi vosita maqomida bo'lishini aytadi. Kuzatishlar natijasida aytish mumkinki, o'xshatish va uning qisqargan shakli bo'lgan metaforalar matnda muhim kognitiv-semantik ahamiyat kasb etishi bilan birga, til sohiblarining milliy-madaniy tafakkuriga xos jihatlarni ham namoyon etuvchi hodisa bo'la oladi. O'xshatish va metaforalar asosiga qurilgan matnlar muayyan tilda qoliplashgan matn shakllari (ularni matnning pretsedent shakllari tarzida ham baholash mumkin)ni aniqlash imkoniyatini ham beradi.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq yana bir hodisa bu pretsedent matn masalasidir. Tadqiqotchi O.E.Artemovanning so'zlari bilan aytganda, pretsedent janrlar madaniy axborotning "akkumulyatori"dir.

Pretsedent matnlar pretsedent birliklarning bir turi bo'lib, o'zida muayyan millat til egalariga xos bo'lgan lisoniy xotirani aks ettiradi. Hozirgi vaqtda xususan rus tilshunosligida bu borada ko'plab tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Lingvokulturologiyadagi matn bilan bog'liq yana bir masala sententsiyadir. Sententsiya axloqiy-ta'limiy xarakterdagi til birligi bo'lib, o'zida intertekstuallikni namoyon etadi.

Z.I.Salieva ingliz va o'zbek tillaridagi sententsiyalarning milliy-madaniy xususiyatlarini qiyosiy aspektda o'rganar ekan, muayyan xalq tarixida katta o'rin tutgan mutafakkirlarning asarlarida bayon qilingan didaktik g'oyalarning yozuvchi tomonidan o'zgargan shaklda ifodalanishini intertekstuallikning bir ko'rinishi sifatida baholaydi. Tadqiqotchi bunga misol sifatida Oybekning "Navoiy" romanida Navoiy tomonidan aytilgan didaktik mazmunli matnlarni keltiradi. Bu xususiyatni o'zbek tilida yaratilgan boshqa asarlarda ham ko'rish mumkin.

Ma'lumki, lingvokulturologiyada L.Vaysgerber tomonidan tilshunoslikka olib kirilgan olamning lisoniy manzarasi tushunchasi alohida o'rin tutadi. Olamning lisoniy manzarasi voqelikni idrok etishning tilda muhrlangan va

muayyan lisoniy jamoa uchun xos bo'lgan tuzilishi, olamni idrok etish va kontseptuallashtirishning universal va ayni vaqtda milliy xoslangan usulidir. Har bir tabiiy til olamning o'ziga xos lisoniy manzarasi hisoblanadi. matn-o'xshatishlar, matn-metaforalar hamda tarkibida pretsedent birliklar, etalonlar, nutqiy etiketlar mavjud bo'lgan matnlarni o'rganish muayyan etnosga xos bo'lgan olamning lisoniy manzarasi ilmiy talqinini yaratishda eng muhim manba hisoblanadi.